

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

“Arxitektura tarixi va nazariyasi” kafedrasи

X.Sh.Po‘latov

**SAN’AT, ARXITEKTURA VA SHAHARSOZLIK TARIXI.
O‘RTA OSIYO ARXITEKTURASI TARIXI**

o‘quv qo‘llanma

Toshkent-2015

UDK: 72.03 (1-925.2)

Muallif: X.Sh.Po'latov

“San’at, arxitektura va shaharsozlik tarixi. O‘rtal Osiyo arxitekturasi tarixi” o‘quv qo‘llanma.

O‘quv qo‘llanma O‘rtal Osiyo me’morligining qadimdan XX asr boshigacha bo‘lgan davrni qamrab olgan. Unda hududning yirik me’moriy maktablarini o‘zaro umumiy jihatlari va ayni vaqtda o‘ziga xosliklari ko‘rsatilgan. Ajdod me’morlarimizning turli tarixiy davrlarda qo‘lga kiritgan shaharsozlik va me’morchilikdagi yutuqlari yoritib berilgan. Muhim muammolar davrma-davr me’morlar silsilasi tomonidan izchillik bilan yechilganligiga alohida e’tibor berilgan.

Qo‘llanma bakalavriatning arxitektura hamda dizayn yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Undan O‘rtal Osiyo arxitekturasi tarixi bilan barcha qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: arxitektura doktori, prof.Sh.J.Asqarov
arkitektura nomzodi K. Muhammadjonov

Mas’ul muharrir: arxitektura nomzodi, dots. Sh.Reyimbayev

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtal maxsus ta’lim vazirligining 2012 yil, 14-martdagisi 107-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida nashr etishga ruxsat berildi (g.Nº107-101).

© TAQI-2015

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....
MUQADDIMA.....
ARXITEKTURA DEBOCHASI (mil.av.VIII asrgacha).....
QADIMGI DAVR ARXITEKTURASI (mil.av.VIII – V asr).....
Qadimgi shaharsozlik.....
Qadimgi me’morlik.....
ILK O‘RTA ASRLAR ARXITEKTURASI.....
Ilk o‘rtalar shaharsozligi.....
VI-VIII asrlar me’morligi.....
IX-X asr me’morligi.....
XI-XIIasr boshi me’morligi.....
XIII ASR O‘RTASI - XV ASR ARXITEKTURASI.....
XIII-XV asrlar shaharsozligi.....
XIIIasr o‘rtasi-XV asr o‘rtasi me’morligi
Amir Temur va Temuriylar davri me’morligi.....
XVI-XVII ASRLAR ARXITEKTURASI.....
XVI-XVII asrlar shaharsozligi.....
XVI-XVII asrlar me’morligi.....
XVIII-XIX ASRLAR O‘RTASIDAGI ARXITEKTURASI.....
XVIII-XIX asr o‘rtasidagi shaharsozlik.....
XVIII-XIX asr o‘rtasidagi me’morligi.....
XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHI ARXITEKTURASI.....
XIX asr o‘rtasi- XX asr boshi shaharsozligi.....
XIX asr oxiri- XX asr boshi me’morligi.....
ADABIYOT.....
MUSTAQIL ISH BAJARISH BO‘YICHA KO‘RSATMA VA MAVZULAR
KEYS-STADI.....
MAVZULAR BO‘YICHA SAVOL – JAVOBLAR.....

SO‘Z BOSHI

“O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi” fani “San’at, arxitektura va shaharsozlik tarixi” fanlar siklida alohida ahamiyat va o‘ziga xosliklarga ega.

O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi fani o‘zining mazmuni va maqsadi bilan umumiy arxitektura fanidan farqli jihatlari mavjud. Avvalo ajdodlarimiz bu fan bizga o‘zimizning arxitekturamizni o‘rgatadi. Qolaversa, bo‘lg‘usi ta’mirshunos me’morlarimiz ham O‘rta Osiyo arxitekturasi obidalari bilan ish ko‘radilar. Fanning maqsadi bo‘lg‘usi mutaxassisning keyingi ijodiy (loyihaviy va ilmiy-tekshirish) faoliyatida qo‘llash uchun O‘rta Osiyo arxitekturasining rivojlanish tamoyillarini chuqur o‘rganib chiqishdan iborat.

Ustoz ajdodlarimiz qoldirgan me’moriy merosning ikki: moddiy va ma’naviy jihatlari mavjud. Moddiy jihatni jismonan saqlangan (butunligicha yoki qisman) obidalarda mujassamlangan. Merosning ma’naviy jihatni esa arxitekturaviy (hajmiy-fazoviy) muhit uyushtirish borasida yaratilgan xilma-xil, yuksak me’moriy usul va qoidalardan iborat.

Mazkur qo‘llanma avvalo “Arxitektura” va “Dizayn” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan. Davlat mezoni bo‘yicha tuzilgan.

Tarkiban qo‘llanma materiali ibtidoiy davrdan XX asr boshlari (30 yillar)gacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga qamrab olgan. Qo‘llanmada turli davrlarga bag‘ishlangan materialni bir xildagi tartibda berishga harakat qilingan: avval arxitekturaga ta’sir ko‘rsatgan davrga, uning bosqichlariga ta’rif berilib, keyin arxitekturaning tarmog‘i bo‘lgan shaharsozlikka (shaharlar turlariga, ularning tuzilishlariga, muhim shaharlar tavsifiga), so‘ngra arxitekturaning bosqichlari bo‘yicha tahlil qilinadi. Ashyo, konstruksiya, kompozitsiya, bezak masalalari ko‘rib chiqiladi. Imkoniyat boricha me’moriy maktablar xususiyatlari keltiriladi. Bino va inshootlar aksari tipologik tasnif: turar uy-saroy, karvon saroy, ibodatxona, ilm maskanlari, dafn inshootlari (maqbaralar), muhandislik qurilmalar (hammom, sardoba va h.k) bo‘yicha tahlil etiladi. Ayrim inshootlarga triada (funksiya, konstruksiya, estetika) bo‘yicha ta’rif

beriladi. Unda gapning avvali me'morchilikning asosi bo'lgan turar uylar to'g'risida, keyin esa turar uylar me'morligiga asoslangan mahobatli me'morlik to'g'risida bo'ladi.

Qo'llanma fan o'quv rejasida mashg'ulotlarning ajratilgan turlariga mos ravishda tuzilgan. Unda mustaqil ishga ajratilgan soatlarda bajarish uchun mo'ljallangan arxitekturaviy tahlil bayoni ham keltirilgan. Bu qism tahlil o'tkazishga oid uslubiy ko'rsatma, shaharsozlik va me'morlik bo'yicha mavzular va chizma manbaalari ro'yxatidan iborat.

Kitobda hududlarga oid o'quv materialni keltirish tartibi quyidagicha bo'lishiga harakat qilingan:

-davr ta'rifi, bosqichlarga bo'linish, siyosiy-iqtisodiy hamda madaniy hayot; eng muhim yo'llar, yirik ariqlar, vohalar, shaharlarning va qishloqlarning joylashuvi;

-shaharlarning miqdoriy ko'rsatkichi - soni, nomlari, o'rganilganlik darajasi hamda ularning (mumkinlik doirasida qishloqlarning ham) umumiyl tuzilishlari va xususiyatlari;

-muayyan shaharlar (tarhi, markazi ariqlari, devorlari, darvozalari va boshqalari);

-me'moriy majmualar (shakllana boshlanishi, o'zgarishi, yakuniy kompozitsiyasi); majmualar qaysi davrni ta'riflash ahamiyatliroq bo'lsa, ular risolaning asosan o'sha davrga oid qismida ko'rib chiqilgan; masalan Termizdag'i Sulton Saodat majmuasi XVI-XVII asrlar materiallari qatorida Toshkentdag'i Xazrati Imom XVIII – XIX asrlar materiallari qatorida tahlil qilingan;

-qishloqlar yoki boshqa shaharsozlik (chunonchi bog'chilik) asarlari;

-me'moriy maktablar;

-asosiy me'morlik maktablarining umumiyl va xususiy jihatlari, jumladan, keng tarqalgan qurilish ashyolari, inshootlar tipologiyasi, konstruksiyasi, estetikasi (hajmiy-fazoviy yechimi, bezagi);

-turar uylar va saroylar; ularning shahar ichidagi va shahardan tashqaridagi namunalari;

-boshqa dunyoviy inshootlar namunalari (ibodatxonalar, dafn imoratlari va boshqalar);

-xulosa-davr yakuni.

Yodgorliklarning tadqiq qilinishida yozma manbalarni o'rganish katta ahamiyatga ega. O'zbekiston shaharsozligi va me'morligiga oid manbalarini asosiy uch turkumga ajratish joizdir.

1-turkumdagi manbalarda shaharsozlik va me'morlikka tegishli ozmi-ko'pmi ma'lumotlar sahro mavzudagi bayonlar ichida uchraydigan adabiyotdan iborat: Avesto, antik mualliflar ma'lumotlari, Xitoy manbalari, arabiylar, forsiy va sahotillarda ijod etgan o'rta asr yozuvchilari-Ibn Xavqal, Istarhiy, Narshaxiy, Maqdisiy, Klavixo, Vosifyi kabi mualliflarning kitoblari, klassik adabiyotimiz namoyondalari-Navoiy, Bobur, Furqat kabi shoir va yozuvchilarning asarlari, ziyoratchilar uchun mo'ljallangan safarnomalar, Vamberi, Bartold, Bartels, Ostroumov, Tolstov kabi Evropa va rus sayyoh va sharqshunoslarning asarlari, chor kolonializmi davridagi turli nashrlar ("Sadoi Turkiston", "Turkestanskie vedomosti" ro'znomalari), Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg kabi shaharlarning tarixiy arxivlaridagi manbalar (xabarnomalar, bayonlar va boshqalar).

2-turkumdagi manbalar bevosita me'morchilik va shaharsozlikka bag'ishlangan maxsus maqola va kitoblardan iborat: turli hunarlarga, jumladan me'morlikka bag'ishlangan o'rta asr manbalari (mas G'iyyosiddin Koshiy risolasi, bog' tuzishga bag'ishlangan «Irshod az-ziroa» risolasi) XVI asr Buxoro ustasining tarh chizmalari, Ahmad Donish bajargan (Buxoro shaharining sxemalari). Bularidan tashqari mazkur turkumdagi manbalarga shaharsozlik va me'morlik to'g'risidagi V.Shishkin, Ya.G'ulomov, V.Lavrov, S.Masson, V.Masson, G.Pugachenkova, L.Rempel, V.Voronina, P.Zoxidov, V.Nilsen, L.Mankovskaya kabi olimlarning ishlari, ayrim yodgorliklarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotchilarning monografik tiynatidagi (xarakteridagi) asarlar, (mas: "Ishratxana" kitobi, V.Massonning "Oltintepa", A.Asqarovning "Sopollitepa", G.Pugachenkovning Manas yoki Arab ota maqbaralari haqidagi asarlari) san'at tarixiga bag'ishlangan asarlarning me'morlikka

oid qismlari, “Arxitekturnoe nasledstvo” yillik nashrlaridagi maqolalar, 12 jildlik “Всеобщая история архитектуры” kitoblaridagi O‘rta Osiyoga bag‘ishlangan 1 va 8 jildlar, me’moriy obidalarga bag‘ishlangan o‘zbek va rus tillaridagi bukletlar, ensiklopediyalardagi maqolalar kiradi.

Bu o‘rinda yana shuni aytish joizki, O‘rta Osiyo me’morligini o‘rganishda hozirgacha ma’lum bo‘lmagan yozma manbalar kelajakda chiqishi muharrar. Bunga bir misol: qadimda turli kasb egalari uchun maxsus risolalar tuzilgan. Me’morlikka oid eski o‘zbek yozuvida bitilib, matni “basmala” bilan boshlangan risola mavjudligi to‘g‘risida og‘zaki ma’lumotlar bor. Afsuski, bunday risolalar o‘rganilmagan, matbuotda e’lon qilinmagan.

3-turkumdagi manbalar eng yangi bo‘lib, ular Mustaqillik davridagi nashrlardan iborat; bu manbalarda so‘ngi yillarda olib borilgan tadqiqotlar mujassam bo‘lgan; turkumda ayniqsa tarixiy shaharlarimizning yubileylar bilan bog‘liq bo‘lgan nashrlar alohida ahamiyatga egadir.

Turkumga O‘rta Osiyo mamlakatlari olimlarining tadqiqotlari, sahro chet el tadqiqotlari hamda ular bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlarni kiritish joiz.

Ular qatoriga Olmoniya Arxeologiya institutining Ovrusoziyo (Yevroaziya) bo‘limining ishlarini kiritish mumkin.

Qullanmada illyustratsiyalar asosan mavjud nashrlardan olingan. Xivaga oid 198, 204, 227, 232-235, 238-242, 244, 247 - fotosuratlar magistrant T.S.Nurullin, Samarqand va Buxoroga oid 121,127, 146, 151, 167, 251, 252, 254- fotosuratlar katta ilmiy xodim izlanuvchi N.H.G‘ulomova tomonidan olingan. N.H.G‘ulomova shuningdek o‘quv qo‘llanmani nashrga tayyorlashdagi boshqa ishlarda ham qatnashgan. Kitob illyustratsiyalariga L.Yu.Xaytmetova (“Artifex group” MChJ) qayta ishlov bergen. Kitob muqovasi bezagini T.S.Nurullin bajargan.

MUQADDIMA. UMUMIY TAVSIF

O'rta Osiyo me'morligining asosiy jihatlari. Me'morligining shakllanishi uning jug'rofiy sharoiti bilan chambarchas bog'liq. U ko'p jihatdan keskin kontinental iqlim-juda issiq yoz, nisbatan sovuq qish hamda ikki ulkan sahro-qoraqum va qizilqum, Orol dengiziga quyuluvchi Sirdaryo va Amudaryolari, shimolda bepayon Qozog'iston cho'llari va janubi-g'arbda past-baland tog'lar bilan xarakterlanadi. Garchand O'rta Osiyo zaminida inson juda qadimdan yashay boshlaganidan buyon geologik, iqlimiyl o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lsada, ular biz ko'rib chiqadigan zamonlarda me'moriy qonun-qoidalarni sezilarli darajada o'zgartirgan emas. Shuni ham takidlash joizki, ba'zan daryo o'zanini o'zgartirib sohildagi shaharlarni (masalan, Kat, Axsikatni) yuvib ketgan, vohalarning chegaralari o'zgarib turgan. Chunonchi, Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida madaniy tepalar shaklidagi arxeologik yodgorliklarning ko'pligi, qadimda bu joylar juda obod bo'lganligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyo hududida qadimdan odamlar cho'llarda chorvachilik bilan, vohalarda dahqonchilik bilan, tog' oldilarida esa har ikkisi bilan ham mashg'ul bo'lishgan. Dehqonchilik uchun yaroqli yerlarning nisbatan kamligi ularning nihoyatda e'zozlanishiga sabab bo'lgan. Insonning mazkur ikki faoliyat turlari, ularning fazoviy muhitlari yonma-yon bo'lib, bir-birini to'ldirib turgan. Hunarmandlik markazi bo'lmish shaharlarda ba'zan nafaqat hunar bilan, balki dehqonchilik bilan ham mashg'ul bo'lishgan.

O'rta Osiyo arxitekturasining tarixi jahon arxitekturasining tarixi tarkibiy qismi bo'lib, u bilan chambarchas bog'liqdir. O'rta Osiyo arxitekturasining rivoji jahon arxitekturasining rivojlanish qonuniyatlariga binoan kamol topdi. Unga tutash bo'lgan mamlakatlar arxitekturasi ta'sir ko'rsatdi va o'z navbatida bu mamlakatlar arxitekturasiga, ayniqsa Temur va temuriylar davrida ta'sir ko'rsatdi.

Davrlar. O'rta Osiyo arxitekturasi tarixida olti asosiy davrlarni ajratish maqsadga muvofiqliqdir.

1. Ilk davr (m.av.VIII asrgacha)-arxeologik davrlardan tashkil topadi; yodgorliklari O'rta Osiyo arxitekturasining juda qadimiyligini isbot etadi.
2. Qadimgi davr (m.av.VIII m. V asrlar) – O'rta Osiyo arxitekturasining dastlabki rivojga yuz tutgan davri hisoblanadi.
3. Ilk o'rta asrlar (VIXIII asr boshi)-yangicha arxitektura shakllanishi va rivoj topishi bilan xarakterlanadi.
4. O'rta asrlar (XIII-XVII asrlar)-o'z ichiga O'rta Osiyo me'morligining eng cho'qqisi bo'lmish Temur va temuriylar me'morligini ham qamrab oladi.
5. XVIII-XIX asr 1-yarmidan iborat davr arxitekturada halq me'moriligi ahamiyati o'sadi.
6. XIX asr 2-yarmi XX asr boshini qamrab olgan davr-Ovrupo arxitekturasining jihatlari namoyon bo'ladi.

Zikr etilgan asosiy davrlarning tarkibida me'morligi bilan yaqqol farqlanib turadigan davrlar ham mavjudkim, ular quyida ajratilib ko'rib chiqiladi.

Me'moriy maktablar. O'rta Osiyo arxitekturasi umumiylikka ega bo'lgan, yaxlit voqelikdir. Ayni vaqtda unda tabiiy-iqlimiylar va tarixiy-madaniy sharoitga ko'ra uning u yoki bu qismlarida katta-kichik me'moriy maktablar¹ vujudga kelgan. Ularni tasniflashda umumlashtirish nuqtai nazardan yirik maktab, maktab va maktab tarmoqi darajalarini farqlash joizdir. O'rta Osiyo hududi doirasida yirik uch me'moriy maktablar turkumi mavjud.

Birinchisi: Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikistonlarning janublarida qaror topgan.

Ikkinchisi: Xorazm – Amudaryoning quyi oqimini qamrab olgan; Qoraqum va Qizilqum bilan o'ralganligi tufayli madaniyatining o'ziga xosligi bu yerlarda kuchliroq.

Uchinchisi: O'rta Osiyoning qolgan vodiylariga mansubdir.

O'rta Osiyo me'morligini to'laroq o'rganish nuqtai nazardan yirik me'moriy maktablar turkumi darajasidan ko'ra me'moriy maktablar darjasini ahamiyatlairoqdir.

¹ Me'moriy maktab deyilganda ta'llim binosi emas, balki me'morlikdagi uslub va qoidalarning yig'indisi nazarda tutiladi.

O'rta Osiyoda yetti me'moriy maktabni ajratish lozim. Ularning ta'sir doiralari quyidagicha.

Janubi-g'arbiy maktab-Turkmanistonning janubiy qismida; maktabning uch: g'arbiy (Kaspiy dengiziga tutash bo'lgan) O'rta (Ashhabod atroflari va Xorirud vodiysi) sharqiy (Murg'ob vodiysi) tarmoqlari bor.

Shimoli-g'arbiy maktab-Amudaryoning quyi oqimida; maktabning o'ziga xosliklari boshqa maktablarnikiga qaraganda kuchliroq.

Janubiy maktab-Amudaryoning o'rta oqimidan o'ng va chap qirg'oqlarida, yuqori oqimidagi chap qirg'oqlarida (Surxondaryodan); daryoning qismlariga (o'rta va yuqori oqimlariga) monand ravishda maktabning ikki tarmoqini ajratish mumkin.

O'rta maktab-Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida; maktabning g'arbiy (Buxoro viloyati), sharqiy (Samarqand viloyati) va janubiy (Qashqadaryo viloyati) tarmoqlari mavjud.

Sharqiy maktab-Farg'ona vodiysi; maktabning o'ziga xosliklarini hudud atrofi tog' tizmalari bilan qurshab olinganligidan kelib chiqqan.

Shimoli-sharqiy maktab-Qozog'istonning janubiy, Qirg'izistonning shimoliy yerlarida; maktabning o'ziga xosligiga o'troq va ko'chma hayot tarzi ta'sir ko'rsatgan; tarmoqlari uchga bo'lib, ular Sirdaryoning quyi va o'rta oqimi yerlarida hamda Qirg'izistonning shimoliy qismida shakllangan.

Shimoliy maktab-Qozog'istonning O'rta va shimoliy hududlarida; maktab ko'proq ko'chma hayot tarzi talablariga javob bergan.

Qurilish ashyolari. Bino va inshootlar qurilishida gil (tuproq)dan taylorlangan turli ashyolar qo'llanilgan. Keng ko'lamda paxsadan foyda lanilgan. Guvala bilan sinchlari oralig'i to'ldirilgan. Xom g'isht paxsa bilan va paxsasiz ishlatilgan. Pishiq g'ishtdan devor va gumbaz-tog'dar terigan. qorishma sifatida loy va ganch ishlatilgan.

Qurilish konstruksiyalari. Umuman jaxon tarixiy me'morligida bo'lganidek asosan ikki: tayanch - to'sinli va tog' - gumbazli konstruksiyalar qo'llanilgan. Tayanch - to'sinli qurilmalar ichida ayniqsa xalq me'morligida sinchlardan foydalanilgan. Tog' – gumbazli konstruksiyalar sirasiga ravoqlar, tog' va gumbaz

shakllaridagi yopmalar kiradi. Bu ikkala turdag'i konstruksiyalar zil-zilaga bardosh bera oladigan ko'rinishlarga ega bo'lgan.

Turar uylar me'morligi. Mahobatli me'morlikni ko'p jihatdan turar uylar me'morligi belgilagan. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi turar uylar mahalliy qurilish ashyolaridan bunyod etilib tabiiy-iqlimi muhit bilan bog'liq holda rivoj topgan. Ularni qurishda toshdan, ko'proq esa tuproqdan (guvala, xom va Pishiqliq 'isht, paxsa holatlarida), yog'ochdan, hamishdan, ganchdan (ganch xok, gulganch va sahroholatlarida) foydalanishgan. Uylarning shakllanishida yil davomida issiq (iliq)kunlar ko'pligi, hovlining (ochiq muhitning) ahamiyati katta bo'lishiga olib kelgan. Atrofi qizil va Qoraqum sahrolari bilan o'ralgan iqlimi qattiq Xorazm bundan mustasnodir. Uylarning konstruksiyasi asosan tayanch-to'sinli bo'lgan. Turar uylarning shakl-shamoyiliga xalqlarning mentaliteti (mahalla bo'lib yashashga intilishi, bolajonligi, mehnatsevarligi kabilar), urf-odatlari, turmush tarzi, kasb-kori, moddiy imkoniyati va boshqalarta'sir ko'rsatgan, davrning taraqqiyot darajasi ifoda etilgan. Turar uylar me'morligida oilani toza suv bilan ta'minlash, oqavani bartaraf etish, xonalarni yoritish, shamollatish, isitish, zilzilabardoshlik kabi muammolar turli davrlarda turlicha xal etilgan. Uylar tipologiyasida asosan shahar va qishloq uylarini farqlash mumkin. Uylarning qiyofalarini belgilashda ulardagi jihoz (xonumon) katta rol o'ynagan. Uylar qadimdanoq xonalar (yopiq muhitlar) va hovlilar (ochiq muhitlar)dan, ba'zan yana bog'dan iborat holda shakllangan.

ARXITEKTURA DEBOCHASI

(m.av.VIII asrgacha)

Arxitekturaviy muhitning rivoji inson o‘zi yashab turgan joyning, boshidan kechirgan hayotining tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Quyi paleolit (taxminan 800-100 ming yillar burun) manzilgohlari juda sodda bo‘lgan; o‘rta paleolit (taxminan 100-40 ming yilliklar burun) manzilgohi sifatida Teshik toshni (Boysun tog‘ida) yuqori paleolit (taxminan 13-5 ming yilliklar) manzilgohi sifatida Samarqand shahar bog‘idan topilgan manzilgohni hamda mezolit (taxminan m.av.13-5 ming yillar) va neolit (taxminan m.av.4-3 ming yillar) orliqliklariga mansub deb faraz qilingan Machayni (Boysun tumani) misol tariqasida keltirish mumkin.

Janubiy Turkmanistondagi neolit yodgorliklari Pasajiktepa (m.av.6-mingginchi yillik), Jaytun (m.av.7-5-mingginchi yilliklar), Qoratepa (m.av.3-mingginchi yillik), Kuksur (Geoksyur) tolosi (m.av.4-3-mingginchi yillar); bularning Yaqin Sharqdagi Sherixon neolitik qarorgohlari bilan umumligi mavjud.

Dastlabki shaharlar (protoshohlar) Oltintepa (Kaaxka tumani, Meana qishlog‘i, m.av. 5-4-mingginchi yilliklarda-qarorgoh, m.av. XXI-XVIII asrlarda-shahar), Sopollitepa (Surxondaryo, m.av. XVII-XIV asrlar), Jarqo‘ton (Surxondaryo), O‘rta Osiyoda, xususan O‘zbekistonda bundan 40-20 mln. yil burun yashay boshlagan deb hisoblanadi. Arxitekturaning dastlabki shakllanish jarayoni tosh, birinj (bronza) va temir davrlarida o‘tgan. Tosh davri qadimgi tosh-paleolit, o‘rta tosh-mezolit va yangi tosh-neolit davrlariga bo‘linadi.

O‘z navbatida paleolit-geologlar ta’rifiga ko‘ra to‘rtlamchi davr -quyi yoki ilk (shell, ashell), o‘rta (must’e) va yuqori yoki so‘nggi paleolit davrlariga ajratiladi. quyi paleolit davri (taxminan 800 ming yil burun boshlanib 100 ming yil burun tugagan) juda ham sodda manzilgohlar bilan ma’lum. O‘rta paleolit (taxminan 100 min gyil burun boshlangan) davri Boysun tog‘laridagi Teshiktosh neandertal insonning g‘or manzilgohi bilan mashhurdir. Yuqori yoki so‘nggi paleolit (taxminan 40 ming yil burun boshlanib 12 ming yil burun tugagan) yodgorliklari qatorida Samarqand shahar bog‘i ichidagi paleolit manzilgohini keltirish mumkin. O‘rta tosh asri-mezolit

taxminan miloddan avvalgi 13 mingyillikdan 5 mingyillikkacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Surxandaryo viloyati Boysun tumanidagi Machay g‘or manzilgohi dastlabki kuzatuvlarga ko‘ra mezolit va neolit davrlariga mansubdir.

Janubiy Turkmaniston –O‘rtal Osiyoning dastlabki me’morchilik kurtaklari paydo bo‘lgan yerlaridir. Neolit-yangi tosh davrida (mil.av. 3-4 mingyilliklar) bu joylarda dehqonchilik-chorvachilik jamoalari shakllanadi.

Pasariq tepadagi (mil.av.6-ming yillik) ibodatxona devorlaridagi sur’atlar (509-ad., 44-b.) san’at turlari sintezining dastlabki namunalaridir.

Jaytun madaniyati miloddan avvalgi VII-V-mingyillikda oiddir. Jaytunda 30 ta turar joylar bo‘lsada ko‘cha va maydon yo‘q. Tuzilishda bir muncha o‘zaro bog‘liqlik g‘ora tepa (miloddan avvalgi 3-mingyillik) mavjud. Kuksur (Geoksyur) obidasi toloslardan iborat bo‘lib, eneolit tosh-mis (miloddan avvalgi 4-3 mingyillik) davriga mansubdir. Bularning yaqin Sharq dagi Sherixon kabi neolitik qarorgohlari bilan umumligi kuzatiladi.

Mil.av. ikkinchi mingyillikning 2-yarmi-birinchi mingyillikning boshida (taxminan mil.av. XV-VII a.) chorvachilik va dehqonchilik madaniyati bo‘lmish aidronovo madaniyati O‘rtal Osiyoda. Chunonchi Shimoli-sharqiy va Markaziy Qozog‘istonda hamda O‘zbekiston, Qirg‘iztonda va Tojikistonning ayrim hududlarida qaror topgan. Xorazmning Ko‘kcha daryosi sohillarida topilgan tozabog‘yon madaniyat Aidronovo madaniyatiga doirdir. Aidronovo qabilalari daryo bo‘ylarida dehqonchilik, adirlarda chorvachilik bilan kun kechirgan.

Qozog‘iston hududida jez davridagi turar joylari aidronovo madaniyatiga mansub holda yarim er to‘la shaklidagi kulbalardan iborat bo‘lgan. Keyinchalik mil.av. birinchi mingyillik va milodiy dastlabki asrlar mobaynida ham turar joylar ko‘chma (kigiz o‘tov) va statsionar (paxsa, xom g‘ishtdan) shakllarida bo‘lgan.

O‘rtal Osiyoda bronza davrining boshlanishi miloddan avvalgi 4-3 mingyilliklarga to‘g‘ri kelib insonning ochiq qarorgohlari paydo bo‘ldi. Sun’iy ravishda sug‘orish inshootlari-ariqlar qazila boshlandi.

Bronza davriga mansub yodgorliklardan Oltintepa, Sopollitepa va Jarqo‘tonni aloxida ta’kidlash joizdir.

Oltintepa (Kaaxka tumani, Meana kishlogi) O‘rtal Osiyodagi dastlabki shaharlardan hisoblanadi. Miloddan avvalgi 5-4 ming yillikda bu yerda karorgox bulgan. Miloddan avvalgi XXI-XVIII asrlarda Oltintepa shahar tarikasida xayot kechiradi. Shaharning maydoni 60 га dan ortik bulgan. Tarhi doira shakliga yakin. Qo‘rg‘on devori qalinligi 2 m cha bulgan. Besh ming atrofida aloxi istiqomat qilgan. Ko‘chalari, mozorlari bo‘lgan. Oltintepada uch qurilish davrlari bo‘lgan. Uylar xom g‘ishtdan kurilgan edi. Deyarli har ochilgan uydan mo‘ri, ba’zan sandal va sufa topilgan. Shahar markazida ibodatxona qurilgan edi. Tuzilishi jihatidan u ikki daryo oralig‘idagi ibodatxonalarini-zikkuratlarini bilan o‘xshashligi bor. Tadqiqotchilar ibodatxonaning ikki qurilishi davrlari bulganligini aniqlashgan.

Gonurtepa yodgorligi (1036-ad.) Murg‘ob vohasining shimolida qizil qum sahrosi chegarasida joylashgan bo‘lib birnecha: Shimoliy Gonur, Janubiy Gonur, Mozoriston (Nekropol) va boshqa qismlardan iborat. Umumi maydoni 130 га atrofini tashkil qiladi. Shimoliy Gonurda qazuv ishlari olib berilgan. U ikki qator devor bilan o‘rab olingan. Yodgorliklarning asosiy qismi qal’aning tarqi kvadratga yaqin shaklga ega. Uzun tomoni-125 metr atrofida. qal’a burjli qalin devorli bo‘lgan. qal’aning kattagina qismini saroy egallagan. Saroya ayni vaqtida ibodatxona vazifasini o‘tagan degan tahminlar mavjud. qal’a tarkibidagi “qumli xonalar”, “Tirsak tuynukli ibodatxona” va “Hujralar” majmuasi deb ataladigan imoratlarning funksiyasi aniq emas. qal’a-saroyning darvozasi shimolda joylashgan bo‘lsa kerak. Tadqiqotchilar qal’ani rejalashda “dinamik kvadrat”ni qo‘llashgan degan xulosaga kelishgan (1036-ad.). qal’a tevaragidagi qurilmalarni ikkinchi-tashqi devor o‘rab olgan.

Gonurtepa-Murg‘ob vohasining markazi (poytaxti) bo‘lishi mumkin. Uning birinchi qurilish davri mil.av.3-mingyillikka mansubdir. Radiouglerod taxlili mil.av. XXIII asrni ko‘rsatgan. Bu protoshaharda deyarlik sakkiz asr mobaynida davom etgan hayot, 2-mingyillikning o‘rtasida suv tanqisligi tufayli so‘nib qolgan.

Yodgorlikda qazuv ishlari bilan barobar konservatsiya (qotirish) ishlari ham bajarilgan.

Sopollitepa (Surxandaryo) urug jamoasining istehkomi sanaladi. Miloddan avvalgi XVII-XIV asrlarda xayot kechirgan. Umumiy maydoni 3 ga joyni egallaydi. Kal’asi murabba (kvadrat) tarhli bulib tomonlari 90 m ni tashkil kiladi. Kurgon devorlari tashki va ichki yulaklari ajratib turuvchi muntazam tartibda boglangan uch kator devorlardan iborat. Darvozasi janubda joylashgan. Devor kalinligi-1.6 m. Sopollitepaliklarning dini totemizm bo‘lgan deb taxmin qilinadi.

Jarqo‘ton (Surxondaryo) tuzilishi nuqtai nazardan murakkabroq. Unda “Arki a’lo” alohida ajralib turadi.

Bayqarotepaligi (Kurgan Baykara) 1997-1999 yillar davomida Olmoniya Arxeologiya instituti va Shimoliy Qozog‘iston universiteti tomonidan o‘rganilgan (1067-ad., 12-14 betlar). Sergeevka tumani markazi chegarasida joylashgan. Shak (sak)larning (mil.av. V a.) muqaddasohi bo‘lgan. Tosh, chim, yog‘och va loydan barpo bo‘lgan. Birnecha tepaliklardan iborat. Eng kattasining diametri 85 m, balandligi-7 m, tepe sathi yassi bo‘lib, unda to‘rtburchak tosh sufa (platforma) mavjud. Bayqaro tepaligining tuzilishi Gerodat tavsiflagan shakllarning Ares (Urush ma’budi)ga bag‘ishlab qurilgan ibodatxonalarini eslatadi. To‘rt qurilish bosqichlariga ega. qurilishlar skif-shak diniy tushunchalariga mufoviq ravishda bajarilgan. Xun-sarmatlar davrida yuqori tabaqa vakillaridan biri dafn etilgan. Xodisa milodiy yil hisobi boshlariga to‘g‘ri keladi.

QADIMGI DAVR ARXITEKTURASI

(m.av. VIII-m. Vasr)

Qadimgi davr arxitekturasi m.av. VIII asrdan m.VI asrgacha davom etadi. Bu asrlar mobaynida bronza davri tugab temir davri boshlangan edi. Temir davri O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida m.av. IX asrdan, m.av. IV asrdan esa barcha hududlarda hukm surdi.

Qadimgi davr ichida siyosiy-madaniy nuqtai nazardan bir-biridan farqlanadigan to‘rt kichik davr ajraladi: m.av.VIII-VI asrning ikkinchi yarmi m.av. VI asrning birinchi yarmi- IV asrning o‘rtasi (ahmoniyalar davri), m.av. IV oxiri- I asrlar (yetuk antik yoki Kushonlar davri)

O‘rta Osiyo arxitekturasining ilk temir davrida ikki: shimoliy va janubiy mintaqalar o‘rtasida farq borligi aniqlangan. Shimoliy mintaqqa arxitekturasi Shimoliy Baqtra, Seraxs vohasi, Marg‘iyona va Shimoliy Parf hududlarini qamrab olgan. Janubiy mintaqqa arxitekturasi Farg‘ona, Toshkent vohalari, Usturshona hududlarini qamrab olgan. Sug‘d va Xorazmni biror mintaqaga kiritish qiyin deb hisoblanadi.

Janubiy mintaqqa madaniyati Yoztepa yoki Yoz nomi bilan ataladi. Yoz madaniyati Sug‘dgacha etgan bo‘lishi mumkin (hali yetarlicha aniqlanmagan).

Shimoliy madaniyatlar mahalliy dasht (cho‘l) qabilalar madaniyatlar rivoji mahsuli bo‘lgan. Bu qabilalar avval chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanib milloddan avvalgi 2-1 ming yilliklar chegarasida doimiy o‘troq hayotga va dehqonchilikka o‘tdi. Ularga janubdan ta’sir bilan birgalikda, Qozog‘iston-Elbir va Sharqiy Turkiston qabilalari ta’siri ham bo‘lgan.

Vohalar bo‘yicha joylashgan aholining qal’ali va qal’asiz manzilgohlari O‘rta Osiyoda mikro davlatlar paydo bo‘lganligidan dalolat beradi. Ba’zi tadqiqotchilar bo‘yicha antik mualliflar qayd etgan “Baqtra sultanati” to‘g‘risidagi ma’lumot yetarli asosga ega emas. Ular, fikriga ko‘ra O‘rta Osiyoda bir necha viloyatlarning qisman miloddan olmagan 650-640 yillardagi ko‘chmanchi qabilalar ta’siri natijasida vujudga kelgan birlashmasi nazarda tutilgan bo‘lishi kerak.

Ahmoniyalar bosqichi mahalliy davlatchilik erkin rivojiga barham beradi. Shmoliy zona mintaqasi mustaqilligini saqlab qoladi. O'rta Osiyoda Ahamoniylar davrida (m.av.580-530 yil) avvalgi davrdagi bo'lgani kabi madaniyatda (me'morlikda ham) asosan ikki yo'nalish-stil hukmronlik qilgan. Biri dehqonchilik bilan bog'liq stil edi. San'atda uni "mifalogik realizm" deb atalgan. Ikkinchisi chorvachilik bilan bog'liq stil bo'lgan. San'atda u chorva, boshqa hayvonot shakl-shamoyillari ta'sir etilganlik bilan tasvirlanadi.

Mamlakatlararo aloqalar rivojlanishi Buyuk Ipak Yo'li bilan ataladigan xalqaro karvon yo'li shakllanishiga olib keldi. Uning Muhim tarmoqlari Ovrupo, Yaqin O'rta va Uzoq Sharq mamlakatlari o'zaro bog'langan. Bu yo'l orqali 1-ming yillikni o'rtalaridan milodiy XV asrgacha Sharq va G'arb o'rtasida serqatnov edi.

QADIMGI SHAHARSOZLIK

Dastlabki shaharlar to'g'risidagi ma'lumot zardushtiyalar kitobi "Avesto"da mavjud. Unda "Var" to'g'risida gap yuritiladi. Ibora Sug'd tilida "qo'rg'on" ma'nosini bildiradi. Shu davrlarda paydo bo'lgan istehkomlar nomlariga ham o'tkan - "Dalvarzin", "Varaxshox" kabi.

Ahmoniyalar davridagi shaharsozlik. Avestoda qadimgi shaharsozlik bo'yicha ayrim ma'lumotlar bor, chunonchi, unda ezbilik ma'budi Ahura Mazda podshoh Jamshidga tomonlar bir ot yuguruvi uzunlikka ega bo'lgan "vara" (sug'dcha - "qo'rg'on") qurishni buyurganligi, bir ariqdan suv ichgan manzilgohlar maxsus nom bilan atalganligi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

Avestoda yaxshilik, ezbilik ma'buda Ahura Mazda podshox Jamshidga "vara" qurishni buyuradi.

Avesto matni bo'yicha u davrdayoq, irrigatsiya alohida ahamiyatga ega bo'lganligi namoyon bo'ladi. Bir ariqdan suv ichgan manzilgohlar o'z nomiga ega bo'lgan. Bunday manzilgohlar turkumi ham maxsus nom bilan atalgan. Manzilgohlarni turkumga birlashtirish keyinchalik rustoqlar shakllanishiga olib keldi.

Miloddan avvalgi VIII-VI asr 2-yarmida yuqorida zikr etilgan mintaqalar hududlarining har biri maydaroq vohalaridan tashkil topgan edi. Masalan, Marf vohasi 5 mayda vohalardan iborat edi.

Ilk antik va kushonlar davridagi shaharsozlik. Shimoliy Parf-Nisa (Mixrdatkirt va Yangi Nisa), Marg‘iyonada-Erk qal‘a va G‘avr qal‘a, Shimoliy Baqtrada-Termiz, Dalvarzintepa, Sug‘dda-Afrosiyob, Yer qo’rg’on, Parkanada-Chust, Ealaton, Sho‘rabashot, Marhamat, Toshkent vohasida-Choshtepa, qang‘ha, Xorazmda - Ko‘zala qir, qal‘ali qir, Jonbozqal‘a, Qo‘yqirilgan qal‘a, Tuproq qal‘a.

Shimoliy mintaqa. Shimoliy Parf yerlarida istehkomlar ko‘p bo‘lgan. Ularni 3 toifaga ajratish joiz: 1-qal‘ali, yirik (mas.Yelkantepa); 2-qal‘asiz, o‘rtacha kattalikdagi (maydonni 1 dan oshadigan) va 3-kichik (maydoni 1 dan oshmagan) istehkomdir.

Marg‘iyonaning istehkomlarini ham uch turga ajratish mumkin: 1- qal‘asi bo‘lgan Yoztepa kabi yirik, 2- qal‘asiz, maydoni 1 ga dan ortiq bo‘lgan yirik hamda 3- kichik istehkomlar.

Milloddan avvalgi VII-VI arslar Shimoliy Marg‘iyoning eng rivojlangan davri edi. Shu vaqtida Murg‘obning yon ariqi Roziq bo‘yida Erk qal‘a va Govurqal‘a o‘rnida istehkom paydo bo‘ldi. U qo‘rg’on devor bilan o‘ralib oval shaklida (400-500 m) edi. Devordan tashqari Janubga va Sharqqa ham qurilmalar davom etgan edi. Shaharning umumiy o‘lchamlari 1800 x 500 m bo‘lib shaharlar qatorida edi.

Shimoliy Marg‘iyonaning poytaxti Yoztepa 700 x 400 m o‘lchamli edi. Shahar ichida suv ta’mnoti shakllandi. Tarixchilar shu shaharni bayon etishgan edi. Butun istehkom atrofi devor bilan o‘raldi. Shimoliy-g‘arbiy burchagi ketmik, chunki bu yerda Roziq ariqi o‘tgan edi. G‘arbiy va qisman Shimoliy joylarda ariq chuqur bo‘lib handaq vazifasini ham o‘tagan. Undan Shimoliy-g‘arbiy va Shimoliy-Janubiy qismlarda handaqdan variqo‘tkazilib shaharga suv berilgan.

Seraxs vohasi Eneolit davridayoq o‘zlashtirilgan. Insonning ikkinchi o‘zlashtirish davri Eski Seraxs qal‘asining o‘rnida bo‘lgan manzilgohda o‘z aksini topgan. Manzilgoh tomonlari 300-320 m bo‘lgan noto‘g‘ri beshburchak shakliga ega.

Atrofini o‘rab turgan 1.8 m balandlikdagi do‘nglik qo‘rg‘on devor qoldiqlari bo‘lishi mumkin.

Shimoliy Baqtra istehkomlari ichidan 4 toifadagilari uchraydi. 1-shahar tariqasida shakllanayotgan yirik manzilgohlar qiziltepa istehkomi bu toifaga kiradi. U qal’ali bo‘lib, umumiy maydoni 30 m atrofida bo‘lgan. Milloddan avvalgi VIII-VII asrlarda vujudga kelgan. Milloddan avvalgi VI asrda qo‘rg‘on devori qurilgan. 2-qal’a va atrofi devor bilan o‘ralmagan manzilgohlar. 3- kattagina, maydoni 10 ga gacha atrofida bo‘lgan tarqoq hamda devorsiz manzilgohlar. 4- mayda, maydoni 0.5 gacha atrofida bo‘lgan manzilgohlar.

Janubiy mintaqasi. Farqonada milloddan avvalgi 2- va 1- ming yilliklarda chegarasidan milloddan avvalgi VI asrgacha Chust nomi bilan ataladigan ilk temir madaniyati shakllanib unga mansub bo‘lgan 80 ga yaqin yodgorlik mavjud. Manzilgohlar katta ariq va ularning tarmoqlari atrofida vodiylarda joylashgan. Vohalar orasi 20-30 km ni tashkil qilgan. Ular: Uzgan (9 manzilgoh), g‘orasuv (24 manzilgoh), Tova-Kosonsoy (8 manzilgoh), g‘oradaryo va Xo‘jaobod vohalaridir. Ba’zi vohalarda O‘rta manzilgohlar mavjud edi. Uch xil kattalikdagi manzilgohlar uchraydi:

- 1-yiriklari (12-25, Ashqoltepa va Dalvarzin);
- 2-o‘rtachalari (4-5, Chust, Dehqon);
- 3-maydalari (0.02-0.9 Ko‘pchilik manzilgohlar).

Dalvarzin maydoni 25 ga teng. Uch qismlardan iborat bo‘lgan. har biri o‘z qo‘rg‘on devoriga ega bo‘lgan. qal’aning maydoni 2 ga bo‘lib ko‘p joylarida hech narsa qurilmay qolgan. Bir necha turar joy majmualari esa ichki devor qurilgan edi. Turar joylar mahallalar maydoni 8 m; orasidagi sayhonlik (5) chamasi o‘rtacha mol uchun qo‘ra vazifasini o‘tagan.

Chust - kattagina manzilgohdir. Ikki bo‘lakdan iborat. Kattaroq bo‘lgani qo‘rg‘onsiz edi; faqat kichikroq bo‘lagi (1.5) qo‘rg‘on devorga ega bo‘lgan. qo‘rg‘onli bo‘lak qal’a sifatida yoki urush vaqtida qo‘ra sifatida foydalaniladigan joy bo‘lishi mumkin.

Qo‘rg‘on devorlar faqat yirik va o‘rtacha manzilgohlarda (Dalvarzin va Chustda) keyinchalik paydo bo‘lgan.

So‘nggi yillardan tadqiqotlar Sug‘d bo‘yicha bu davrga oid arxiologik materiallar mavjudligini ko‘rsatdi. Ularga asosan qarshi va Samarqand shaharlarining 2750 yillik yubileyлari o‘tkazildi. Samarqand shaharining vujudga kelishi Ko‘ktepa va Afrosiyob bilan bog‘liqdir. Ko‘ktepaning paydo bo‘lishi milloddan avvalgi VIII ga borib tarhaladi. Afrosiyob qo‘rg‘on devorining eng pastdagi qatlamlari milloddan avvalgi VIII ga oid ekanligi aniq bo‘ldi.

Ahamoniylar davrida shaharsozlik rivoji yuqorida qayd etilgan mintaqalarda bir xil bo‘lmadi. Janubiy mintaqada oldingi davrdagidek bir maromda kechdi. Shimoliy mintaqada hamda yuqorida biror mintaqaga qo‘silmagan Sug‘dda va Xorazmda shaharsozlik (me’morlik ham) oldingi davrlarga nisbatan jadalroq maromda o‘tdi. Janubiy mintaqani tashkil etgan Farg‘ona, Toshkent vohalarida hamda Usturshana qator manzilgohlar paydo bo‘ldi.

Farg‘onada Chust madaniyatidan keyin Elaton madaniyati milloddan avvalgi VI-I asrlarda deb taxmin qilish mumkin qaror topdi. Elaton G‘arb-Sharq yo‘nalishida cho‘zilgan. Ikki qator devorli. Ichki o‘lchamlari- 500 x 400 m. taxminga ko‘ra istehkom alohida turgan qurilmalardan iborat qaror topdi. Atroflarida sayxonliklar bo‘lgan. Uzun (11 m) va tor (3 m) xonali bino ochilgan. Uning paxsasining eni 0.8-0.9 m bo‘lgan. Manzilgohning bu qismi devor bilan o‘ralgan. 60 m tashlab burjlar qilingan. Devor eni 4 m bo‘lgan. Devor guvaladan (oraliqlari loy) ishlangan. U sufa Ustida qurilgan. Elatonning darvoza oldi ochilgan. Shahar devorining eni – 4 m, xom g‘ishtdan ishlangan. Burj devordan 4-5 m turtib chiqqan (10.5x10 m). Burj guvaladan ishlagan sufaga qurilgan. Burj ichi ham urilgan. Faqat shimoli-g‘arbiy burjda kichik (3x2 m) xona bo‘lgan. Uning kiraverishi (0.9 m eni) darvoza tomonga qaragan.

Ichki devordan 500 m narida tashqi devor qoldiqlari saqlangan. Unda ham burjlari bo‘lgan. Devor shimolda 2 km uzunligida, Sharqda esa 200 m uzunlikda saqlangan. Taxminga ko‘ra janub tomondan, ariq tarafida qo‘rg‘on devor hech

qachon bo‘limgan. Ikki qator qo‘rg‘on devor oraligida hech qanday qurilma bo‘limgan. Toshkent vohasida Burganlik madaniyati qaror topgan bo‘lib, tadqiqotchilar uning ikki bosqichini ajratadilar: Burganlik 1-milloddan avvalgi IX-VII asrlar; Burganlik 2- milloddan avvalgi VI-III asrlar.

Unga yaqin Burganlik manzilgohlari mavjud. Tuyabugiz-1 manzilgohi nisbatan yaxshi saqlanadi. Tarhi oval (260 x 100 m) shaklida. Uch tomondan handaq bilan o‘ralgan edi.

Usturshona madaniyati Sug‘d bilan chambarchas bog‘langan edi. Miloddan avvalgi VII asrda Nurtepa manzilgohi vujudga kelgan.

Usturshonada oldin zikr etilgan Nurtepa istehkomida /maydoni 18 ga/ miloddan avvalgi VI-V asrlarda tashqi qo‘rg‘on devor quriladi. Uning eni 4.3 m. U soz tuproq tepaligidan foydalanim ishlangan. Ichki paxsa devorining eni 2.1 m. Tepalik /tuproq devor/ bilan paxsa oralig‘ida eni 1.4 m bo‘lgan raxrav o‘tadi. O‘scha vaqtida ham (miloddan avvalgi VI-V asr) qal’a devori qurilgan. Unga ham tabiy sof tuproqdan foydalanim. Uning Ustidan paxsa devor ishlangan. Eni 5.5 m. Ustidagi devorga xom g‘isht ishlatilgan.

Hozirgi O‘ratepa shaharni va uning tabiy tepaligi bo‘lgan Mug‘xona qal’asini yozma manbaalarda zikr etilgan ayrim tadqiqotchilar. Ko‘rukada (Kirezxada, Kiropel) deb taxmin qiladilar. Shu yozma manbaalarga ko‘ra Ko‘rukada paxsa va past devori bo‘lgan qal’asining ham ayrim qo‘rg‘on devori bo‘lgan.

Xo‘jand Ustrushona bilan Farg‘ona chegarasidagi miloddan avvalgi VI-V asrlarda vujudga keldi. To‘siq va qo‘rg‘on devor qoldiqlari mavjud. qal’a devori past qismida paxsadan, yuqorisi xom g‘ishtdan ishlangan. qal’aning boshqa erida 2 m balandlikda tabiy do‘nglikdan foydalanim, so‘ng qum-tosh qatlami, tekis qilib berilgan, Ustidan xom g‘isht yotqizilgan. Sug‘dda Ahamoniylar davrida shaharsozlik ishlari intensiv ravishda davom ettirildi. Bu ayniqsa Afrosiyob misolida o‘zining yorqin ifodasini topadi.

Xorazmda Ahamoniylar davrida barpo bo‘lgan Ko‘zali qir va qal’ali qir shaharlari alohida ajraladi.

Ko‘zali qir istehkomi (shahari) miloddan avvalgi VI-V asrlarda Eron, Janubiy Turkmanistondan keladigan yo‘l yoqasida vujudga kelgan. Bir tomoni 1000 m, ikkinchi tomoni 700 m masofalarni tashkil topgan uchburchak shaklida qurilgan. SHahar ichini asosan sayhonlik egalladi. Parallel ketgan uch qator devor bilan o‘ralgan chamasi xavf-xatar tuqilganda aholining podalari bu qal'a ichida keltirib qo‘yilgan. qadimgi Xorazm tadqiqotchisi S.Tolstoy bunday shaharlarning qo‘rg‘on devorlarning ichi turar uylar vazifasini o‘tagan deb taxmin qilgan edi. Keyinchalik shahardagi qo‘rg‘on devorlar faqat mudofaa qurilmalari ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Amu daryoning chap qirg‘oqida miloddan avvalgi V-IV asrlarda qal’ali kir istehkomi (shahari) vujudga kelgan. Shaharchani Charmanyob ariqi suv bilan ta’minlab turgan. Tarhi to‘rtburchak (1000 x 700 m) shakliga ega. Burji, darvoza oldi alohida muhofazalangan hamda mustahkam qo‘rg‘on devor bilan o‘ralgan edi. Istehtkomning g‘arbiy qismida, qo‘rg‘on devorga tutashtirib saroy majmuasi (umumiyl maydoni- 10500 m²) qurila boshlangan, biroq oxiriga yetkazilmagan. Miloddan avvalgi III asrda tashlab ketilgan.

Antik davr shaharsozligi ahamoniylar davridan so‘ng boshlanadi. Iskandar Maqduniy (Makedoniyalik Iskandar, Iskandar Zulqarnayn deb ham ataladi) o‘z yurishlarini miloddan avvalgi 329 yilda boshlagan. Komol texnikasiga ega bo‘lgan. Bu o‘sha davrda barpo etilgan shaharlarning tuzilishiga ham ta’sir etgan. Umuman olganda O‘rta Osiyo shaharlari ellistik shaharsozlik rivojiga o‘z salmoqli xissalarini qo‘shgan.

Shimoliy Parfning arxeologik yodgorliklari 4 belgi: qal'a mavjudligi, qurilmalar tizimi (strukturasi), ularning zichligi, hunarmandchiligi, maydoni bo‘yicha uch xilga ajratiladi. Ular: shahar sifat istehkomlar, qishloq sifat istehkomlar va maxsus yodgorliklardir.

Shaharsimon manzilgohlar bo‘lib qo‘rg‘on devorli maydoni 4 gektardan ortiq, ichida qurilmalar zikh va har xil, hunarmandligi mavjud, qal'a ajralib turadigan bo‘ladi; shahar tevaragi devorli ham, devorsiz ham bo‘lishi mumkin.

Yangi Nisa, Ashxaboddan 18 km G‘arbda joylashgan. qal'a shaharning asosiy qismi tevaragi (rabod)dan iborat. qal'a tabiy do'nglikda barpo etilgan. Shaharning umumiyl maydoni 18 ga, shaharning Janubiy-G‘arb qismida avom (kambag‘allar) mahallasi, Shimoliy-Sharq qismida esa zodagonlar qabristoni mavjud. Rabod ham devor bilan o‘ralgan bo‘lgan. qurilmalar siyrak. Yangi Niso avvalgi manzilgohdan o‘sib chiqqan misolidir.

Yangi Nisadan farqli o‘laroq Ko‘hna Niso (Mixridatkirt) tarhi muntazam shaklni-bir tomoni kesik to‘g‘ri to‘rtburchakni beradi. U tepalikda (platformada) barpo etilgan. qo‘rg‘on devori burjalari bor. Ichidagi binolar bir-biriga ulanib ketgan. Chamasi miloddan avvalgi 171-138 yillarda podshox Mitridot tomonidan asos solingan. Shaharsimon manzilgohlar tomoniga yana Ko‘hna Kaaxka, Yarimtepa, Anov, Go‘ktepa kiradi.

Qishloqsimon manzilgohlar turlari beshta: 1-zich qurilmali manzilgoh (masalan Kapalaktepa), 2-yirik hovli yoki qo‘rg‘on (masalan Egdi qal'a), 3-kichik hovli (masalan Kushatepa), 4-tarhoq manzilgoh (masalan Kari koriz) va 5-qal’ali, tarqoq manzilgoh (masalan Ezgant tuyulishidagi manzilgoh).

Maxsus yodgorliklar shaklan shaharsimon Ko‘hna Niso va Mansurtepa maxsus yodgorliklardir.

Mansurtepa maydoni 20-30 getktarni tashkil qiladi. Tarhi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida. Devorlari bir vaqtida qurilgan emas. Sharqda, devor o‘rtasidagi qurilmalar darvoza vazifasini o‘tagan. Shu tomonidan ikki (biri-shimolda, ikkinchisi-janubda) ibodatxonalar mavjud. G‘arb tomonidagi qurilma 50 x 40 m o‘lchamlarga ega. hovli maydoni- 1,2 ga.

Seraxs vohasida avvalgi /arxaik davrdagi/ ariqlarning o‘rniga kalta, lekin zinch kanallar paydo bo‘ladi.

Eski Seraxs o‘zining avvalgi holatini saqlab qolgan edi: qal'a o‘rnida qo‘rg‘onli markaz paydo bo‘ldi. Tevaragidagi qurilmalar (shahriston) qo‘rg‘on devorsiz qolgan.

Qishloq manzilgohlar ikki xil bo‘lgan: 1-tashqi devorli (masalan quyruqli tepa); 2-tashqi devorsiz (masalan Mangli tepa, Oqchatepa va boshqalar).

Murg‘ob vohasida (Marg‘iyonada) “shox yo‘li” katta ahamiyatga ega bo‘lgan. U Parfning G‘arbidan kelib bu yerda keskin burilib Oriyo va Seistonga ketgan. Iskandardan so‘ng bu yerda Marg‘iyona Iskandariyasi va 6 istehkom barpo etiladi. Keyinchalik Antiox (Salavqiylar sulolasidan) Iskandariyani buzib qayta tiklandi va unga Antoxiya nomi berildi.

Oval shaklidagi Erk qal'a vazifasida shaharga kirdi. Devori qayta qurildi, 4 darvozasi mavjud edi. Shahar ichi qayta rivojlandi. Janubdag'i ariq (m.a. VI asrgacha suv bergen) o‘rnida uylar ko‘payadi.

Miloddan avvalgi III asrda shahar tevaragi ham «Gilyaqin»- Chilburj katta devori bilan o‘raladi. Shaharning umumiy maydoni taxminan 60 km² ga etdi.

Miloddan avvalgi II asr. Erk qal'a devorida Marg‘iyona hokimining saroyi qurildi. Milodiy I-III a. shaharning eng rivoj topgan devori. O‘sha vaqtida qurilmalar eng zinch bo‘lgan davri edi. Devor qayta tiklandi, hunarmandchilik mahallalari ajraldi: o‘rtada keng hunarmandlik (chamasi davlat xo‘jaligi extiyoji uchun) kompleksi, shimoliy darvoza yonida unchilar, o‘rtada va Sharq da kulollar ustaxonlari vujudga keladi.

III asrda qisqa muddatli tushkunlik ro‘y beradi. Erk qal'a va Gavr qal'a qayta quriladi. Erk qal'adagi saroy tubdan qayta quriladi. Eski xonalarning ichlari to‘lg‘azib yangi qurilmalar sufa vazifasida foydalaniladi. O‘sha vaqtida aslaxaxonalar (arsenal) ham paydo bo‘ldi. Govur qal'a ichida o‘zgarish bo‘lmadi. IVa. oxirida inqiroz boshlandi. qaytda jonlanish Sosoniylar davriga to‘g‘ri keldi. Vohada bundan boshqa yirik shahar bo‘lmagan.

Chamasi ilk antik davrga tegishli (Yoztepa III davrga) tegishli manzilgohlardan Eski Kishmon o‘rnidagi manzilgoh noto‘g‘ri oval shaklida bo‘lgan. Umumiy maydoni 112 ni tashkil etgan. Ikki joyda darvoza o‘rni bor. Manzilgoh kichikroq nohiya markazi deb faraz qilinadi.

Amu daryoning o‘rta oqimi (O‘rta Amudaryo) shimoliy-G‘arbdan, janubi-G‘arbdan janubi-Sharqqa qarab joylashgan Chorjuy, g‘orabekovul, Beshir, Kerki, Mirzabek vohalarini o‘z ichiga oladi.

O‘rtta Amudaryoda 5 xil istehkomlar uchraydi: 1-qal’ali shaharsifat istehkomlar (masalan tarhi doiraga yaqin bo‘lgan). Udeytepa, qutnamqal’a – qal’asi shahardan shimoldan tutashgan, Xo‘ja qunduz shimol-janub yo‘nalish dioganal bo‘yicha ketgan; 2-qal’asiz shaharga o‘xhash istehkomlar (masalan-tarhi ovalsimon Essan Mengli qal’a); 3-qal’ali qishloq istehkomlari (masalan Sho‘rtepa III- bunda ham shimol-janub yo‘nalish dioganal bo‘yicha ketgan); 4-qal’asiz qishloqqa o‘xhash istehkomlar (masalan Mukri sho‘rtepasi); 5-ko‘rg‘onlar (masalan Sho‘rtepa II).

Istehkomlar ichida maydoni taxminan 150 ga bo‘lgan Eski Chorjuy alohida o‘rinni egallaydi.

Shimoliy Baqtraning markazi Termiz shahari Amudaryo bo‘yida joylashib qadimdan port, ayni vaqtida daryoning u sohilidan bu sohiliga o‘tish joyi-kechik vazifasini o‘tab kelgan. Ismini kelib chiqishi to‘g‘risida ikki taxmin bor: 1-shahar “Tara-mato” (sanskrit tilida-“daryo ortida”) ma’nosini bildiradi; 2-shaharning nomi podshox Demetriy ismidan kelib chiqib Darmit-Tarmid-Termiz shakllarida talaffuz qilina boshlangan. Bu joyda miloddan avvalgi III asrdayoq kechik oldida manzilgoh bo‘lgan. Miloddan avvalgi III-II asrlarda (ba’zi farazlarga ko‘ra Demetriy davrida-miloddan avvalgi 200 yil atrofida) Amudaryo soxilidagi tepalik to‘g‘rito‘rburchak tarhli qo‘rg‘on devor ichiga olinadi. Devor paxsadan, asosi 11 m kenglikka ega holda bunyod etildi. Uning burjlari bo‘lib, tevaragi xandaq bilan o‘ralgan edi. Shahar maydoni o‘sha vaqlarda taxminan 10 ga bo‘lgan. Kushonlar (I-III asr) davriga kelib avvalgi shahar qal’a sifatida saqlanib qoldi. Shaharning asosiy qismi esa qal’a atrofida kengaydi. Qo‘rg‘on devori ko‘pburchak shakldagi avvalgi shaharga qaraganda 35 barobar katta (350 ga) maydonni qamrab oldi.

Termizda tashqi shaharning shimoli-g‘arbiy burchagida Qoratepa va Fayoztepa paydo bo‘ldi. Shahar IV-V asrlarda inqirozga uchraydi.

Shimoliy Baqtraning boshqa yirik shahari bo‘lmish Dalvarzintepada miloddan avvalgi III-II asrlarda maydoni 3 ga bo‘lgan manzilgoh paydo bo‘ldi.

Tojikistonning poytaxti Dushanba o‘rinda maydoni 20 ga ga yaqin bo‘lgan shahar vujudga kelgan.

So‘g‘d mamlakati (viloyati) Samarqand Buxoro va Qashqadaryo tumanlariga bo‘lingan edi. So‘g‘dning hayoti asosan ikki davr mobaynida: 1- miloddan avvalgi IV-I asrlarda va 2-milodiy I-IV asrlarda o‘tgan. Samarqand tumanining markazi Afrosiyob miloddan avvalgi VI-milodiy VI asrlarda hayot kechirgan. U 219 maydoncha egallagan edi. Qashqadaryo So‘g‘didagi Yerqo’rg’on ham taxminan shu davrda miloddan avvalgi VI-IV asrlarda paydo bo‘lgan. Maydoni 36 m.ni tashkil qilgan. Buxoro So‘g‘dining markazi Buxoro o‘rnida istehkom bo‘lib tadqiqotchilar unda milodning boshlarida ham hayot davom etganini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga istehkomning dastlabki paydo bo‘lishi oldini davrga mansubdir deb tahmin qiladilar, qo‘rg‘on devor qoldiqlari topilmagan. Buxoro vohasida Setalak nomi bilan ataladigan diniy inshoot istehkomlarning guruxi markrzida joylashgan edi.

Usturshanada shaharsifat istehkomlar orasida Munchoqtepa nisbatan yaxshi o‘rganilgan. U Sirdaryo bo‘yida joylashgan. Maydoni-4m. Tarhi tomonlari 200x180 m. to‘g‘ri to‘rtburchakni tashkil etadi.

Toshkent butun Chirchiq vohasi kabi qadimdan Choch, Chosh, Shosh deb nomlangan bo‘lib, shaharsozligining rivoji antik davrga to‘g‘ri keladi. U o‘z tarixi davomida xalqaro savdo yo‘laridagi Muhim punkt, dehqonchilik va chorvachilik rayonlarining chegarasidagi qal‘a va sirik savdo shahari bo‘lib kelgan; katta maydonni egallagan; o‘z atrofidagi yerlar va aholi joylar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Shunga ko‘ra shaharlarning negizi hamisha ham markazda Muhim turmay, 2 marotaba o‘z hududining chekkasiga o‘tgan. Undan tashqari shahar shakllanishiga Toshkentning hozirgi territoriyasidagi arxeologlar qayd etgan 50 dan ortiq istehkom, qal‘a, kentlar ta’sir etgan.

Bu hududda shaharsozlikning (urbanizatsiyaning) rivoji miloddan avvalgi birinchi asrlari yoki milodning boshlanishi davrlariga borib taqaladi. qanqxa, Shavqiya, Dalvarzintepa, Kindiktepa, qovunchitepa, Oqtuba 2 kabi yodgorliklar qovuncha madaniyatining birinchi bosqichlariga tegishlidir. Ular Sirdaryoning g‘arbiy qismi tekisliklarida paydo bo‘ldi. Ikkinchi bosqichda shaharlar (qavardan, qul ota, Mingo‘rik) cho‘l va tog‘oldi yerlarida vujudga keladi.

Vohadagi Oxangaron daryosi bo‘yida eng katta shahar qanqxa bo‘lib avvalgi shahar negizi (yadrosi)-“Birinchi Shaxriston” qal’aga aylantirildi. Shahar ichidagi qurilmalar anchagina zich bo‘lgan. Maydoni 6.5 m bo‘lib, tarhi murabba (kvadrat) shaklidadir. Tomonlari uzunligi 230 m. shimoliy burchakda qal’a u ham murabba mavjud. Shahar ham, qal’a ham eni 50 m va daryo bilan bog‘langan handaq hamda devor bilan o‘ralgan. Qal’a devorlarining tuzilishi aniqlanmagan. Shahar muhofazasi murakkab. Bir munkha tekislangan tepalikda 3 m qalinlikda tuproq va paxsadan platforma tashkil etilgan. Ustdan bir necha qavat xom g‘isht tushalgan (farsh qilingan). Platforma chetidan devorgacha 15 m oraliq bor. Devorning pastki qismi paxsadan, tepasi xom g‘ishtdan ishlangan. Devor ikki qator: tashqisining eni- 2.7 m, oradagi raxrav (koridor) eni 2.2 m, ichki devor eni 4.5 m. tashqi devorning nishabi keskin 70 m cha boradi. Raxrav tog‘ bilan yopilgan. Unda trapetsiyasimon g‘ishtdan foydalanilgan. 3.4 m balandlikda yuqori raxrav boshlanadi. Tarhi oval shaklidagi (asosining diametri 9 m) burj saqlangan. Faqat bitta darvoza (janubi-g‘arbda) bo‘lgan.

Farg‘onada antik davrning eng yirik yodgorligi Sho‘rabashot hisoblanadi (maydoni 70 ga). Yassi ariqi bo‘ylab joylashgan 4 qismidan iborat. Uch tomonidan qo‘rg‘on devor bilan o‘ralgan. Atrofidagi bir necha tepaliklar yo‘l bo‘lib ketgan. Miloddan avvalgi IV-I asrlarga oiddir.

Keyingi-Marhamat madaniyatining yodgorligi Marhamat o‘azagidir. Tomonlari – 750 x 500 m. Maydoni 40 ga. Shimoliy devorida 12, g‘arbiy va Sharqiy devorlarida 20 tadan burjlari mavjud. Janubiy devor buzilib ketgan. Miloddan avvalgi III-II asrlarda shakllanib milodiy I-III asrlarda gullab-yashnagan. Uni xaqli ravishda Davanning poytaxti – Ershi deb hisoblaydilar.

Xorazm shaharsozligining antik davrda rivoj topganligini qator istehkomlar misolida kuzatiladi.

Jonboz qal’a to‘g‘rito‘rtburchak (200 x 170 m) shaklida rejalangan Shimol-Janub yo‘nalishi diagonalga to‘g‘ri keladi. Miloddan avvalgi III asrda jadal hayot kechirgan. qo‘rg‘on devorlarida shinaklari bor. Bir darvozali. Darvoza oldidagi

maydon ham devor bilan muhofazalangan. Qal'a o'rtasidan keng yo'l o'tadi. Yo'ning ikki tomonlarida turar uylar massivlari joylashgan. Yo'l ibodatxonaga olib borgan.

Xorazm vohasining janubida Xazorasp qal'asi qurilgan. Tarki murabbaga yaqin 290 x 294 m. keyinchalik olib borishning yangi usullariga moslashib qayta qurish ishlari olib borilgan.

Qo'y qirilgan qal'a doira shaklida qurlgan. O'rtasi silinlrik hajmdan iborat. Uning ichidagi xonalar simmetrik tarzda joylashgan. O'rta hajmning tevaragidagi xalqada turli (yordamchi) xonalar joylashgan. qal'aning vazifasi (funksiyasi) to'la aniqlanmagan. Ibodatxona sifatida qurilgan deb faraz qilinadi. Rasadxona vazifasini ham o'tagan bo'lishi mumkin.

Tuproq qal'a miloddan avvalgi II-milodiy VI asrlarda hayot kechirgan noyob shaharsozlik asridir. milodiy III-IV asrlarda xorazmshoxlarning qarorgohi bo'lgan. Tomonlari 500 x 350 m ni tashkil qiladi. Atrofi xandaq bilan o'ralgan. qo'rg'on devorlari burjli. Bir darvozasi mavjud. Oldidagi hovli alohida devor bilan o'ralgan, o'rtasidan ko'cha o'tadi, ikki tomonlarida 10 mahalla joylashgan. qal'aning shimoli-g'arbiy burchagida uch minorasifat hajmli saroy bor. Saroy yonida ibodatxona bo'lgan deb faraz qilinadi. Tuproq qal'aning muntazam tarhi shahar bir vaqtida bunyod etilganligidan dalolat beradi. Shahar o'lchamlarining taxlili xandasiy mutanosiblash (geometrik nisbatlari) qo'llanganligidan dalolat beradi.

Antik davrda O'rta Osiyoda shaharsozlik oldingi miloddan avvalgi VIII IV asrlardagi, ayniqsa ahamoniylar davridagi shaharsozlikka tayangan holda rivoj topdi. Ilk antik davrda yangidan-yangi shaharlar bunyod etilishi davom etdi. Shaharsozlik kushonlar davrida ayniqsa ravnaq topdi.

QADIMGI ME'MORLIK

Mazkur davr me'morchiligi asosan yuqorida ko'rib chiqilgan shaharsozlik asarlaridagi bino va inshootlar me'morligidan tashkil topdi. Alovida imorat qoldiqi sifatida saqlangan yodgorliklar kam.

Miloddan avvalgi VIII IV asrlarda (ya'ni qadimgi davrning dastlabki bosqichlarida) ham me'morchilik undan oldingi davrlarda tarhalgan qurilish ashyolari va konstruksiyalarni qo'llash tajribasiga asoslanadi. Bino turlaridan ko'proq turar uylar o'r ganilgan.

M.a.VIII-IV asrlardagi turar uylar me'morligi. qadimgi davr me'morligining dastlabki bosqichlarini Kuchuktepa qo'rg'on hovlisi (Baqtra), Bo'zepa kichik manzilgohi (Pakana), qal'ali qir saroyi (Xorazm) kabi obidalar xarakterlab beradi.

Baqtra turar uyi Kuchuktepa misolida o'r ganilgan. Aniqlanishida u miloddan avvalgi 800 yillardan 400 yillargacha hayot kechirgan qo'rg'on hovli bo'lgan.

Farg'onada, tadqiqotlarga ko'ra turar uylarning uch xilini ajratish mumkin: 1- yerustki, 2-erostki, 3-jo'n, yerustki chaylasimon uylar.

Bo'zepa kichik manzilgoh bo'lib taxminan 20 xonadan iborat bo'lgan turar joy majmuasidir. Chamasi bir katta oila uchun xizmat qilgan.

Tog'larda yozloqlar (mavsumiy manzilgohlar) bo'lgan. Ular mol bog'iladigan vaqtarda vujudga kelgan.

Chochda Burganlik madaniyatiga oid turar uylar uch turda bo'lgan:

1-chaylasimon, yengil qurilmalar;

2-uylarning asosiyлари yerto'la tariqasida bo'lib saxni ko'proq 12-15 m tashkil etgan;

3-katta yerto'lalar bo'lib pastga devor yordamida bir necha bo'lmalarga ajratilgan bo'lgan; bu ko'p xonali uylarning dastlabki ko'rinishi edi.

Nurtepada turar joylar - yerto'lalar shaklida qurilgan kattagina bo'lgan (uzunligi 5 m, eni-3.5 m) yerto'la ochilgan yengil tomi bo'lgan. Yer ham bo'lgan. Ilk temir davrining so'ngida paxsali uylar paydo bo'ladi.

Xorazm me'morligi namunalarini qatorida qal'ali qir saroyi ajratilishi mumkin. Inshootda simmetrik tarzda uch tomonlarida ayvonlari bo'lgan hovlilar va burchakdagi to'rt ustunli xona alohida diqqatni tortadi. Saroydagi ustunlar uch joyda (hovli va ikki xonada) juftlashtirilib qo'yilgan. Saroya asosiy xonalar qadimgi Eronda keng qo'llanilgan apadan tarzida qurilgan.

Qadimgi davrning dastlabki bosqichlaridan farqli o'laroq antik pallalarga oid me'morchilik asarlari ko'proq o'rganilgan.

Ilk antik davr me'morligida qurilish ashyolari sifatida pahsa, xom va Pishiq g'isht qo'llanilgan. Anchagini yirik 40x40x10 sm o'lchamli g'ishtlar ham ishlatilgan.

Chiripitsa, kungura va shunga o'xhash unsurlar loydan yasalib pishirilgan. Baqtrada (margeliy) oxaktosh ham qo'llanilgan. Ganchdan unumli foydalanilgan. Ba'zan ustun tagiga zilzilaga bardoshli bo'lsin uchun qum yotqizilgan.

Toklar-pargoriy yoki uch markazli (korob) ko'rinishida bo'lgan. "Tik bo'lakli" va "qiya bo'lakli" toklar qo'llanilgan. Konstruktiv jihatidan pastkisi-asosiy, tepasidagi - yordamchi bo'lgan. Ba'zan pastkisi "bo'lak" qilingan, tepadigisi ponali bo'lgan. Yirik terrokota taxtalardan yonma-yon qo'yilib ravoq hosil ham qilgan. Tokchalar oval, pargoriy isoklarda bo'lgan. Xorazm o'choklar uchburchak tokchalardan iborat edi. Termizdagi buddoyi ibodatxonalarda uch yoyli yoki qilsimon ravoq va tokchalar qo'llanilgan.

Pol ba'zan pishiq g'isht bilan qoplangan, ba'zida esa qizil rangda bo'yalardi. Bu usul qadimgi Baqtra uylarida ham bo'lgan. Antik davrda ham ko'p rangli bo'yoq va devor sur'atlari qo'llanilgan.

Parfning qo'rg'on me'morligi to'g'risida Erk qal'a, G'avr (Kofir) qal'a misolida gapirishi mumkin.

Erk qal'aning dastlabki devori (1-devor) miloddan avvalgi VI- IV asrlarda pahsadan qurilgan. Ichkaridagi ikki platforma ham shu davrga tegishli. Devor balandligi 10.5 m, qalinligi pastdagi - 25 m Erk qal'a undan avvalgi davrga oid. Yoztepadagi keskin farq qiladi. Yoztepada qal'a faqat sufada qurilib, istehkomi qo'rg'onsiz edi.

Erk qal'ada esa qal'adan tashqari istehkomi ham qo'rg'onli bo'lgan. U ko'pburchak shaklida edi. U bora-bora egri chiziqli shaklga aylangan.

G'avr qal'a devori ikki tarafdan 100 qiyalikda qilingan edi. Asosda qalinligi 6.6 m. Devor pahsadan qurilib Ustdidan xom g'isht yotqizilgan. Burjalarning bo'lgan-bo'lganligi noma'lum. Erk qal'ada g'isht bilan 1-devor ichkaridan qo'shib chiqilgan (ya'ni "g'ilof"ga olingan). Tepaga 4 m yana ko'tarilgan. Ja'mi 15.5 m bo'ldi. Erk qal'aning G'avr qal'aga tutash joyda, g'arbda yana bir darvaza bo'lishi mumkin.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda G'avr qal'ada qo'rg'on qayta quriladi. Bu davrida Burjlar ishlanadi. Erk qal'ada esa faqat ta'mir qilindi, saroy qurildi. II asrda yangidan qayta qurilish olib boriladi. Xandaq to'ldiriladi. shinak ochiladi.

IVasrda (sosoniylar davridek) yana bir marotaba ta'mir bajariladi. Erk qal'ada devor: raxrav-6.5 m, tomi yo'q. Qalinliklari turlicha: tashqi devor 3.7 m, ichki devor 4.2 m qalinlikda xom g'ishtdan ishlangan. Xom g'ishtning tashqi devoridagi, o'lchamlari ichki devornikidan farq qiladi. Bu bir devor emas, balki ikki devordir. Balandliklari ham har xil bo'lishi mumkin. Shu davr mobayonida kofir qal'a bilan Erk qal'a tutash joyidagi davrda berkitiladi. Shimoliy devor oldida kichik devor (protexazma, qalinligi-1.85 m) quriladi. 3-devor ilk sosoniylar davriga mansubdir.

Monumental me'morlik namunalaridan Parfda "Kvadrat zal" hamda "Aylana ibodatxona" alohida e'tiborga loyiqidir.

"Kvadrat zal"-olov ibodatxonasi o'xshash. Ichkarisidan esa Samofrakiya orolidagi "Arsinoyon" ga o'xshaydi.

Baqtra – "Toxariston" me'morligida millodning birinchi asrlarida buddoiylik (buddizm) tarhalishi yangi tipdagi diniy inshootlarni shakllanishiga olib keldi. SHahar qiyofasida buddoyi dinidagi qurilmalar ahamiyati o'sdi. Bu davr buddoyi rohibgohlar (monastirlar)-viqaralar keng ko'lamda qurilishi bilan xarakterlanadi. Odatda ularda esa xom g'ishtdan foydalanilgan. Rahravlarning birida devoriy sur'at xolda saqlangan. Viqaralarda rahrav (koridor)lar keng qo'llanib, tepasi tog'simon konstruksiya bilan yopilar edi.

Kushonlar davrida (Termizda) Qoratepada qoya hamda erostki ibodatxonalari buniyod etildi. Qoratepa viqarasi uch yarusli bo‘lib, u ohaktoshdan qurilgan. qo‘rg‘onning yonida Fayoztepa yerustki rohibgoh bino qilindi.

Buddoyi inshootlarining yana bir turi stupalardir. Ular muqaddas ashyo saqlanadigan tepasi sferik shaklda bo‘lgan silindrik hajmga ega bo‘lgan. Zurmola stupasi nisbatan yaxshi saqlangan. Dastlab qoplamasni bo‘lgan deb taxmin qilinadi.

Baqtra arxeologik obidalaridan Xolchayon yaxshi o‘rganilgan. Simmetrik tarhga ega: o‘rtada ayvon, uning orqasida esa ikki ustunli kichikroq xona qurilgan, yon tomonlaridan esa yordamchi xonalar tutashgan. Bino dala saroyi vazifasini o‘tagan. Bezashda gorelef texnikasiga bajarilgan haykallar qo‘llanilgan.

Sug‘d yodgorliklaridan diniy inshoot bo‘lmish Setalk I yodgorligi ajraladi. Uning ikki qurilish davrlari mavjud. Birinchi davrda soddaroq, murabba tarhga ega bo‘lgan imorat ikkinchi davrda murakkablashdi-to‘ttala tomonlarda yarim aylana shakllarda joy qo‘shiladi. Xorazm me’morlik namunalari qatoriga qal’ali qir saroyi majmuasi kiradi. Majmuada simmetrik tarzda uch tomonlarida ayvonlari bo‘lgan hovlilar va burchakdagi to‘rt ustunli xona alohida diqqatni tortadi. Saroydagi ustunlar uch joyda (hovli va ikki xonada) juftlashtirilib qo‘yilgan.

So‘ngi antik davrda bir qancha o‘zgarishlar ro‘y berdi. Avvalgi ilk antik davrga nisbatan turar uy-joyi kabi dunyoviy inshootlar tipologiyasida va tuzilishida o‘zgarishlar kamroq ibodat inshootlarida esa Buddha (buddaviylik budoyi) dinining tarhalashi bilan bog‘liq holda ko‘proq o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zgarishlar O‘rta Osiyoning hamma yerlarida ham tekis, bir xilda o‘tmagan, balki mahaliy me’morlik a’nalariga tayangan holda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlar o‘ziga xos jihatlarga olib kelgan.

O‘ziga xos maqbara vazifasini o‘tgan musxonalar qurilgan. Ular aksari I-II asrlarga oiddir. Ko‘pinchalik diametri 2.5-5.0 m atrofida, bo‘lgan sohta gumbazalar bilan yopilgan. Chotqol tizmasining janubiy baqirlarida va mo‘g‘ultovda ko‘prok uchraydi.

Baqtra me'morligida buddoyi rohibgoxlar (monastirlar) voharalar keng ko'lamda qurilishi bilan xarakterlanadi. Termizdagi Qoratepa voharasi uch yarusli bo'lib oxaktoshdan qurilgan. Odatda xom g'ishtdan bajariladigan konstruksiya oxaktoshdan ham qaytariladi. Vixarda raxravlar (koridorlari) tog'simon konstruksiya bilan yopilgan. Raxravlarning birida devoriy sur'at xoldagi saqlangan.

Ayritom hamda Eski Termizdagi Zurmela stupalari platformalarga (tayanch supalarga) qurilgan edi. Zurmola stupasi nisbatan ko'proq saqlangan. Dastlab qoplamasi bo'lган deb taxmin qilinadi. Tepa qismida hujrasi (kamerasi) bor.

Tuproq qal'a saroyi shaharning shimoli-g'arbida joylashgan. hajman uch minorasimon qismlardan va ularni birlashtirib turuvchi oraliqlaridagi pastham qurilmalar massividan iborat. Saroy juda ko'p xonalardan iborat. "Navkar zali" deb ataladigan yirik xonada devorlari bo'ylab sufalar qurilgan. Sufalarga katta-katta qo'chqoraklar (valyutalar) qo'yilgan. Ularning oraliqlarida navkarlar haykallari qo'yilgan edi. qo'chqoraklarning ustlarini esa ikki maydaroq navkarlarni haykallar bezab turgan. haykallar loydan ishlangan edi. Saroyning boshqa ba'zi xonalarida devoriy suratlar bo'lган. Masalan, arfa chalayotgan ayol tasviri va boshqalar.

Tuproq qal'a saroyida me'morlik, haykaltaroshlik va rassomlik vositalari yorqin yaxlit obraz yaratishga qaratilgan edi.

ILK O'RТА ASRLAR ARXITEKTURASI

O'rta Osiyo arxitekturasi rivojida keskin o'zgarishlar qadim davr bilan o'rta asrlar chegarasiga to'g'ri keladi. Ilk o'rta asrlar arxitekturasining o'ziga xosliklarini nazarda tutib, unda uch: VI-VIII, IX-X va XI-XIII asr 2-o'n yillikni o'z ichiga olgan davrlarni ajratish mumkin. XIII asrning 3-9-o'n yilliklari mo'g'ul istilosidan keyingi vayronagarchilik davri bo'lганligi sababli u zamonga oid yodgorliklar yo'q. Ilk o'rta asrlarni davrlarga ajratishda VIII asrda islom dinining yoyilishi katta ahamiyatga ega bo'lганligini nazarda tutish zarur. Bu jarayon qurilishlarning jadallahuviga, binolar tipologiyasining, san'at turlari sintezi tiynatining katta o'zgarishlariga olib keladi.

VI-VIII asrlarda xaytallar (eftalitlar), sosoniyalar va turk xoqonlari hukumronlik qilgan edilar. Viloyatlar nisbatan muxtoriyatga ega bo‘lib, o‘z hukumdorlari tomonidan bajarilgan.

IX asrda hukumat tepasiga toxiriylar (821-873 yillar) keldi. Marv shahari mavqesi o‘sha vaqtida baland bo‘lgan. Poytaxti Buxoro bo‘lgan somoniylar (875-999 yillar) davlati o‘z tasarrufiga Movarounnaxr va Xurosonni olgan edi. Yettisuv siyosiy jihatdan somoniylarga qaram bo‘lmagan. Sirdaryoning quyi oqimidagi yerlar O‘g‘uzlar davlatini tashkil etgan edi.

XI-XIII asrlarda O‘rta Osiyoda Qoraxoniylar, G‘aznaviylar va Saljuqiylar hukumronlik qildilar.

XI asr boshida Xorazmshox Ma’mun davrida ta’sis etilgan. Urganchda Dorul xikma (fanlar akademiyasi) jaxon ilm-fan rivojiga katta xissa qo‘shgan. Dorul hikmada Ibn Sino, Beruniy kabilar tadqiqot ishlari olib borishgan.

IX-XII asrlarda O‘rta Osiyoda madaniyat yuksak cho‘qqilarni egalladi. Farobi, Zamashshariy, Ibn Sino, Beruniy, Buxoriy kabi qator allomalar etishib chiqdikim, ular jahon tamadduniga (sivilizatsiyasiga) salmoqli xissa qo‘shdilar. Buni nafaqat O‘rta Osiyodagi, balki boshqa mamlakatlardagi jahonga mashxur bo‘lgan me’moriy obidalar, chunonchi Farqoniy tomonidan qurilgan Nil o‘lchagichi, Farobiyning ideal shahar to‘g‘risidagi nazariy qarashlari, Ibn Sinoning turar uy-joy, hammom kabi imoratlar to‘g‘risidagi fikrlari, olimlarimizning handasiy asarlari tasdiq etadi. Bu davrda Xorazmda Ma’mun akademiyasi faoliyat ko‘rsatgan edi. She’riyat bobida Ro‘dakiy, Daqiqiy kabilar ijod etdilar.

ILK O‘RTA ASRLAR SHAHARSOZLIGI

VI-VIII asrlarda (avvalgi davrdagidek) dehqonchilik vohalari ko‘chmanchi chorvadorlar cho‘llaridan devorlar bilan muhofaza qilingan edi. Ayni vaqtida VII – asrda O‘rta Osiyo davlatlari jadal sur’atlarda Eron va Xitoy bilan savdo olib borgan. Sug‘d esa VI asrdan boshlab Yettisuvni kolonizatsiya qildi, uning miqyosi VII asrda SHarqiy Turkistonni qamrab olgan edi.

IX-XIII asrlar shaharsozligida avvalgi, o‘tmish davrlardan qolgan vohalarni (shaharlar va qishloqlarni) muhofaza qilish maqsadida qurilgan qo‘rg‘on devorlar ta’mirlanadi va qaytadan tiklandi. Ular uzoqqa cho‘zilgani bois uzun devorlar nomi bilan ataladi. Uzun devorlar o‘z nomlariga ega bo‘lishgan. Toshkent va Chirchiq bo‘yidagi shahar va qishloqlarni Devori kandi pirak yoki qisqacha – Kampir devor (buzilgan shaklda – Kampir devor) muhofaza qilar edi. Bunday nom boshqa joylarda ham (masalan Buxoro atrofidagi devor uchun) qo‘llanilgan. Samarqand va uning atroflardagi keng va qishloqlarni Devori qiyomat mudofaa qilgan. Dehqonlarning turli mayda - yirik manzilgohlari aksari biror yirik ariqdan suv ichib, obod yerlarni hosil qilgan. Bunday obod yerlar rustoq deb atalgan. Misol tariqasida Xorazmdagi Burgut qal’a va qavat qal’a rustoqlarni keltirish mumkin.

Yangi shaharlarni havosi musaffo, suvli, past – balandli joyda qurishga xarakat qilingan. qariyalarning aytishlariga ko‘ra shahar uchun “yetti soy va yetti qir” kerak. Toshkent va Samarqand shunday talablarga javob berar ekan.

O‘rta asrlarda shaharlar to‘g‘risidagi tushuncha bir xil bo‘limgan. Geograflar Al – Istanriy va Al – Maqsadiy masjidni shahar belgisi deb hisoblaganlar. “hudud – ul - olam” asarida noma’lum muallif quyidagi turlardagi shaharlarni keltiradi: katta shahar (Marv), shahar (Seraxs, Niso) va yana ikki turdagи shaharlar; kichik shahar va shaharcha, ba’zan qishloq deb yuritiladi. Ayrim manbalarda qavat qal’a (Xorazm, X asr) kabi yodgorliklar ham rustoq, ham shahar deb hisoblangan. Bunday joylarni qal’asiz vujudga kelgan shaharlar qatoriga qo‘shilgan.

V-IX asrlarda ko‘philik qadimgi shaharlar qayta tiklana boshlandi. Yangi karvon yo‘llari bo‘ylarida vujudga keladi. Shaharlarning tuzilishi avvalgi vaqtdagidan farqlangan. Oldingi dizlar faqat siyosiy mavqega ega bo‘lgan shaharlardagina o‘z e’tiborini saqlab qoldi. Boshqalarida esa dizlar mavqelarini yo‘qotib harobaga aylandi. Adabiy manbalarda ular “ko‘handiz” – ko‘hna diz deb nomlanadi. Bu vaqtda shaharlarning asosiy qismlari odatda shahriston deyilgan. Shahar rivoji davomida uning tevaragida rabod shakllana borgan.

Turli hududlarda shaharlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Masalan, Yettisuvda shaharlar aholisi ko‘chma hayot kechirgan, asosan qal’a vazifasini o‘tagan. Ichida monumental inshootlar bo‘lmagan. Urush vaqtarda ularda chorva va aholi jon saqlangan.

Chuy darasidagi istehkomlarda shahar o‘zagi nisbatan kichik va zich qurilmali, qal’a devoridan bo‘lak yana ikki qator devorlari bo‘lgan. Ichkisi hovlilari, tashqisi bog‘-roqlarni muhofaza qilgan. Xorazmda esa mayda manzilgohlar ariq bo‘ylarida ancha tarqoq holatda joylashgan. Masalan, yuqorida qayd etilgan Burgut qal’a va qavat qal’a.

Aksari shaharlar 10-15 maydonni egallagan. Buxoro shahristoni 30-35 m, Samarqand rabodi bilan 200 m atrofidagi maydonni ishg‘ol qilgan edi. Shaharlar quduq, ochiqariq va sopol quvurlar yordamida suv bilan ta’minlangan. Yo‘llarni va karvonlarni himoya qilish maqsadida ko‘plab rabot qurildi. Shaharlarni suv bilan ta’minalash katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Aksari suv ariqlardan keltirilgan, hovuzlarda tutashtirilgan. Ba’zan erostki sopol quvurlaridan foydalanilgan. Samarqand kabi tepaliklardagi shaharlar ko‘tarma nov (akveduk) qurilgan edi. Samarqand novi Jo‘yi Arzis deb nomlangan. Yer ostki suvlardan tog‘ va tog‘oldi joylarda koriz tizimi orqali foydalanilgan. Farova korizi raboddan 700 m uzunlikka ega bo‘lgan. Korizni yer ustidan ikki yonida qo‘rg‘on devor, burlar qurilgan edi. Ba’zi shaharlarda (Marv, Buxoro, Termiz kabilarda) taroz - kanalizatsiya qo‘llanilgan.

Shahlararo yo‘llarini va karvonlarni himoya qilish maqsadida rabotlar qurildi. Farova, Dexiston rabotlari shular jumlasidan. Isfijob yaqinida ham rabot bunyod etilgan edi.

Qadimgi davrdan hayot kechirayotgan shaharlar qatorida Nisa bo‘lgan. Nisada X asrda bo‘lgan Maqdisiy uning obodligini qayd etgan. U shaharning sersuvligi, ko‘chalari daraxtlar soyasida bo‘lishini ta’kidlaydi (49-ad., 201-b.).

Marv shahari O‘rta Osiyoda eng katta shahar bo‘lgan. VII asrga kelib Erk qal’a dastlabki o‘z mavjesini yo‘qotadi. Shahristonda (Kofir qal’ada) ham chamasi

sug‘orish tizimi ishdan chiqishi natijasida yashash sharoiti og‘irlashdi. Kofir qal’adan G‘arbda XI-XII asrlarda yangi shahriston shakllandi. Uning arki yangi shahristonning shimoli-sharqiy qismini egalladi. Ariqlari ichida Roziqnomlisi ahamiyatli bo‘lgan.

Dog‘iston shaharining hududi 60 hektar edi. qo‘rg‘on devori ikki qator bo‘lib, ularni oraliqdan ko‘ndalangiga o‘tgan devor birlashtirib turgan. Bu qadimgi devrga oid Sopollitepa usuli davom etganligini ko‘rsatadi. Shahar keyinchalik Mashhadi Misriyon deb atalgan.

Shaharni suv bilan ta’minlash masalasi Esir 20 kilometrgacha etgan ariq orqali xal qilingan. Yer ustki va yerostki ariqlar, xovuzlar g‘isht bilan qoplab chiqilgan edi.

Marv vohasidagi manzilgohlardan biri Al-Askar bo‘lib, unda XI-XII asrlarda karvon saroy qurilgan edi.

Amudaryoning o‘rta oqimida shaharlardan biri Omul shahari u qoraqum sahrosining chetida joylashgan. Hozirgi Chorjuy shahariga to‘g‘ri keladi.

Termiz shaharining VI-VIII asrlarda avaldagи asrlardagi tanazzuldan so‘ng ancha jonlandi. Oldingi tashlab ketilgan joylarning ba’zilariga aholi qaytib keldi. Shaharning gullab-yashnashi esa IX-XII asrlarda davom etadi. U yanada kengayib ketdi, bandargox ta’minlandi. Qal’ada uni mustahkamlash maqsadida qayta qurish ishlari olib borildi. Shaxriston qo‘rg‘on devor bilan o‘raldi. Shahar tarkibiga keng rabodidan tashqari atrofidagi qismi (suradikat) ham kirgan. Somoniylar davrida SHahristonda mahallalardan tashqari bozorlar, saroy, rabodda ham bozor, ustaxona, namozgoxlar bo‘lgan. Qo‘rg‘on devorlarining eskilari mustahkamlandi, yangilari qurildi. Ularda 9 darvoza bo‘lgan. Bu davrda Sulton Saodat majmuasining dastlabki binolari paydo bo‘ldi. XIII asr oxirida Mo‘g‘ullar istilosidan avvalgi vayron etilgan. Xususan Sharq sayidlar manzili Salovat degan joyga ko‘chdi. XV asr boshida Termiz yaxshigina qurilgan, ajoyib bozorlari bo‘lgan katta shahar edi. Butun XV asr davomida qurilish jadal suratlar bilan olib borildi, bandargox va qal’a obdon ta’mirlandi.

Xuttalning (Janubiy Tojikiston) poytaxti Xulbuk bo‘lib, u g‘aznaviylar, keyin saljuqiylar (X-XII asrlar) davrlarida jadal hayot kechirgan. Xulbuk shaharining qal’asida xom va Pishiq g‘ishtdan saroy qurilgan edi.

Farg‘ona vodiysi Muhim shaharlaridan O‘zgan bo‘lib, uning ilk o‘rta asrlaridagi tuzilishi hali yetarli darajada o‘rganilmagan.

Toshkentning dastlabki vaqtidagi hayoti Ming O‘rik (Ming O‘rik Afrasiyobi) yodgorligida kechdi. Ming O‘rikning V-VII asrlarda maydoni 30 m atrofida bo‘lgan. U yirik shaharlardan hisoblanib, diz (qal‘a), Shahriston (ichki shahar) va rabot (tashqi shahar)lardan iborat edi.

Uning tevaralarida ko‘plab ko‘shk, kad, kentlar paydo bo‘lgan. Ulardagi imoratlar asosan xom g‘isht va paxsadan iborat bo‘lib, hozirgacha ko‘plab tepe holatida etib kelgan. Taxminan VIII-IX asrlarda Toshkent Eski Shahar hududiga ko‘chadi. Bu hudud past-baland bo‘lib, xalq tasvvurida shahar uchun eng yaxshi joy (“yetti soy, yetti qir”) hisoblanib aholini sel xavfidan saqlagan.

Beruniyning (X asr) guvohlik berishicha, Toshkent o‘sha vaqtarda Binkat deb atalgan. Shahar har biri qo‘rg‘on devorli ark (qal‘a), Shahriston hamda ko‘shk (ichki va tashqi rabotlardan tashkil topgan edi. Ichki rabod Rabodi dohil, tashqi rabod Rabodi xorij deb atalgan. Shaharda binolar zich (tashqi rabod bundan mustasno)) qurilgan edi. X asr ma’lumotiga ko‘ra, shahar o‘lchamlari farsangga (5-6 km) teng bo‘lgan.

O‘rta Chorsu bozori va Registon maydoni shahristonga tutash bo‘lgan. Toshkent Chirchiq daryosi bo‘yidagi boshqa shahar va qishloqlar bilan yaxlit shaharsozlik tizimini tashkil qilgan. Mo‘g‘ullar istilosini Toshkentga katta talofat keltirgan. XIII asrda yirik qurilish ishlari olib borilmagan, deb hisoblanadi.

Samarqand shahari mo‘g‘ullar istilosigacha Afrasiyob tepaligida joylashgan edi. Shimol tarafidan pastlikda Siyob ariqi o‘tgan edi. Shaharning shimoliy qismida qal‘a joylashgan edi. Uning qo‘rg‘ont devorlari shaharning janub tarafiga o‘sishini ko‘rsatadi. Bir necha darvozalari bo‘lgan. Shahardan topilgan mashhur devoriy suratlar hokim-ixshit saroyiga tegishli bo‘lgan.

Eng ilk o‘rta asrlardagi (VI-VIII asrlardagi) O‘rta Osiyo shaharlariga Panjikentni va Ming O‘rik Afrasiyobini olish mumkin. Panjikent Zarafshon o‘rta oqimida joylashgan.shahar jarlik yoqasi qurilgan. Jar (shimol) hamda sharqiy tomoni to‘g‘ri chiziq tariqasida, qolgan tomonlari siniq chiziq tariqasida bunyod etilgan. Maydoni – 14 m atrofida qal’asi shahristondan alohida- G‘arbda joylashgan. Asosiy darvoza janub tomonda qurilgan edi. Bu darvozadan shahar markazi bo‘lgan ikki ibodatxonaning maydonga borilgan edi. Shaharning sharqiy va janubiy sharqiy atrofida onda-sonda navslar-suyaklar saqlanadigan inshootlar uchraydi.

Buxoro o‘z vohasida VI asrdan e’tiboran bosh shaharga aylanadi. VIII asr boshida rabod devor bilan o‘raldi. 849-850 yillarda ark, shahriston va rabod ikkinchi marotaba devor bilan ifodalandi. Unda o‘n bir darvoza bo‘lgan edi. Somoniylar davrida Registon maydonida me’moriy binolar paydo bo‘ldi, saroy qurildi.

Urganch shahari o‘zining joylashuvi jihatidan shimoli-g‘arbga, Volga tarafiga va janubga Jurjon tarafiga borish uchun qulay joyda paydo bo‘lgan. 995 yilda, Mamun davrida Urganch Xorazm poytaxtiga aylandi. Yirik inshootlar paydo bo‘ldi. Ta’sis etilgan akademiyada Ibn Sino, Beruniy kabilar faoliyat ko‘rsatishgan. Arxeologik jihatidan Urganch yetarli darajada o‘rganilmagan.

Xorazmshoxlar davrida xazorasp mustahkam qal’a va go‘zal shahar sifatida dong taratgan edi. Solnomalarda uning bozorlari va avdogarlari ko‘pligi, aholisi boy bo‘lganligi qayd etilgan. Shahar ko‘l bilan o‘ralgan bo‘lib qoldiqlari xanuzgacha mavjud. Shaharning birgina orolida joylashgan darvozasi bo‘lgan.

Talas vohasining asosiy shahari Taroz edi. U Talas daryosining chap qirg‘og‘ida (arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra V asrda) bunyod etilgan edi. Yozma manbalarda shaharning dastlab zikr etilishi VII asrga to‘g‘ri keladi (568 y., Vizantiyalik elchi Zemarh). Shaharning bir qismi daryoning qarshi tarafida bo‘lgan. Qo‘rg‘on devor va handa bilan himoyalangan edi. To‘rtta darvozasi bo‘lgan. Talos X arsda aholisi ko‘p, obod shahar bo‘lgan. Odamlar nafaqat shahristonda rabodda istiqomat qilgan. Tarozga Jambul nomi berilgan.

VIII-XVIII asrlarda shahar Talas, Yangi nomlari bilan, keyinchalik Avliyo ota, ikki yil (1936-38 yillarda) Mirzoja, so‘ngra Jambul nomlari bilan atalgan. Hozirgi vaqtida (1998 yildan buyon) avvalgi Taroz nomi bilan aytildi.

Shahardan 18 km janubi-g‘arbda Babaji Xotun (X-XI asrlar) va Oysha bibi (XI-XII asrlar) maqbaralari qurilgan. Arxeologik qazishlar mobaynida chiqqan devorlari suratlar bilan hammom hamda korizlar shahar obodonligi o‘sha vaqtga nisbatan ancha obodon bo‘lganligidan dalolat beradi. Mo‘g‘ullar istilosidan keyin Taroz inqirozga yuz tuta boshlagan. XVI asrda shahar hayot so‘ngan.

VI-VIII ASRLAR ME’MORLIGI

Asosiy qurilish ashyosi sifatida oldingi davrdagidek paxsa va xom g‘isht bo‘lgan. Pishiq g‘isht va tosh ham keng ishlatilgan. Inshootlarda ko‘proq ustunto‘sini konstruksiyalar qo‘llanilgan. Panjikent ustunlari ham antik orderlarida bo‘lgani kabi ustun kallagi, o‘zag, kuzagi va ko‘rsidan iborat bo‘lgan. Kuzakning diametri ko‘rsning balandligi teng 32 sm ni tashkil qilgan. Keng miqyosida yo‘laklar va shu kabi binolarning boshqa qismlari tog‘ bilan yopilgan.

Toqlari ko‘proq tik bo‘lakli va qiya bo‘lakli xillarda bo‘lgan. Ikkala holda xom g‘isht yon tomoni bilan yotqizilgan. Tik bo‘lakli toqda g‘isht vertikal holatda qo‘yilgan. Qiya bo‘lakli toqda g‘isht qiya holatda ishlatilgan. Ba’zi tadqiqotchilar gumbazlarning (soxta variantlarining emas, haqiqiyalarining) paydo bo‘lishini VI asrga borib taqaydilar. Misol tariqasida Toshkent Yunusobod Oqtepasini keltiriladi. Sh.Pidayev gumbazning O‘rta Osiyoda dastlab qo‘llanilgan vaqt sifatida V asrni ko‘rsatadi.

Gumbazlarning Muhim qismi gumbaz ostidagi og‘irlikni devorga o‘tkazib beruvchi unsurdan (qanoslardan) iborat. Dastlab qanoslar perspektiv ravoqlardan iborat bo‘lgan. Aksari qanoslar balandligida xona sakkiz yonlikni tashkil qilgan. Undan farqli o‘laroq xona devorlar balandligida to‘ryonlikdan iborat bo‘lgan.

Me’morlik inshootlarida san’at turlari sintezlashgan edi. Bu o‘rinda ko‘proq devoriy suratlar keng qo‘llanilganligini ta’kidlash zarur. Panjikent, Varaxshox,

Samarqand, Afrasiyob, Ming O‘rik Afrasiyobi (Toshkent) inshootlari devoriy suratlari bunga misol bo‘ladi. Suratlarning aksari syujetlidir.

Suratlardan tashqariboshqa bezak turlari ham qo‘llanilgan, chunonchi yog‘och o‘ymakorligi (Panjikentdagi qiz-qariatidan shaklidagi ustun), ganch o‘ymakorligi (Varaxshoxdagi naqsh, zoomorf shakllar-bedanalar qatori va boshqa), ishlatilgan.

Bu davr me’morligini avvalo zamindorlar-dehqonlarning ko‘shklari bilan xarakterlanadi. Bu to‘g‘risida Abu Rayhon Beruniy ma’lumot bergen. Aksari, ular sun’iy tepalikda-platformada paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan, mustahkam devorlar bilan o‘ralgan dehqonlarning mayda-yirik manzilgox iborat bo‘lgan.

Ko‘shklardan tashqari ibodatxonalar, boshqa turdag'i imoratlar ko‘plab barpo etilgan. Me’morlikda to‘rt ustunli xonadan arxitekturasini (dastlabki yorqin ko‘rinishi nisodan “Kvadrat zal”) takomillashtirish ishlari davom ettirildi. Bu ayniqsa Panjikent uylarida yaxshi namoyon bo‘ladi.

Ko‘shklar O‘rta Osiyoning turli mintaqalarida qurilgan.

Marvda qurilgan Katta qiz qal‘a va Kichik qiz qal‘a tuzilishi jihatidan o‘xhash. Kichik qiz qal‘aning tarhda deyarlik kvadratining tashkil qiladi. Tomonlari 20 m dan ortiq, ikki qavatli, o‘rtasi-hovli. Ikkinchisi qavatning tashqi devori piltali (yarim silindrli) shaklda barpo bo‘lgan.

Surxondaryo vodiysi ham VI-VIII asrlarda saroylarning nafaqat ko‘shk tipi, balki kad tipi ham rivoj topdi. Ular aksari ochiq joylarda, xom g‘isht va pahsadan sun’iy tepalikda qurilgan. Surxondaryodagi Bolali tepe kabi rejalanishi jihatidan O‘rta kompozitsiyaga ega. Kadning chetlarida uzun xonalar joylashgan. Inshoot o‘zining devoriy suratlari bilan mashxur. Ularda bazm tasviri berilgan. Taxminlarga ko‘ra tasvirlar keyinchalik Firdavsiyning “Shohnoma”sida bayon etilgan halqrivoyatlaridan lavha (voqe) aks etdirilgan.

Kal’an Kofirnixon (VII-VIII asrlar) yodgorligi misolida bu davrdagi Tahariston turar uylari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish mumkin.

Toshkent eng ilk o‘rta asrlarga oid arxeologik yodgorliklar mavjud. Bir necha bunday tepaliklar Oqtepa deb ataladi. Ular ichida Yunusobod Oqtepasi o‘zining

kattaligi, nisbatan yaxshi saqlanganligi hamda unda O'rta Osiyoda dastlabki gumbazlardan biri qo'llanganligi bilan ajraladi.

Xorazmda Beruniy poytaxt yaqinida Iskandar Maqduniydan 660 yil so'ng Xorazm shoxi Afrig' poytaxt yaqinida ko'shk aurdirganligi to'g'risida xabar bergen. Uni tasnifi aynan Xorazmdagi Yakka parson ko'shki to'g'risida ketayotganday tuyuladi. Yakka parsonda ham tomonlari nishabli supaga (platformaga) qurilgan ko'shkka taxminan 20 m naridan o'tgan burlari aylana shakllarda bo'lgan qo'rg'on devorlar ko'tarma ko'prik orqali o'tilgan. Ikkinchchi devor birinchidan 10 m naridan o'tgan edi. Uchinchi devor qoldiqlari 40-45 m naridan topilgan.

Panjakentda olib borilgan kezuvlar eng ilk o'rta asrlar me'morligiga oid boy material bergen. Shaxristonda kattagina joyda turar uylar va ibodatxonalar o'rganilgan.

Panjakent mahallarida olib borilgan kuzatuvarlar katta va kichik uylarni tuzilishida umumiylit borligini ko'rsatdi. Ko'p uylarda zina borligi ularning ikki qavat bo'lganligidan dalolat beradi. Katta va kichik, ya'ni kambag'al va boy Panjakentlarning uylarida murabba tarhli to'rt ustunli xonalar uylarning asosiy xonasi bo'lgan. Taxminlarga ko'ra ular mehmonxona vazifasini o'tagan. Xona devorlari bo'ylab ketgan supa kiraverishning ("past"ning) qarshisida kengayib mehmonlar o'tiradigan joyni ("tur"ni, "yuqori"ni) belgilaydi.

Panjakentning xonalarida uyda ibodat qilinadigan joylar bo'lgan. Bunday ibodatxonalaridan birida kiraverishining chap tomonida ikki tokcha bilan belgilangan. Tokchaning biri ustunli ravoq bilan ajratilgan.

Pajakentda ikkita: katta va kichik ibodatxonalar bo'lgan. Ikkala ibodatxonada ham oldi ochiq keng ayvonga o'rtasida to'rt ustunli ayvon tutashgan. Uning orqasida ko'ndalang yo'nalishda ibodatxonaning asosiy-muqaddas xonasi joylashgan.

Panjakentda shahriston atrofida zardushtiylik diniga mansub bo'lgan navslar-o'lgan odam suyaklarini maxsus sopol qutilarda saqlash uchun qurilmalar bo'lgan. Ularni dastlabki maqbaralar deyish mumkin.

Qirg‘iziston dagi Oq Beshim ibodatxonasi buddayi diniga mansubdir. Unda O‘rta, kvadrat tarhli xona ikki yon va orqa tomonlaridan uzun yo‘laklar bilan o‘ralgan. Kiraverish peshtog‘simon qurilma va uning orqasidagi keng ayvon bilan ajratilgan.

VI-VIII asrlarda O‘rta Osiyo me’morligida ko‘shklar, kadlar kabi oldingi davrlarnikidan farqlanadigan turar uy-joy me’morligi ishlab chiqildi. To‘rt ustunli zal me’moriy mavzu Panjakent mehmonxonalarida o‘z davomini topdi. Ibodatxonalar me’morligida inshoot qaysi dinga mansub ekanligidan qat’iy nazar umumiy jihatlar (simmetriya, kiraverishni keng ayvon bilan ajratish va boshqalar) paydo bo‘ldi.

IX-X ASRLAR ME’MORLIGI

VIII asr boshidan O‘zbekistonda islam dinining tarqalishi, Movaraunnahrning xalqaro miqyosida e’tibor kuchayishi, boshqa mamlakatlar bilan, ayniqsa O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlar bilan aloqalarning keng quloch yoyilishi, yangi xildagi inshootlar – masjidlar, maqbaralar, rabodlar, keyinroq madrasa kabi binolarning tarqalishiga sababchi bo‘ldi. Yangi turdagি binolar me’morligining shakllanishiga hamda tez rivoj topishiga avvalgi me’morlikdagi usul va qoidalarga tayanildi. Movaraunnahr butun musulmon dunyosida din, fan, adabiyot kabi insoniyat jahhalari bilan barobarida shaharsozlikda va me’morlikda ham yetakchilik qilgan.

Turar uylarga misol tariqasida Varahshoh-(Buxora tevaragi)da topilgan uyni keltirish mumkin. Unda devorlarning pastki qismi g‘ishtdan, ustkichi paxsadan ishlangan. Uylarning o‘rtalarida hovli bo‘lib, atrofilari xonlardan tashkil topgan.

Masjid namoz o‘qiladigan joy bo‘lib, unda mehrob (Makka tarafini ko‘rsatuvchi tokcha), minbar (va’z qilinadigan qurilma va minora namozga chaqiriladigan qurilma) kabilardan iborat bo‘ladi. Masjidlar mahalla masjidi, jo’me yoki juma va namozgox turlariga bo‘linadi.

Garchand o‘tmish davrlarda ham pishiq g‘isht qo‘llanilgan bo‘lsada, bu davrdan e’tiboran u keng miqyosida qo‘llanildi. Pishiq g‘isht yapaloq shaklda bo‘lib bir muncha maydaroq (keyingi davrlarga nisbatan) o‘lchamlarga ega bo‘lgan. Ganch

qo'llanishi ham kengaydi. G'ishtning yapaloqligi uni devorda (yoki boshqa konstruksiyalarda) mustahkam o'rganishiga imkoniyat berdi. Ganch ham o'zining elastiklik qobiliyati bilan xarakterlanadi. Bu ikki jihat bilan ganch imoratlarning zilzilabardoshligini ta'minladi. Ravoq va gumbazlarining uchli qilib qurilishi ham zilzilabardoshlik bilan bog'liq. Uchli ravoq – gumbazlarga monand ravishda toqlar ham cho'qqili qilib, chiqaziladigan bo'ldi. Toq – gumbazli konstruksiyalar IX asrga kelib o'zining asosiy jihatlari bo'yicha mukammallahishib bo'ldi.

Me'moriy bezak ham o'zgardi. Oldingi davrdagi devoriy suratlar o'rnnini turli naqshlar egalladi. Jonli narsalarning tasvirlari deyarlik qo'llanilmaydi. Ayrim hollardagina hayvonlarning tasvirlari uchraydi. Bunga Samarcand Afrosiyobidagi saroyning ganchkor izorasi (devorning pastki qismi), Velovi karvon saroyida kirish peshtoqining qanosi (timpani) misol bo'la oladi.

Girih – murakkab xandasaviy naqsh bo'lib, turli-tuman ko'rinishlarda imoratlarning bezagida keng qo'llanildi. Nabotiy – (o'simliksimon) naqsh alohida yohud girix chiziqlarining oraliqlarida ishlataladi. Epigrafik (xattoyi) naqsh – yozuv ko'rinishidagi bezakdir. Ko'proq arabi yozuvning ko'fiy xatida bajariladi.

Me'moriy bezakda asosan ganch va keramik ashyo qo'llanilgan. Keramik bezak o'yma sopol tariqasida ishlatalgan. Mayda g'ishtlarni turli holatlarda terish natijasida xilma-xil naqsh hosil qilinib, yuqori darajadagi badiiy effektga erishilgan. Naqqosh ustalar yog'ochning ham imkoniyatlarini to'la ochib berishgan. Bizgacha saqlanib kelgan Iskandar mehrobi, Obburdon va Kurut yog'och o'ymakorligining yuksak namunalaridan hisoblanadi.

Bu davrda to'rt tayanchli xona me'moriy mavzusining rivoji Mox, Deggaron, Chor sutun masjidlarida o'z aksini topadi. Binolar kompozitsiyasida asosiy o'rinni markaziylilik egalladi. Inshootlarning tarhlari ko'proq murabba shakliga ega bo'ldi. Aksari markaziylilikni burchaklardagi burj (Termizdagi Qirqqiz saroyi) yoki guldstalar (Buxorodagi Somoniylar maqbarasi) kuchaytiradi. To'rt tomoni ayvonlar bilan o'ralgan, hovlili bino kompozitsiyasi avvalgi davrlardayoq (qal'ai qir saroyida, Termizdagi Zartepa biqarasida) qo'llanilgan bo'lsa hamki bu asrlarga kelib

inshootlarda (masalan, Belovul karvon saroyi, ayniqsa Dandakadagi masjid) hovlilar alohida, kuchli kompozitsion vazifasini o‘tay boshladi.

Marv atrofida qurilgan ko‘shklarda eng ilk o‘rta asrlardagi jihatlar saqlanib qoldi. G‘avr qal’adan shimoldagi Xaram Ko‘shk (IX asr) to‘g‘rito‘rtburchak (15 x 19 m) tarhga ega. Devorlari piltali, pastki qismi – sufasi nishabli sirtga ega bo‘lgan.

X asrdan mavjud bo‘lgan shaharlar aro inshootlaridan Toxiriya raboti ma’lum. Uning tarkibida karvonsaroy ham bo‘lgan.

Urganch – Volga bo‘yi savdo yo‘li bo‘ylab toshdan ishlangan karvonsaroylar, soqchilik qurilmalari (minoralari) va quduqlar qoldiqlari uchraydi. **Belovul karvon saroyi** hovlili, kiraverish peshtog‘i alohida ajratilgan ulug‘vor ko‘rinishga ega bo‘lgan inshootdir.

Dohistondagi **Sher kabir masjidi** (IX-X a.) – tuzilishi jihatidan juda sodda bo‘lib birgina xonadan iborat. Gumbaz bilan yopilgan. Mehrobi uch: katta, undagi o‘rta va o‘rtadagi kichik tokchalardan iborat. Katta tokcha davrapo‘ya shaklida, o‘rta tokcha oddiy – uchli ravoq va kichik tokcha Mag‘rib me’morligiga xos tokchasimon ravoq shakllarda ishlangan. Tokchasimon ravoq keyinchalik O‘rta Osiyoda qo‘llanilmagan.

Dondakadagi masjid (Seraxs va Marv shaharlari oralig‘ida, X asr) O‘rta Osiyodagi dastlabki hovlili mahobatli (monumental masjidlardan biri deb hisoblash mumkin).

Termizdagi **Chorsutun** masjidi ayvon tariqasida qurilgan bo‘lib, uning ikki tarafi – shimoliy va sharqiylar tomonlari ochiq. Qolgan ikki devor va o‘rtadagi 4 ustun asosiy yuk ko‘taruvchi konstruksiya vazifasini o‘taydi. Ochiq har tomonini ikkitadan tarhi dumaloq tayanch – ustunlar va ularning burchagida tarhi shakldor bo‘lgan tayanch belgilab turadi. Yopmaning asosiy og‘irligini o‘rtadagi to‘rt ustun ko‘tarib turadi. To‘rt – chor ustun deb atalishining sababi ham shundadir.

Afrasiyobda (Samarqandda) butunligicha saqlanmagan bo‘lsada IX-X asrlarga oid Shahristonda **Somoniylar saroyi** (Isfizor guzarida) va masjid qoldiqlari topilgan. Saroyning izorasi ajoyib ganchkor pargoriy girix bezatilgan edi. Masjid mehrobida

ham ganch qo‘llanilgan. Yon tomonlarida, qirralarida guldastalar ishlatilgan. Guldasta pastida ko‘zagi mavjud. Ganchga chiziqli naqsh berilgan.

Ulardan tashqari Afrasiyobda **gumbazli bino** qoldiqlari topilgan bo‘lib ular tadqiqotchilarga binoning dastlabki holatini grafik tiklash imkoniyatini berdi. Binoda ham gumbazli, ham ustun – to‘sini konstruksiya qo‘llanilgan. Bino ajoyib ganchkor bezaklarga ega bo‘lgan.

Tim qishlog‘idagi **Arab ota maqbarasi** hajmiy kompozitsiyaga ega bo‘lgan Somoniylar maqbarasidan farqli o‘laroq frontal kompozitsiyada bunyod etilgan. Uning kirish eshigi faqat bir tomonda tashkil etilgan. Arab ota maqbarasining sakkiz yonlik burchaklarida devorativ ustunchalar mavjud. Ustunchalar konstruktivlikni yo‘qotgan – pastda hech narsaga tayanmaydi. Gumbaz ostki konstruksiyani keyingi davrlarda tarqalgan muqarnaslarning nafaqat Movaraunnahrda, balki umuman jaxonda dastlabki namunasi deb hisoblash mumkin. Ilk masjidlar arxitekturasi shakllanishida Termizdagi Chor sutundan tashqari Buxorodagi Moh, Xazora qishlog‘idagi Deggaron nomli to‘rt ustunli masjidlar alohida rol o‘ynaydi.

Moh masjidi otashparastlik davrdagi Moh ibodatxonasini moslashtirish natijasida vujudga kelgan. Bino o‘rtasida to‘rt ustun mavjud. Ular masjidning ichki muhitiga markaziylilikni baxsh etadi. XI asrda masjidning kiraverish qismida qayta qurish ishlari olib borilgan. O‘tgan davr mobaynida masjid atrofi madaniy qatlama hisobiga anchagina ko‘tarilib qolgan. Masjid hozirgi vaqtida Mag‘oki attori nomi bilan ataladi. XVI asrda ham ta’mirlash ishlari olib borilgan. Sirkor qoplamalari o‘sha vaqtida paydo bo‘lgan.

Deggaron masjidi XI asrda Buxoro vohasining Xazora qishlog‘ida qurilgan. XX asr boshlari masjidning sharqiga ikki qator, janubiga bir qator ustunli ayvon qo‘shilgan, ko‘hna SHarqiy qismi qayta tiklangan. Masjid tashqaridan uncha ko‘rinishli bo‘lmasada, uning betakror fayzi ichida jamlangan.

Deggaron masjidi to‘rburchak tarhga ega. Devorlari pahsadan urilib, ular binoning ustki qismidan keladigan turtki kuchlarini yutishiga mo‘ljallab devorlarning ichki sathini tik, tashqisini qiyaroq qilib ishlangan. To‘rt ustunlarining oralig‘lariga

katta ravoqlar va har ustundan devorlarga ikkitadan kichik ravoqlar tashlangan. Buning natijasida masjidning ichki muhiti har biri gumbaz bilan yopilgan to‘qqiz bo‘lmaga ajratilgan. Obida ichining pastlarida (ravoqlarning lingasigacha) nimpushti, mayda (21x21x3 sm), tepalarida xiraroq, yirik (24x24x4 sm) g‘ishtlar ishlatilgan; ular ravoq lunjilarining pastida lo‘k (yotiq), tepalarida tik terilgan. Masjidning ayrim joylari suvalib, yoqimli bejirim sath hosil qiladi; ba’zan esa g‘ishtlar suvoqdan bo‘rtib turadi. Ustunlarning kursisi (bazasi) tik va lo‘k g‘ishtlardagi yunon bazasiga o‘xhash shaklda chiqarilgan. Har katta ravoqlarning lunjlarida uch jipslashgan tayoqchalarni eslatuvchi o‘nta (tomonlarida beshtadan) shakllar yopishgan. G‘arbiy va SHarqiy tomonlarda tayoqchalar kirraklik, shimoliy va janubiy ravoqlarda dumaloq shakllarga ega. Eng katta, markaziy gumbazning qalinligi pastda ikki g‘ishtli, pog‘ona oralab bir g‘ishtga o‘tadi. Yuqorida gumbaz tepaga sal cho‘chchayadi va dumaloq darcha bilan bitadi. Gumbazning pastida (janubdan) tuynuk bor.

Deggaron masjidining shimoliy va janubiy o‘rta bo‘lmalarining kichik ravoqlari tepasida uzoqdan sharafani eslatuvchi g‘isht terilmalari oraliqni qisqartiradi. Ular ikki pog‘onali bo‘lib, pasti tokchadan, yuqorisi qaldirg‘och dumidek ayri g‘ishtin shakllardan iborat. O‘rta bo‘lmalar (Sharqiysidagi mustasno) balxiy gumbaz bilan yopilgan. Shimoliy va Janubiy gumbazlarda ikkitadan tuynuk bo‘lib, hozir markaziy gumbazga yaqinlari urilgan. Bino g‘arbidagi ikki burchak bo‘lmalarining yuqori burchaklarida sodda, biroq, chiroyli g‘ishtni muqannas gajaklar (paruslar) bo‘lib, shakllari bo‘malarda biroz farqlanadi. Bu bo‘lmalar ham chuqur gumbaz bilan nihoyalangan. Sharq tomonni avvalgi, asl shakllari ta’mirdan so‘ng saqlanmagan. O‘rta bo‘lma kam uchraydigan qirralik gumbaz bilan, yondagilari boshqacha usulda yopilgan. Natijada bino ichining yaxlitligi bir muncha buzilgan.

Deggaron masjidining o‘lchamlari aniq va mavzutik tartiblarga bo‘ysunadi: masalan, katta ravoqning balandligi ustunlarning o‘q oraliqlariga keng, ustunlarning bo‘yi kichik ravoqlarning qadamiga teng va h.k. Masjidda, islom me’morligidan

avvalgi usullar qo'llanilganligi va yangi usullar izlanilganligi yaqqol ko'rindi. Bu va boshqa jihatlar Deggaron masjidini noyob yodgorliklar qatoriga qo'shadi.

Maqbaralar me'morlikdagi binolarning muhim tipi bo'lgan. Buxoroda IX-X asrlar chegarasida jaxon me'morligi shox asarlaridan bo'lgan **Somoniylar maqbarasi** bunyod bo'ldi. U markaziy kompozitsiyaga ega. Hajman kub va yarim sfera shakllaridan iborat. Kub pastda maqbara supasi bilan, tepada ravoqlar qatori bilan chegaralangan. Kubning o'rta qismida har tarafda kiraverish ravoqlari va burchaklarida guldastalar (botiq silindrlik shakl) joylashgan. Mayda g'ishtlarda ishlab chiqilgan. Gilam tariqasida bezak ham ekster'erda, ham intererda hosil bo'lgan. Konstruktiv jihatdan maqbara to'rt yonlik (kubning asosiy pastki qismi)-sakkiz yonlik (kubning yuqori qismi)-gumbaz tizimidan iborat. Sakkiz yonlik to'rtala tomonlarda devoriy ravoqlaridan tashkil topgan. Burchak ravoqlarini ichkaridan yarim ravoqlar tirab turadi. Sakkiz yonlik qirralarida g'ishtin ustunchalar qilingan. Ular gumbazning ichkariga kirib osilib turgan simlarini ko'tarib turadi. P.Zoxidovning taxlillari maqbara tarhi dinamik kvadrat qonuniyatlariga bo'y sunishini ko'rsatadi.

Karmanadagi **Mirsayid Baxrom maqbarasi** bir eshiklidir, ya'ni frontal kompozitsiyada qurilgan. Tarzdagi ravoqlarni atrofidan o'tgan yozuv xoshiyasi chegaralaydi. Ichki tuzilishida to'rt enlik sakkiz enlikdan aniq qilib ajratilgan. Sakkiz yonlik pastdan (poldan) boshlangan ustunlarga tayanadi.

XI-XIII ASR BOSHI ME'MORLIGI

Mahobatli inshootlar uchun XI-XIII asr boshida pishiq g'ishtdan oldingi davrga qaraganda yanada kengroq foydalanildi. Ko'p hollarda g'isht juftlab ishlatilgan. Ular oralig'ida kapalaksimon kiritmalarni qo'llash keng tarqalgan edi.

O'rta Osiyoda bu davrda dastlabki bor sirkor qoplamlar paydo bo'ldi. Sirlar shishasimon (kvarsli) moddadon ishlangan.

Gumbaz qurishda yangi yutuqlarga erishildi. Uning turlari ko'paydi. Gumbazlar konstruktiv va badiiy jihatlardan takomillashdi. Gumbazlar bir necha qobig'li ham

qilina boshlandi. Binolar yopmalari ichki (konstruktiv) va gardish yordamida balandga ko‘tarilgan tashqi (dekorativ) gumbazlar tizimi tariqasida ishlana boshlandi.

XI-XIII asr boshida shaharlarda qurilish miqyosining nihoyatda kengayishi ko‘pchilik binolarning kompozitsion yechimiga ham ta’sir ko‘rsatdi. IX-X asrlarda kompozitsiyada markaziylikdan frontallikka o‘tildi. Peshtoq imfatning hajmiy yechimida muhim tarkibiy qismga aylandi.

Me’moriy majmualar kompozitsiyada, avvalo masjidlar me’morligida vertikal (tik urg‘u) inshootlar-minoralar katta rol o‘ynay boshladи.

XI-XII asr boshi me’morligida naqsh ahamiyati kengaydi. Sopol, yog‘och va ganj o‘ymakorliklari ajoyib namunalari yaratildi.

XI-XII asr boshida O‘rta Osiyoda me’moriy maktablarning o‘ziga xos jihatlari kuchaydi. Bu ayniqsa son jihatdan bizgacha yaxshi etib kelgan maqbaralar me’morligida yaqqol kuzatiladi. O‘ziga xosliklar janubi-g‘arbiy (Shimoliy Xuroson), shimoli-g‘arbiy (Xorazm), Markaziy (Movaraunnahr), sharqiy (Farg‘ona) va shimoli-sharqiy (Qozog‘iston janubi va Qirg‘iziston shimoli) me’moriy maktablarida yorqinroq seziladi. Ular qurilgan inshootlarning hajmida (katta-kichikligida), yopmalarda, bezaklarning miqdorida, ma’lum badiiy vositalarning ahamiyatida namoyon bo‘ldi.

Turar uylar misoli sifatida Xorazmdagi Qavat qal’a atrofidagi dala hovlilarini keltirish mumkin. Ular bir necha xonalardan iborat bo‘lgan. Hovli atrofi devor bilan o‘ralgan. Hovlilarni satxida yoki uning yonida aksari kaptarhona deb nomlanadigan bolaxonali qurilmalar ajralib turgan. Kaptarhonalarni bezashda paxsa o‘ymakorligi yoki devoriy ustunlar qo‘llanilgan.

Qavat qal’ada nisbatan kichik oddiy hovlilar orasida tashqi tomoni 47 m ni tashkil etgan murabba (kvadrat) tarhli ko‘shk diqqatni tortadi. Kiraverish gumbazli darvoza xona bilan belgilangan. Ko‘shk bo‘laklarini qirrador mustahkamlab turadi. Ko‘shk ichidagi hovli atrofida turli xonalar bo‘lgan 20-ad., 223-b.).

Marv atrofidagi ikki qavatli paxsa ko'shk o'lchamlari kichikroq – 20 m dan salgina ortiqroqdir. Uning o'rtasidagi xona iki qavatli bo'lgan. Ikkinci qavatga ko'shk burchagidagi aylana zina yordamida chiqilgan (20-ad.b.).

Marvning **Shahriyor arkidagi saroy** (XI asr tashqi o'lchamlari: 45 x 39 m, hovlisi: 16 x 16 m) ham xom g'ishtdan va ikki qavatlidir. Hovli tomonlarining o'rtalarida "chuqur" ayvonlar kompozitsion o'qlarni belgilab turadi.

Termiz shoxlar saroyi shaharning shimoli-sharqida XI asrda qurilgan. Bo'ylama o'qda g'arbda kirish peshtoqi, sharqda asosiy ayvon-hovli tomonga ochiq zal qurilgan. Hovlisida katta xovuz bo'lgan. XII asrda devorlar ajoyib ganjkorlik bilan pardozlangan. XV arsda buzilib ketgan.

Xuttalon janubiy Tojikiston poytaxti **Xulbuk arkidagi saroy** (XI-XII) xom va pishiq g'ishtdan qurilgan edi. Termiz shoxlar saroyinikiga o'xshash yuqori saviyada bajarilgan ganjkorlikka ega bo'lgan.

Bu davrda rabod va karvon saroylar ko'plab qurilgan. Movaraunnahrning ikki muhim shaharlari Buxoro va Samarqand oralig'ida **Raboti malikda** olib borilgan tadqiqotlar, bu inshoot juda katta va bir necha hovlilardan tashkil topganligini va yuksak me'moriy saviyada qurilganligini ko'rsatdi.

Omul (hozirgi Chorjuy)-Xorazm yo'lida qurilgan **Doya xotin karvon saroyi** nisbatan yaxshi saqlangan. Tomonlari 50 m da ziyod bo'lgan murabba (kvadrat) tarhga ega. Hovlili to'rt ayvonlili kompozitsiyada barpo etilgan

Raboti Malik va Doya xotin karvon aroylarining asosiy o'qlarining har birida ham katta xonalar-zallar joylashgan. Ularning gumbazlari sakkiz tayanchga asoslangan bo'lgan. Bu avvalgi to'rt tayanchli zaldan iborat me'moriy mavzuning yangicha, takomillashgan ko'rinishidir.

Al Askar shahridagi (Marv vohasi) karvon saroyda (XI-XII a.) xonalar o'z vazifalariga (funksiyalariga) ko'ra guruxlargacha uyushtirilgan.

Marv – Omul yo'li bo'yidagi Axcha qal'a karvon saroy bir necha hovlilardan tashkil topgan.

Xorazm – Janubiy Turkmaniston – Eron yo‘lidagi O‘zbuyning qirg‘oqlarida saqlangan karvon saroylar o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lgan. Boshqa karvonsaroylarda ajratilib turgan. Ular qatoriga doira tarhli Oq Yayla va Talaxon ota karvon saroylar kiradi.

Bu davr inshoot turlaridan biri madrasalar anchagina qurilgan bo‘lsada (bu to‘g‘risida yozma manbaalarda ma’lumotlar bor), bizgacha saqlangan emas.

Hammomlar maishiy hayotda hamisha ham katta ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Nisadagi (XII a.) va Tarozdagi hammom qoldiqlari qadimshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Ikkisi ham devoriy naqshlarga ega bo‘lgan. Adabiyotda Marv va Buxoro hammomlari alohida ta’riflanadi.

Gumbazlar xovuzlar-sardobalar nafaqat karvonlarp yo‘lida, balki shaharlarning ichida ham qurilgan. Shahar sardobasi misoli tariqasida Marvdagi kulollar mahallasidagi sardobani ko‘rsatish mumkin .

XI-XIII asr boshi uch asosiy: jome, mahalla va namozgoh masjidlaridan so‘nggisi (namozgoh) ayrim namunalarigina bizgacha etib kelgan. Etib kelmagan jom’elar ko‘proq gumbazlar bilan yopilgan va to‘rt (yoki ikki) ayvonli kompozitsiyada barpo bo‘lgan mahalla, masjidlar ko‘proq yassi tomonli bo‘lgan deb faraz qilish mumkin. Masjidlarning ayrim unsurlari (ustunlar, mehrob va minoralar) bu davrdagi yuksak me’morligidan darak beradi.

Xiva jom’e (juma) masjidining qurilishini aksari XVIII asrga yo‘yilsa-da undagi 212 ustundan 25 tasi o‘yma bitiklariga qaraganda X-XII asrda yasalgandir. Bu ustunlar o‘zining ajoyib o‘yma islimiy, girix va xattoyi (epigrafik) naqshlarga ega.

Iskador qishlog‘i (Zarafshon vodiysi, Tojikiston) mehrobi ham yog‘ochdan ishlangan bo‘lib noyob naqshlar bilan bezatilgan.

Kurut qishlog‘i (Tojikiston) topilgan yog‘och me’moriy unsurlar u davrning yetuk o‘ymakorligidan darak beradi.

Minoralar ustivor vertikal badiiy unsur sifatida shahar sharpasida (siluetida) alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Aksari minoralar uch: sakkiz qirralik pastki, tepaga

qarab ingichkalashib ketadigan asosiy o‘rta va tepadagi azon aytildigan qafasa qismlaridan iborat bo‘lgan.

To‘qmoq yaqinidagi asl nomi aniqlanmagan Burona shahari masjidining minorasi X-XI asrlarga mansubdir. Minora 21,6 m gacha saqlangan. Dastlabki bo‘yi ikki barobar uzun bo‘lgan deb taxlil qilish mumkin.

Termizdagি Chorsutun masjidi minorasining (1032 y.) o‘zagi boshqa minoralardan farqli o‘laroq silindrik shaklga ega bo‘lgan.

O‘zgandagi minora XI asr g‘ishtin bezak bilan pardozlangan, 17 m gacha saqlangan. Qafasasi pastroq satxda XX asrda qurilgan. Dastlabki balandligi 40 m atrofida bo‘lgan deb taxmin qilinadi.

Jarqo‘rg‘ondagi minora o‘zagi sirtidagi 16 g‘arovlari (yarim silindrik shakllari) lo‘k va tik terilgan g‘ishtlardan tashkil topgan. Yozuvlar minora XII asrda (1108-1109 yil) Muxammad Seraxsiy o‘g‘li usta (me’mor) Ali tomonidan qurilganligi to‘g‘risida guvohlik beradi.

Mashxadi Misriyon (Dog‘iston) minoralarining biri XII asr boshida (1102 yil), ikkinchisi XIII asr boshida barpo bo‘lgan. Ikkisining ham g‘ishtin pardozi o‘zakning tepe qismiga joylashtirilgan edi.

Buxorodagi **Kalon minorasi** (1123 yil) Poyi Kalon me’moriy majmuasining dastlabki qurilgan inshootidir. Uning balandligi 45,6 m bo‘lib shahar sharpasida (siluetida) ham alohida rol o‘ynaydi. Mustahkam ko‘rinishga ega. Unda qo‘llanishi keyinchalik me’moriy rusumga aylangan sirkor qoplamlar uchraydi.

Kalon minorasining qiyofasi undan 70 yilcha keyin (1196-1197 yillar) qurilgan Vobkentdagи minora qiyofasiga ta’sir ko‘rsatgan. Vobkent minorasining balandligi (38,7 m) Kalonnikiga yaqin bo‘lgan holda eni (diametri) Kalonnikidan sal kam ikki barobar kichik bo‘lgani u qomatliroq ko‘rinadi.

Mazkur davr me’morligi oldingi asrlarda bunyod bo‘lgan jome va mahalla masjidlarini kengaytirish va qayta qurish bilan ham xarakterlanadi. Chunonchi O‘rta Osiyodagi ilk masjidlardan biri bo‘lgan Dandakandagi masjidning g‘arbiy qicmi XI asr oxirida yoki XII asr boshida qayta quriladi, yangi ajoyib xandasiy, nabotiy va

ko‘fiy yozuvdagi xattoi o‘yma ganchkorliklar bilan bezaladi. X asrga oid bo‘lgan Buxorodagi Mox masjidi ikki karra jiddiy o‘zgartirishlarga uchragan. Birinchi bunday o‘zgarish XII asrda bo‘lib o‘tgan. Bu davrdagi o‘zgarishlardan janubiy peshtoq ham guvohlik beradi. (ikkinchi o‘zgarish XVI asrga mansubdir). Masjidning keyingi tarqalgan nomi Mog‘oki Attoriydir.

XI-XII asrlarga mansub namozgoh masjidlaridan Marvdagi Talxoton bobo nomli yodgorligini va Buxoro namozgohini zikr etish zarurdir.

Talxoton bobo namozgohi nisbatan kichik frontal kompozitsiyada barpo bo‘lgan inshootdir. G‘arbiy devorining plastikasini to‘rt sayoz tokcha belgilab beradi. Namozgoh tarhda uch qismga bo‘lingan. O‘rtadagi qismi katta gumbaz bilan yopilgan. Sakkiz yonlikning tepasidagi bag‘allar o‘yiq bo‘li, gumbaziningsh pastki qismida uning qalinligi hisobidan chiqarilgan. O‘rtadagi katta gumbazli xonaning yonlaridan yo‘laksimon qismlar to‘rtta (har yonida ikkitadan) balxiy gumbazlar bilan yopilgan.

Buxoro namozgohi dastlab, XII asrda vujudga kelgan. U paytda bo‘rtiq turli bezaklar bilan ziynatlangan, o‘rtasini muqarnasli mehrob egallangan devordangina iborat bo‘lgan. Keyinchalik XVI asrda devor kengaytiriladi, oldiga uch gumbazli,minbarli imorat tushadi. Buxoro namozgohi ikki tarixiy XII-XVI asrlarga mansub qatlamlarga ega bo‘lgan me’moriy yodgorlikdir.

XIII ASR O’RTASI - XV ASR ARXITEKTURASI

Rivojlangan o’rta asrlar arxitekturasi qaror topgan dastlabki davrida uch muhim bosqich XIII asr o’rtasi- XIV asrning 10-60 yillari, XIV asrning 70 yillaridan 1405 yilgacha (Amir Temur davri) va 1405 yildan XV asrning oxirigacha (Temuriylar davri) bosqichlarini ajratilishi lozim.

Qisqa, 1220-1221 yillar davomida O’rta Osiyo mo‘g‘ullar istilosiga natijasida vayronagarchilikka uchragan.

1224 yildan Qashg‘ar Yettisuv va Movarounnahr Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyg‘a ulusi hisoblangan. Ulus Chig‘atoy vafotidan so‘ng Movarounnahr Botuxonga qaram bo‘lgan. Chig‘atoylar hokimiyatini (1261-65 yillarda) Olg‘uxon qayta tiklagan. Uning vorislari – Muborakshoh va Baroqxon mahalliy aholi bilan yaqinlashish maqsadida islom diniga o‘tganlar. 1266 yilda xon qarorgohi Yettisuvdan Ohangaron ko‘chirilgan.

XIII asr o’rtasi – XIV asr o’rtasi davrida arxitektura asta-sekinlik bilan yangicha tiklandi. Amir Temur zamoni nafaqat O’rta Osiyo, balki O’rta Sharq arxitekturasining keskin yuksalish davri bo‘ldi. Temuriylar vaqtida Amir Temur vaqtidagi yutuqlar mustahkamlandi, ayni zamonda yangi jihatlar bilan boyidi.

XIV - XV ASRLAR SHAHARSOZLIGI

XIII asrning 20-yillari boshida ketma-ket Buxoro, Samarqand, Termiz, Marv, Urganch hozirgi nomi Ko‘hna Urganch shaharlari harobalarga aylantirildi.

Baroqxon xukronlik qilgan davrdan Chingiziyardan bo‘lgan Xaydu farmoniga binoan birmuncha shaharsozlik ishlari bajariladi. Chunonchi Mas’udbek tomonidan Buxoro qayta tiklandi. Farg‘ona vodiysida Andijon shahari barpo etiladi. Kebakxon hukmronligi vaqtida esa (1318-26 yy.) Nasaf yaqinida Qarshi shahariga asos solindi. 1370 yilda Movarounnahrda Amir Temur hokimiyati o‘rnatishi bilan Chig‘atoy ulusi barxam topdi.

Urganch shahri vayronagarliklari XIV asr boshlariga kelib nafaqat bartaraf etdi, balki, istilodan avvalgi holatga ham qaoaganda shimol tomoniga kengayib

yaxshilandi. U davrdan karvon saroy vayronasi va Qutlug‘ Temur masjidining minorasi saqlanib qolgan. Masjid shaharda markaziy o‘rinni egallaganini, minora esa masjidga shimoli-sharqdan tutashgan bo‘lgani ma’lum. Shahar qiyofasini tuzishda imoratlarning sirkor qoplamlari katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ibn Batuta (XIV asming 30-yillari) shahar ko‘chalarining, bozorlarining, imoratlarining go‘zalligi to‘g‘risida guvohlik bergen. Sayyoh shahardagi Qutlug‘ Temur madrsasini, jom’eni, To‘rbekaxonim (Qutlug‘ Temur rafiqasi) xonaqohini, shifoxonani, Najmuddin Kubro maqbarasini alohida ta’kidlaydi.

XIV asr o‘rtasida So‘filar sulolasiga e’tibori o‘sgan bir vaqtida Xiva va Kot (Shabboz) shaharlarning mavqeい yuqoriroq bo‘lgan. Bu davr me’morligidan Xivadagi Said Alouddin maqbarasi va ayniqsa uning hamda Shabbozdagi Said Abbos sag‘analari darak beradi. Temuriylar davrida janubiy Xorazm shaharlari - Xiva, Xazorasp, Xonqa shaharlari ham rivoj topgan.

Keyinchalik keng qamrovli shaharsozlik ishlarini nafaqat Amir Temur, balki uning o‘g‘li Shoxruh ham olib borganligi ma’lum. 1370 yilda Amir Temur poytaxt shahar sifatida Samarqandni belgilagandan, keyin ham Kesh viloyatini bosh shahri Shahrisabzga o‘z e’tiborini susaytirmadi. XIV-XV asrlardayoq Shahrisabz yonidagi Kitob o‘rnida joylashgan qadimgi Kesh u bilan maydon jihatidan bog‘lanmagan edi. SHosh viloyatidagi qadimgi Qanhada bu davrlarda olib borilgan katta qayta qurish ishlaridan so‘ng shahar uning jonkuyar nomi bilan Shoxruxiya deb atala boshlandi.

Afrosiyob (Samarqand)ni suv bilan ta’minlab turgan inshoot-Jo‘yi Arzis istilo davrida buzilgandan keyin, shahar janubga, pastga ko‘chgan va asosan ikki: qal’a va xisordan iborat bo‘lgan. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng Bolo hisorda hayot so‘ndi. **Samarqand** pastga, janubga ko‘chdi. 1370 yilda shahar qo‘rg‘on devor bilan o‘raladi. G‘arb tarafida qal’a joylashgan bo‘lib u ham alohida devor bilan o‘ralgan edi. Natijada g‘arbda ikki qator devor hosil bo‘lgan. Shahar devorlarida olti darvozasi bo‘lgan. Ular soat millari harakati bo‘yicha joylashuvi tartibida Shayxzoda, Ohanin, Feruza, So‘zangaron, Korizgil va Chorsu deb nomlangan. Shimol – janub yo‘nalishidagi ko‘cha shaharda asosiy bo‘lib uning o‘rtasi Registon maydoni bilan

belgilangan. Maydondan Ohanin darvozasigacha o‘tgan savdo ko‘chasining ustini Amir Temur gumbazlar bilan yoptirgan edi. Shahar tashqarisida ham u bir necha qishloqlar qurdirib ularga jahonning yirik shaharlari – Forish (Parij), Bag‘dod nomlarini berdi.

O‘ndan ortiq chorbog‘lar (mas.: Bog‘i Shamol, Bog‘i Baland, Bog‘i Dilkusho kabi)lar tashkil bo‘ldi. “Bobirnom”da Temurning barpo etgan shunday bog‘lardan biri – Bog‘i Dilkushodan Feruza darvozasigacha bo‘lgan masofada ikki tarafiga teraklar ekilgan hiyobon to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Asarda Ulug‘bekning bog‘lari haqida quyidagilar deyilgan: “Yana pushtai Ko‘hakning domanasida g‘arb sari bog‘e solibtur, Bog‘i Maydonga mavsum. Bu bog‘ning o‘rtasida bir oliv imorat qilibtur. Chilsutun derlar, du oshyona, sutunlari tamom toshdin. O‘rtasi chordara uydur. Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibtur. Bu imorattin pushtai Ko‘hak sari domanada yana bir bog‘cha solibtur, anda bir ulug‘ ayvon imorat qilibtur, ayvonnинг ichida bir ulug‘ tosh taxt qo‘yubtur. Ushbu bog‘chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chinniy, Chinniyxona derlar.”

Afrosiyob (Bolohisor)ning janubiyo yonbag‘ri deyarlik o‘n ikki asr mobaynida Qusam ibn Abbos qabrida yonida chiziqli kompozitsiyada Shohizinda majmuasi barpo bo‘lgan; turli qurilma (asosan maqbara)lar uch chortoq atrofida uyushgan.

Shahrisabz shaharining qadimgi qismi XIV va XIX asrlarda qurilgan qo‘rg‘on devorlar qoldiqlari bilan chegaralangan. Tarixan shahar maydoni uning janubida qo‘rg‘on devorlari ichkariga qarab 450 m surilgani hisobiga kamaygan. Shahrisabzda 1378-1379 yillarda Temur katta obodonlashtirish ishlari boshlanganda, shahar hisor dastlab to‘rt darvozali paxsa qo‘rg‘on devor bilan o‘ralgan edi. Tashqi tarafdan devor bo‘ylab xandaq bo‘lib, ustidan ko‘tarma ko‘prik orqali o‘tilgan. XIV asr oxirlarida Temur Xorazm, Ozarbayjon, Eronga qilgan yurishlaridan keyin u mamlakatlardan keltirilgan va mahalliy ustalar Oq saroy, Temur avlodining maqbarasi – Dorus Siyodat hamda Dorut Tilovat madrasasi quriladi. Ular O‘rta Osiyodagi dastlabki ulkan inshootlardan edi. Bu vaqtida Shahrisabz Sharqda qadimdan ma’lum bo‘lgan, tekis maydonga mo‘ljallangan va kunga qaratib orientatsiyalangan. Bosh ko‘chalari

chorraxada kesishgan, tarhi to‘g‘ri to‘rtburchakli bo‘lgan. Taxmin bo‘yicha, bu an’anaviy sxema asosida koinot tuzilishi to‘g‘risida tushuncha yotib, uning ramziy modeli shahar tarhida mujassam bo‘lgan. Bunday to‘g‘rito‘rtburchak shaklli shaharlar o‘rta asrlarda juda ko‘p bo‘lgan. O‘zbekistonda Shahrisabz shahridan tashqari Buxoro, Xiva shaharlari, xorijda Xirot va boshqa shaharlar misol bo‘la oladi.

Shahar tomonlari 770 x 1730 m bo‘lib, qo‘rg‘on devorlarining perimetri 5 km masofani tashkil etgan. Chorraxada hozirdagi bozor joylashgan edi. Jashubdan shimolga bosh ko‘cha o‘tib, u janubdagi Charmgar darvozasi bilan shimoldagi Ark (yoki Kitob) darvozasini shaharning o‘rtasidan to‘g‘ri o‘tib birlashtirgan. Ko‘chaning shimoliy bo‘lagi esa katta burchak ostida yo‘nalib shahar devorining o‘rtasidan chetga taqalgan edi. G‘arbdagi Qorixona darvozasidan sharqdagi Kunchiqar darvozasiga qarab ketgan to‘g‘ri ko‘cha vaqt o‘tishi bilan ko‘p tirsakli shaklga ega bo‘lib ketgan. Asosiy ko‘chalar chorrahasi Chorsu binosi bilan belgilangan. Shaharning shimoli-g‘arbiy choragida Amir Temur ulan inshoot – Oq saroy qurdirgan edi. Uning oldida Registon maydoni bo‘lgan. Abdullaxon davrida ham bu yerlarda ark bo‘lgan edi. Shaharning janubiy yarmida Dorus Siyodat va Dorut Tilovat majmualari barpo etilgan.

Toshkent shahrida XIV asr oxiri - XV asrga kelib uning qo‘rg‘on devori ta’mirlanadi. Shahar ichida va atrofida monumental inshootlar quriladi, arxitekturaviy majmualar paydo bo‘ladi. Zangi ota qishlog‘idagi Zangi ota va Ambar bibi maqbaralari, Ko‘kcha mavzusidagi Zaynuddin buva maqbarasi, Chorsudagi Xo‘ja Ahror madrasasi (saqlanmagan) va Jome’ (Matjome’) masjidi, Maxsido‘zlik ko‘chasidagi Pushti hammom, Shayhontohurdagi Shayx Xovand Tahur maqbarasi, Yunusxon xonaqohi shular jumlasidandur.

XIII ASR O'RTASI - XIV ASR O'RTASI ME'MORLIGI

XIII asr o'rtasi - XIV asrning boshi va o'rtasida me'morlik, oldingi vayronagarchilikdan so'ng yangi, avvalgiga o'xshamagan sifatlarda tiklandi. Me'morlar markaziy gumbaz og'irligini yon tomonlaridagi konstruksiyalarga muvozananatli holda taqsimlaydigan xonalar guruhini tashkil etish muammosini hal etdilar.

Me'morlikda asosiy qurilish ashyosi sifatida pishiq g'isht qo'llanilgan, bezak turlari o'zgargan. Ayrim hollarda istilodan avvalgi qurilish va bezash uslublari saqlanib qolgan. Xom va pishiq g'isht o'lchamlari o'zaro yaqinlashadi. Aksar gumbazlarning diametri 12 metrdan oshmaydi. Gumbaz ostki konstruksiya sifatida yarimsfera, yacheykasimon (konsol tariqasidagi g'ishtlar termasi) va boshqa shakllar qo'llanildi. Ikki: tashqi va ichki gumbazlar keng ishlatiladi. Tashqi gumbazning 16 yoki 12 yonlarga ega bo'lgan gardish muammosi hal etildi. kelib. (49-ad., 258 va keyingi betlar).

Bezakda sirli qoplamlarni keng tadbiq etish masalalari hal etildi. Sirli qoplamlarni, umuman bezak qoplamlarni tasniflashda Grajdankinaning tasnifiga tayanish maqsadga muvofiqdir. XIII asr o'rtasi – XIV asr o'rtasidagi me'moriy mакtablar ichida Xorazm yetakchilik qilgan.

XIII- XIV asrlar me'morligida Ko'xna Urganch mavqeい baland bo'lib, uning xarakterli jihatlari minora to'rt xonadan iborat bo'lgan Najmiddin Kubro maqbarasi va To'ra beka xonim maqbarasi hamda Ostonadagi Shayx Muxtor Vali maqbarasi kabi binolarda namoyon bo'ldi.

Norinjon bobo maqbarasining gumbaz ostki konstruksiyasi Arab ota maqbarasinkiga o'xshashdir. Norinjon maqbarasida ham ikki pog'onali, uch bo'lakli (uch lonastli) ravoq shakli (muqarnas qo'llanilgan)

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI ME'MORLIGI

Amir Temur davri XIV asrning 60- yillari-1405 yil oralig‘idagi vaqtni o‘z ichiga oladi. Temuriylar davri bosqichidagi me’morlikda Ulug‘bek (XV-asrning 1- yarmi) va Abu Sayid (XV asrning2- yarmi) vaqtlarini farqlasa bo‘ladi.

Amir Temur davri arxitekturasi eng yuksalgan arxitektura bo‘lib, nihoyatda ulug‘vorligi, bezakliligi bilan xarakterlanadi. Unda mahalliy arxitektura yutuqlari O‘rta va Yaqin Sharq arxitektura tajribasi bilan sintezlashdi. Natijada yangicha arxzitektura vujudga keldi.

Amir Temur davridagi me’morlik uslub jihatidan oldingidagidan ancha farqlanib, uni o‘sha davrdayoq zamondoshlar, jumladan Sharofiddin al-Yazdiy tomonidan “yangi uslub” ibora orqali e’tirof etishgan edi. “Yangi uslub” uchun o‘ta maxobatlilik, serbezaklilik kabi jihatlar xarakterli edi.

Ulug‘bek davri arxitekturasida inshootlar nisbatan kichikroq bo‘lganligi, bezaklarning hajmlarga mosliligi – arxitektonikaviyligi, ilmiy – ma’rifiy inshootlarga e’tibor kuchayganligi bilan taynlanadi. Asr 2-yarmisida me’morlikda o‘zaro kesishgan ravoqlarga tayangan gumbazlar keng tarqaldi. Temur va temuriylar me’morligi jihatlari ko‘proq poytaxt Samarqand yodgorliklarida o‘z aksini topgan.

Amir Temur davrida Shahrisabzdek yirik binolar barpo bo‘di. Uchtasi mashhur.

Birinchisi – dastlab to‘rt qavatli, hovlili bo‘lgan hozir faqat kirish peshtog‘ining ikki yon tomon(pillapoya)larigina saqlangan Oq saroy;

Ikkinchisi – tarhi to‘qqiz bo‘laklardan tashkil topgan va hozir peshtog‘ining bir tomoni Hazrati Imom maqbarasi nomi bilan ataladigan va Jaxongirni dafn etish uchun mo‘ljallangan deb hisoblanadigan tagxona (lahad)dan iborat qismlari saqlangan Dorus-Siyodat bino-majmuasi;

Uchinchisi – tarkibiga Ko‘k Gumbaz jome masjidi, Shamsiddin Kulol va Gumbazi Saydon maqbaralari kirgan Dorut-Tilovat majmuasi(inshooti).

Ulug‘bek podshoxlik qilgan vaqtida ilm-fan beqiyos darajada yuksaldi. U fan rivojini davlat siyosatining yetakchi yo‘nalishiga aylantirildi. Dastlabki qurdirgan Buxorodagi madrasanining darvozasiga “Talabul ilma farizatun alo kulli muslimin va

muslimina”, ya’ni ilm olish har muslim va muslima uchun farz deyilgan hadisni bitib qo‘yilishi xarakterlidir.

Ulug‘bekning jahon faniga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Samarqand taklif etilgan olimlardan biri G‘iyosiddin Qoshiy arab tilini mukammal bilgan, mantiq, fiqh, adabiyot, musiqa va ayniqsa riyozat hamda nujum bilimdoni edi. Munajjimlik hisoblarini hayolan, qog‘oz-qalam siz bajarganki, zamondoshlaridan xech kim unday qila olmagan.

Ulug‘bek rahbarligiga tuzilgan “Ziji Kuragoniy” o‘zining nihoyatida aniqligi bilan ham sharqda, G‘arbda shuhrat topadi va necha asr davomida amaliy dastur sifatida qo‘lanildi.

G‘iyosiddin Koshiyning “Miftog‘ al-xusnab fil-hisob” kitobida bino va imoratlarni o‘lchashga bag‘ishlashgan. Uch bo‘limdan iborat. Kitobda 1-bo‘lim toq va ravvoqlarning o‘lchamlariga, 2-bo‘lim gumbazlarni o‘lchash tartibiga, 3-bo‘lim muqarnas sirtlarini o‘lchashga bag‘ishlangan. Kitobning oxirigi bo‘limida miqyos – modul to‘g‘risida gapiriladi. Koshiy aylananing diametriga bo‘lgan nisbatiga 17 xonalik qiymatini ham topgan. Birinchi bo‘lib o‘nlik kasrlarini ilmiy ishlariga tadbiq qilgan.

O‘rta asrlardagi nazariy asrlardan yana biri “Irshod az-Ziroa” risolasi bo‘lib, u bog‘chilik san’atiga, xususan chorborg‘lar tashkil qilish masalalariga bag‘ishlangan Temuriy va temuriylar davriga oid qimmatli ma’lumotlarni Bobur keltirgan.

Ulug‘bek bog‘lari to‘g‘risida gapirib “Boburnoma” dan quyidagilar yozilgan: “Yana pushtai Ko‘hakning domanasida g‘arb sari bog‘e solibtur, Bog‘i maydonga mavsum. Bu bog‘ning o‘rtasida oliy imorat qilibtur. Chilsutun dorlar, sutunlari tomom toshdim... Yuqoriga oshiyoning to‘rt tarafi ayvondir, sutunlari toshdin. O‘rtasi chordara uydur. Imorat kursisini tomom toshdin farsh qilibturlar. Bu imoratning pushotai Ko‘hak sari damonada yana bir bog‘ga solibtur, ayvonning ichida bir ulug‘ tosh taxt qo‘yibtur, ushbu bog‘chada yana bir chordara solibdur, izorasi tamom chinni, “Chinnixona” derlar”.

Samarqandning shimoliy tarafga ketadigan hozirgi Toshkent ko‘chasida qo‘sh tariqasida bunyod etilgan. Bibixonim majmuasi kiraverish peshtog‘i alohida ajratilgan hovlili, to‘rt ayvonli kompozitsiyasida qurilgan Amir temur jomesi va qarshisidagi madrasadan tashkil topgan.

U Amir Temurning Samarqanddagi eng yirik qurilishlaridandir. Ko‘pgina adabiyotlarda jome’ afsonalarga tayanilgan xolda Bibixonim - Saroymulkxonim nomi bilan atalalib kelingan. Xaqiqat yuzasidan olganda Amir Temur nomi bilan atash maqsadga muvofiqdir.

Amir Temur jome’si o‘zining nihoyatda ulug‘vorligi, salobatligi, serbezakligi bilan davr me’morligining yorqin namunasidir. Jome’ yirik o‘lchamlarda barpo etilgan. Bo‘ylama o‘q bo‘yicha hashamatli peshtoq va katta “Katta masjid” deb ataluvchi hajmlar joylashgan. Ko‘ndalangi o‘jni “Kichik masjid”larning hajmlari belgilangan. Inshootning zikr qilingan qismlariga qaraganda boshqa, burchak qismlari nisbatan pastroq. Ularning yopmasi ustunlarga tayangan gumbazlardan iborat.

Bibixonim madrasasi Jome’ning kompozitsiyasiga bo‘ysundirilgan xolda tashkil etilgan. Masjidga qaragnda kichikroq. U ham hovlili tizimga ega. Madrasa tarkibiga Saroymulkxonimning maqbarasi kirgan.

Amir Temur davridagi memorial me’morlikning yorqin namunasi Muhammad Sulton Go‘ri Amir majmuasidir. Temurning vorisi qilib tayinlangan Muhammad Sultonning vafotidan keyin uning xotirasiga majmua quriladi. Majmuaning tarkibiga uch asosiy inshoot- maqbara, xonaqoh va madrasa kirgan. Ular chog‘roq maydon atrofining uch tomonlarida joylashtirilgan edi.

Maqbaraga Muhammad Sultondan keyin Temurning o‘zi, o‘g‘illari, Ulug‘bek dafn etilgandan so‘ng inshoot Go‘ri Amir nomini olgan. Maqbaraga kiraverish dastlab maydonchadan tashkil etilgan edi. Keyinchalik, Ulug‘bek davridagi qayta qurish chog‘ida asosiy eshik oldingisiga nisbatan yon tarafdan tashkil etilgan. Go‘ri Amir o‘zining tarhiy qiymati, yuksak badiy – me’moriy sifatlari: xushbichimligi, juda

boy bezaklari, bu bezaklarning hajm sathlariga mosligi – tektonikaviyliги bilan noyob obidalardan hisoblanadi.

Xonaqoh ham maqbara kabi gumbaz bilan yopilgpn edi. Madrasaning to‘rtinchi tomoni ham devor bilan o‘ralib uning o‘rtasidan kiraverishi alohida peshtoq bilan ajratilgan. Maydonning to‘rtta burchagida minoralar qad ko‘tarib turgan edi. Xonaqoh va madrasa buzilib ketgan. Peshtoq va maqbara saqlangan.

Muhammad Sulton majmuasidan farqli o‘larоq **Shohi Zinda** majmuasi (aniqrog‘i – me’moriy majmular ansamblи) boshqa tiynatga ega. U chiziqli kompozitsiyada bo‘lib hozirgi vaqtda shimol-janub yo‘nalishidagi usti ochiq rahrav (koridor) negizida tashkil etilgan. Majmuuning dastlabki, shakllanish jarayonida g‘arb-sharq yo‘nalishi bo‘yicha o‘tgan. Dastlabki va hozirgi yo‘nalishlarning kesishgan joyi hovlisifat maydoncha bilan belgilangan. Maydonchaning janubi – sharqida majmua paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan Qusam ibn Abbas qabri va unga tegishli bo‘lgan binolar uyushmasi joylashgan.

Shohi zindaning Bolo hisor yon bag‘rida vujudga kelishi uning kompozitsiyasini rel’ef (past-balандlik)ning badiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish asosida tashkil qilishga olib keldi. Me’moriy majmua sal kam ming yil davr davomida shakllanib kelgan. Biroq undagi binolarning ko‘philigi XIV-XV asrlarda bunyod etilgan.

Shohi zindaning ja’mi inshootlari kompozitsion jihatidan uch binolar guruhiга ajraladi. Har bir guruhni chortoqlar uyushtirib turadi. Pastki, 1-chortoq majmuaga kiraverishdagi binolarni jamlagan. Yuqoridagi 2- chortoqqa pastdan pillapoya (zina) orqali chiqiladi. 3- chortoq ham yuqorida bo‘lib, u majmua negizini tashkil qiluvchi Qusam ibn Abbas maqbarasini va unga tutash bo‘lgan boshqa inshootlarni uyushtiradi.

Samarqand hisorining geometrik markazida uning jamoat markazi-Registon maydoni vujudga kelgan. Maydonning hayotida ikki: Ulug‘bek (XV asr) va Yalangto‘sh Bahodir (XVII asr) davrlaridagi holatlarni ajratish joiz. Registonning dastlabki inshootlari (madrasa, xonaqoh, karvon saroy, hammom) Ulug‘bek

tomonidan qurdirilgan bo‘lib, majmuaga bulardan tashqari Ko‘kaldosh jome masjidi va yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatilgan Muqatta masjidi ham kirgan.

Maydonning - Ulug‘bekning davridagi holati to‘g‘risida “Bobirnoma” quyidagilarni ma’lum qiladi: “Ulug‘bek Mirzoning imoratlaridin Samarqand qal’asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gumbazi bisyor ulug‘ gumbazdur, olamda oncha ulug‘ gumbaz yo‘q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibdur. Mirzo hammomiga mashhurdir, har nav’ toshlardin farshlar qilibdur. Xuroson va Samarqandda oncha hammom ma’lum emaskim, bo‘lgay. Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibtur, tamom devorlari va sahfi ushbu yo‘sunluqtur. Bu masjidning qiblasi bila madrasa qiblasining orasida bisyor tafovuttur. G‘olibo bu masjid qiblasining samti munajjim tariyihi bila amal qiibturlar”.

Yana tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, maydondan shimoli-sharqqa, shaharning asosiy ko‘chalari taraladigan nuqtada ko‘laxfurushlar timi bo‘lgan. Keyinchalik uning o‘rnida Chorsu binosi bunyod bo‘lgan.

Ulug‘bek mashhur “Ziji Go‘ragoniy” jadvalini tuzish uchun – rasadxona qurilgan. Rasadxona bunyod bo‘lishiga G‘iyosiddin Koshiy mutasaddilik qilgan. Ulug‘bekning ustozи Qozizoda Rumiy ham o‘z maslaxatlari bilan qatnashgan. P.Zohidov fikriga ko‘ra, rasadxonani Buxorodagi Ulug‘bek madrasasini me’mori ustod Ismoil qurgan bo‘lishi mumkin. Rasadxonaning dastlabki qiyofasi tadqiqotchilar tomonidan turlicha tasavvur qilinadi.

XV asrda Samarqandda tashidan bir muncha sodda, bezaksiz Ruxobod maqbarasi barpo etildi. Tashqi gumbazi saqlanmagan. Inter’eridagi bezak qoldiqlari avvalgi ajoyib hashamadidan darak beradi.

Samarqandda uch inshootda: Cho‘pon ota, Oq saroy maqbaralarida hamda Ishratxona nomli yodgorlikda chor linga (“o‘zaro kesishgan ravoqlar”) konstruksiyasi qo‘llaniligan. Taxminlarga ko‘ra, O‘zbekiston hududida chor linga birinchi bor qo‘llanilgan bino – Cho‘pon ota maqbarasidir.

Ishratxona yodgorligining dastlabki funksiyasi to‘g‘risida turli taxminlar bor. Uni P.Zohidov Bog‘i Dilkusho saroyi, G.Pugachenkova esa maqbara deb hisoblaydi.

Samarqanddagi Oq saroy yodgorligining anchagina qismi buzilib ketgan. Ichidagi nafis naqsh qoldiqlari me’morning yuksak mahoratidan darak berib turadi.

ShahrisabzdanOq saroyinshootiga 1380 yilda asos solingan. Bir vaqtlar to‘rt qavatli bo‘lgan bu saroydan kirish peshtog‘ining ikki ayrim qoldiqlarigina saqlangan. Ular Temur davri uchun xarakterli bo‘lgan shakl – shamoyilda bajarilgan. Yodgorlik tomoshabinni nafaqat o‘zining ulkan masshtabi bilan, balki peshtoq pillapoyalarida saqlangan naqshlar bilan ham hayratga soladi. Peshtoq ravog‘i O‘rta Osiyoda eng ulkanidir. Ravoq qadami (pillapoyalarining oralig‘i) 22.5 metrni tashkil qiladi. Peshtoq pillapoyalari pastda qirrali bo‘lgan minoralar (guldastalar) bilan cheklangan. Peshtoq balandligi hozir 38 metrga teng. Dastlab peshtoq tepasida ravotak (ravoqlar qatori) bo‘lgan.

XIV asr oxirlarida Amir Temur Shahrisabzning janubi-g‘arbida Dorus Siyodat va janubi-sharqida Dorut Tilovat bilan yagona, ulkan majmua tashkil qilgan. Dorus Siyodat iborasi “sayidlilik, ulug‘lik uyi” ma’nosini beradi. Hozirgacha Dorus Siyodatdan Hazrati imom maqbarasi va undan janubi-sharqda, 35 m narida yer ostidagi go‘rxona saqlangan. Dorus Siyodat inshootining qurilishi 1376 yilda, Temurning to‘ng‘ich o‘g‘li Jahongir vafotidan so‘ng boshlandi. Avval Hazrati imom nomi bilan tanilgan maqbara mustaqil ravishda quriladi. U bitgach Temur o‘zi va avlodi uchun o‘sha erga ulkan maqbara qurishni buyuradi. Hazrati imom maqbarasi g‘ishtin qobig‘ga olingan peshtoqning bir qanotigina bo‘lib qoladi. 1404 yilda Dorus Siyodatni ko‘rgan ispan elchisi Klavixo binoning nihoyatda hashamatligini, go‘zalligini va yaqinida katta hiyobon qilinganini qayd etadi.

Go‘rxona alohida diqqatga sazovordir. Ya.G‘ulomov fikricha u Jahongir uchun qurilgan. Go‘rxona o‘qlarining yo‘nalishlari Hazrati Imom maqbarasini kiga muvoziydir (parallel)dir. Go‘rxonaga tuyuksimon yo‘lkadan tushiladi. Markaziy qism tomonlari salkam 4 m bo‘lgan chorsu tarhlidir. To‘rt tomonidan chuqr tokchalarga ega. Go‘rxona devorlari, shifti va tagi mayin tusli marmarsimon

ohaktoshdan qoplab chiqilgan. O‘rtada turgan marmar sag‘ana (2,5 x 1,4 x 0,73 m) qopqog‘ining to‘rburchaklarida va o‘rtasida temir halqalar bor. G‘o‘rxona tepasi darbozi usulida yopilgan. Devor ravoqlari yondagilari bilan tosh taxtalar orqali birlashtiriladi. Ravoqlar cho‘qqilarida chiqarilgan to‘rburchak sakkizqirralik hajm bilan yopilgan. Go‘rxonada xech qanday naqshlar bo‘lmay bezagi faqat xushqad suls xatidagi diniy yozuvlardan iborat. Yozuvlar ravoqlarning chetiga, devorlardagi bodomsimon shakllarga, sharq va shimol tokchalaridagi to‘rburchaklarga o‘yilgan. G‘arbiy tokchadagi mehrob shakliga va uning ikki yonidagi tosh taxtalarga bitilgan yozuvlar esa qibla tomonni alohida ajratib turadi. Go‘rxonaning me’morligida xotirjamlik, ulug‘vorlik va go‘zallik aks etgan.

Dorus Siyodat majmuasi to‘g‘risidagi tarixiy ma’lumotlarga va joydagi kuzatishlarga tayanib G.Pugachenkova majmuuning dastlabki tarhini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra ravog‘ining qadami 20 m bo‘lgan peshtog‘ning shimoli Jaxongir maqbarasi (Hazrati imom), janubi Temur avlodining xilxonasi uchun ajratilgan. Markaziy xonadan yonlaridagi turli xonalarga o‘tiladi, ro‘parasida – Temur ziyyoratxonasi (tagi - go‘rxona); uning shimolida masjid, janubda esa miyonsaroy joylashtirilgan. Go‘rxonaning tuynuksimon yo‘lkasi shu erdan boshlanadi.

Shahrisabzdagi Oq saroy, Samarqandning jome masjidi va Xo‘ja Axmad Yassaviy maqbarasidan keyin Dorus Siyodat majmuasi Temurning qurdirgan ulug‘ binolaridan to‘rtinchisidir. Unda boshqa turli vazifalardagi binolarni bog‘liqliklarini nazarga olib, hammasini bir binoga, markaziy xona atrofiga jamlay olingan.

Dorut Tilovat majmuasi (nomi - “tilovat uyi” ma’nosini bildiradi) SHahrisabzning janubi-sharqida bo‘lgan Dorus Siyodat bilan bo‘lgan xolda XIV asr 2 – yarmida tashkil bo‘lgan. Uning tarkibi hozir yo‘q bo‘lib ketgan madrasa kirgan. Majmua katta chorusu (67,0 x 66,5 m) maydon tevaragini egallagan binolar guruhi shaklida bo‘lgan. Dorut Tilovat madrasasi 1370 yilda bitkazilib, g‘ishtlari XVIII asrda talon-taroj qilingan. Guruhga kirgan yodgorliklardan Ulug‘bek jome masjidi (1435 y.), unga qo‘sh qilib qurilgan Shamsuddin Kulol maqbarasi (XIVa. 70 – yillar) va unga janubdan tutash qilib qurilgan boshqa maqbara saqlangan. 1437 yildan

boshlab Amir Temurning va otasi Tarag‘ayning piri Shayx Shamsuddin Kulolga atab (1370 yilda vafot etgan) maqbara quriladi. 1374 yilda Temurning buyrug‘i bilan 13 yil burun o‘lgan Tarag‘ayning jasadi pirining “oyog‘iga”, janubroqqa ko‘chirilib boshqa maqbara solingan.

Dorut Tilovat yodgorliklari ichida dastlabkisi – Hazrati shayx mozori deb ataluvchi Temurning piri SHayx SHamsuddin Kulol (Kulol Faxuri) maqbarasidir. SHayh 1370 yilda vafot etgan. 1373 – 1374 yillar ichida, Shayx qabri yaqinida Temurning otasi Tarag‘ay dafn etilgan edi. Keyinchalik ikki ustunli, to‘sinsiz bilan yopilgan ko‘hna Kulol maqbarasi o‘zining avvalgi asosini saqlab qolgan. U dastlab peshtoqli va gumbazli edi. Tarhi kvadrat (7.5 x 7.5 m) shaklida bo‘lgan. Taxmonlari remont vaqtida urib qo‘yilib, o‘rtalarida vertikal tobodonlar ochilgan edi. Gumbazi Sayidon maqbarasiga assosiy kirish peshtoq shaklida ishlangan. Peshtoqning pillapoyalari moviy g‘ishtlarda ishlangan yulduzlar hamda ularning ichlaridagi stillashtirilgan *ko‘fiy* xati bilan bitilgan ko‘k yozuvlardan iborat qoplama mavjud. Peshtoq chekkalarining urilgan hisobiga torayib qolgan. Uning eshigi XIV asr oxiri – XV asr boshiga oid. Eshik sirtlari ikki zaminli nihoyatda nafis o‘yma naqsh bilan bezalgan.

Gumbazi Sayidon maqbarasini 1437 yili Ulug‘bek o‘zining avlodlari uchun qurdirgan. Yo‘q bo‘lib ketgan Dorut Tilovat madrasasi majmuiga kirgan. Bino SHamsuddin Kulol maqbarasiga shimoldan tutash bo‘lib, uning shimoli – sharq burchagida masjid vayronalari yopishgan. Gumbazi Sayidon maqbarasi devorlarining tarhida tashqi o‘lchovlvr 9,00 metrni, ichkaridan 5,75 metrni tashkil qiladi. Maqbara hajmi to‘ryoriqlik ustiga 2 katta – kichik pog‘onalar shaklidagi sakkizyoriqlik chiqarilib, ichidan baland gumbaz bilan yopilgan. Baraban gardish va ustki gumbaz 6 g‘ishtin tirgovlar orqali pastki gumbazga biriktirilgan bo‘lgan. To‘ryoriqlik hajmning g‘arbida peshtoq bo‘lgan. Uning yuzida ko‘k, zangori, oq tusli siyo girihsalar jipslab terilgan g‘ishtlar fonida tovlanadi. Gardish sirtini butun balandligi bilan koshinkor girihsalar to‘latgan. Ularning ustidan oq ko‘fiy yozuv qatori gardishini qamrab olgan. Maqbaraning tashidan boshqa tomonda xech qanday bezagi

yo‘q. Maqbara ichida 4 qabrtosh bor. Ular ustoz Amir Abdul Muoniy, Muhammad Sayid, Ma’rufxon Abdul Muoniy o‘g‘liga tegishlidir. Bir qabrtosh yozuvsiz. Maqbaraning to‘ttala devorlarida tokchalar mavjud. Devorlarning pastidan yoqimli izora o‘tgan. To‘rttyoriqlikni sakkizyoriqlikdan chuqur navo shakli ajratib turadi. Uning tepasida oq rang bilan zangori zaminga xat bitilib, u yozuv to‘rt karra qaytariladi. To‘rtqirralik burchaklaridan raoqlar tashlanganligi tufayli sakkizqirralik hosil bo‘ladi. Unda ham ravoqli darchalar bor. Bu darchalar avval panjarali edi. Maqbara devorlari, gumbazi boshdan oyoq yaxshi saqlangan noyob girih (ko‘proq) va islimiylar (kamroq) bilan bezatilgan. Ularning zami oppoq – gulganchning rangidadir. Devorlarga davrapoyalar chizilgan. Davrapoyalarning tepalarida turunjlar, o‘rtalari hajmli olti qirralik tangasimon shakllar bilan o‘ralgan. Davrapoyalar ichida ham 12 va 6 burchakli girihsizlar bor. Ba’zi girih va turunjlar ichida tabiiy ko‘rinishiga yaqin o‘simgilklar (daraxt, barg va h.k.) suratlari solingan. Naqshlar asosan ko‘k bo‘lib, qizil, sarg‘ish va boshqa ranglar ham ishlatilgan. Qizg‘ish tusdagi naqshlar pastda kamchil bo‘lsa, gumbazning pastidagi shakldor turunjlarda ulardan ko‘proq foydalanilgan. Naqshlar tuzilishi, ular chiziladigan sathlarning shakllariga monand qilib hal etilgan. Chiziqlarning ko‘pi erkin chizilganligi tufayli ko‘rinishi nihoyatda jonli chiqqan.

Gumbazi Sayidon xushqadligi bilan kishini xayratda qoldiradi. Uning Shohi zindagi ikki gumbazli maqbara bilan ko‘p jihatdan umumiyligi bo‘lib ikkovi ham Ulug‘bek davrining ko‘zga ko‘ringan obidalaridandir. U boshqa shunday yodgorliklar qatori bilan O‘zbekiston me’morligining yuqori bosqichidan darak beradi. Ulug‘bek davrining yuksak badiiy dinini aks etdiradi. Maqbaraning ichki naqshlarida Bibixonim maqbarasi va boshqa ayrim Shohi zinda maqbaralarida qo‘llanilgan naqshlarning erkin chizish an’analari davom etdirildi.

Ko‘k gumbaz masjidini hijriy 839 yilda yoki milodiy 1435 yilda Ulug‘bek o‘sha davrda hokimlik qilgan otasi Shoxruh nomidan qurdirgan. Bunga peshtoqning ichki sirtida aylanib o‘tgan yozuv (M.E.Masson bo‘yicha) guvohlik beradi. Xatda qurilmaning jomeligi ham takidlangan. Jome 1953 – 1954 yillardagi arxeologik

qazilmalar ko‘rsatishicha XI-XII asrlardan qoraxoniylar davridan mavjud bo‘lgan masjidning poydevorlariga qurilgan. Aksariyat jome masjidlari hovlili, markaziy binosi asosiy o‘qda joylashgan, atrofi gumbazlar bilan yopilgan va gallereya bilan o‘ralgan inshootdan iborat bo‘ladi. XV asrda Turkmanistonda barpo bo‘lgan Anov shahardagi masjiddir (zilzila vaqtida yo‘q bo‘lib ketgan).

Anovdagagi masjidning hajmiy rejalanishida relefdan ustalik bilan foydalanilgan; bir tomoni ochiq hovlining to‘rida yirik gumbazli, katta ravoqli xonaqoh bo‘lib, uning ikkla old burchaklariga o‘rtalari bir xil kattalikdagi gumbazlar bilan yopilgan qo‘sishmcha qurilmalar tutash bo‘lgan.

XVI – XVII ASRLAR ARXITEKTURASI

Temuriylar davridan keyingi XVI – XVII asrlarda O‘rta Osiyoda shayboniylar va ashtarhoniyilar hukmronlik qilgan vaqtida me’morchilikda asosiy ikki bosqich bir-biridan farqlanadi. Birinchi bosqich o‘z ichiga XVI asrning 1 – yarmini, ikkinchi bosqich o‘z ichiga XVI asrning 2 – yarmi - XVII asrni oladi.

Birinchi bosqichda avvalgi, XV asrga oid bir necha jihatlari davom etgan, ikkinchi bosqichda yangi shu davrga xos jihatlar to‘la namoyon bo‘lgan.

Mazkur davr temuriylar davridan ancha farq qiladi. Xalqaro miqyosidagi o‘zgarishlar, jumladan Amerikani kashf etilishi natijasida quruqlikdagi karvon yo‘llarining ahamiyati mirmuncha payishiga olib keldi. Ayni vaqtida regional miqyosda O‘rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy hayotida savdo-sotiq ahamiyatining o‘sishi kuzatiladi. Savdo-sotiq ehtiyojlarini qondirish uchun ko‘p timlar, toqilar, karvon saroylar barpo etiladi.

XVI – XVII ASRLAR SHAHARSOZLIGI

O'rta asrlar shaharlarining to'la shakllanish jarayoni shayboniyalar davriga to'g'ri keladi. O'rta Osiyoning tarixiy shaharlari hududi, tizimi va ko'plab majmualari paydo bo'lishi nuqtai nazaridan asosan XVI – XVII asrlardagi holatini saqlab qolgan.

XVII asr o'rtasida suv ta'minoti birmuncha qiyinlashgan shimoliy Xorazm shaharlari Urganch va Vazir aholisini Yangi Urganch va Vazir qal'alariga ko'chiriladilar. Anushaxon (1663-1687) davri mobaynida arig'i qurib qolgan Kot o'rniga boshqa, Yormish arig'i o'tkazildi hamda Yangi Kot barpo etildi. Xonligining so'nggi 1687 yilda Shoxobod arig'i va uning bo'yida Shoxobod qal'asi bunyod qilindi. Anushaxon tufayli Vazirdan Qoziobodgacha bo'lgan chiziq qal'alar qatori bilan mustaxkamlandi.

XVI asrga kelib poytaxt Buxoro tarixiy shahar sifatida asosan shakllanib bo'ldi. XVI asrda Jo'ybor shayxlariga tegishli bo'lgan shaharning janubi-g'arbidagi hudud ham qo'rg'on devor bilan o'ralib shahar tarkibiga kiritiladi. Bu bilan shaharning so'nggi, eng kengaygan holatdagi ko'rinishini oldi. Shaharda o'n bir (ba'zi ma'lumotlarga qaraganda-o'n ikki) darvoza bo'lgan. Ulardan biri – Shayx Jalol darvozasi nisbatan yaxshi saqlanib qolgan. Shahar tarhida uning oldingi tizimi o'z izini qoldirgan. Buxoroning qiyofasini ko'p jihatidan XVI-XVII asrlarda bunyod bo'lgan bir qancha shahar ichidagi majmular belgilaydi.

Samarqand shahrida ham XVI asrda bir qancha inshootlar paydo bo'ladi. Shaharning bosh maydoni Registonda bahodir yalanto'sh hokimligi davrida katta qayta qurish ishlari bajariladi.

XVI asrda Toshkentda salobatli, bir necha koshinkor binolar qurilgan. Ular jumlasiga, Chorsudagi Ko'kaldosh madrasasi, Xasti Imomdag'i Qoffol Shoshiy maqbarasi qarshisiga unga qo'sh qilib Boboxo'ja maqbarasi (saqlanmagan), Baroqxon madrasasi, Qoratoshdagi hammom (poydevorigina saqlangan) kabilar kiradi. Baroqxon madrasasi oldin qurilgan ikki maqbarani o'z ichiga olgan; kichigida dafn etilgan shaxs noma'lum; kattasi Suyunichxon maqbarasi bo'lib, uning baland

gumbazi (Ko‘k gumbaz) o‘tgan asrda qulab tushgan. Mustaqillik yillarida Xazrati imom, Chorsu, Shayhontohur, Zaynitdin buva, Zangi ota ansambllarida keng miqyosli ta’mirlashg va qayta qurish ishlari olib borildi.

Toshkentda XVII va undan keyingi asrlarda qurilgan yodgorliklar qatoriga QorasaroydagI Ibrohim ota maqbarasi, Chilonzordagi Xayrobod masjidi va maqbarasi, Beshyog‘och ko‘chasi dagi Baland masjidi va madrasasi, Xalqlar do‘stligi saroyi oldidagi Abdul Qosim, Xazrati imomdagi Muyi muborak madrasalari, Xazrati imomdagi Tilla shayx (Chaqar) masjidi, Yalankar, Oxanguzar, Kallaxona mahallalarining yirik masjidlari kiradi.

Termiz shahrida Sultan Saodat majmuasida oldingi davr (XI-XV asr)larda barpo bo‘lgan maqbaralar tutashtirib qurildi. Yagona kompozitsion o‘qda alohida darvozaxona va xonaqoh barpo etildi.

Shaharning boshqa majmualari ham shakllanish jarayoni davom etdi. Yangi inshootlar, jumladan xonaqohlar qad ko‘tardi.

XVI – XVIIASRLAR ME’MORLIGI

XVI asrning 1- yarmida asosan oldingi, XV asrdagi me’morlik an’analari davom ettirildi. Asrning 2-yarmisi Abdullaxon II hokimligi davri bo‘lib, unda XVI asr me’morligiga xos bo‘lgan jihatlar ro‘y-rost ko‘rina boshladi. Birinchidan, binolar tipologiyasi o‘zgardi - maqbaralar alohida bino sifatida deyarli qurilmadi, savdo-sotiq binolari va xonaqohlar ko‘plab qurildi; ikkinchidan, binolarning hajmiy tuzilishi o‘zgardi: peshtoq va hovli burchaklari kesik qilib ishlana boshlandi, buning natijasida binolarning qulayligi o‘sdi.

Me’morlikdagi jamiyki o‘zgaruvlarni ratsionallikka intilish deb aytish mumkin. Savdo-sotih bilan bog‘liq bo‘lgan inshootlar kengroq tarqaldi. Manbalarda Abdullaxon 1001 rabot qurdirgan deb qayd etilgan. XVII asrda ham keng qamrovli qurilish ko‘lami kamaymadi.

Binolar qurilishida devorlar burungiday monolit qilinmasdan o‘rtalariga g‘isht parchalari kabi chiqindilar kiritila boshlandi. Bu iqtisodiy tejash bo‘lib, ortiqcha

mustahkamlikdan voz kechib, ratsional mustahkamlikka o'tilganligidan dalolat beradi. Konstruksiyalar ichida o'zaro kesishgan ravoqlarga tayangan gumbazlarni qo'llash ko'lami kengaydi. Gumbazlarning cho'qqilarida fonuslar qilinadigan bo'ldi. Hajmiy bezak shakllarda kosalarining pastlari tik bo'lgan sodda muqarnas o'rnini murakkab bo'lgan ko'rinishi – iroqi egalladi. Bular bilan birgalikda sirli qoplamlarning sifati birmuncha pasaydi. Ba'zi koshinlarda chiziqlar rangi suykalganday bo'lib ketish holati kuzatiladi.

Bu davrda maqbaralarni alohida inshoot sifatida qurish to'xtatib qo'yildi. Yuqori tabaqa namoyondalari (xonlar, diniy arboblar va boshqalar) ochiq joylarda – dahmalarda va xaziralarda dafn etildi. Diniy inshootlar ichida keng ko'lama xonaqohlar barpo etildi. Binolarning hajmiy – fazoviy tuzilishida ham o'zgarishlar ro'y berdi: hovlilarning, peshtoqlarning burchaklari avvalgidek to'g'ri – 90 gradusda emas, balki 45 gradusda, kesik qilib ishlanadigan bo'lindi; bu o'sha burchaklar orasida joylashgan xonalarga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatini berdi.

Inshootlar burchaklaridagi avvalgi ingichka, baland minoralar o'rnini binoning balandligi bilan barobar burjsimon hajmlar egalladi.

Bu davr me'morlik ishlari texnologiyasiga doir o'sha davr chizmalari tadqiqotchilar tomonidan o'r ganilgan. "Buxoro ustasi chizmalari turkumi" taxminlariga ko'ra XVI asrga oid bo'lib, ularda tomonlari bir gazni ifodalovchi kataklarda namunaviy (tipik) inshoot (madrasa, xonaqoh, sardoba va boshqa bino)larning tarhlari chizilgan.

XVI – XVII asrlarda muhandislik qurilmalarga, jumladan suv inshootlariga alohida etibor berilgan bo'lib, ulardan Mirzacho'ldagi sardoba, Abdullaxon bandi, G'ishtband nomlari bilan ataladigan to'g'on qoldiqlari, Qarshidagi ko'prik hozirgi kungacha etib kelgan.

XVI – XVII asrlar me'morligini ifodalovchi inshootlar ko'proq mamlakat poytaxti Buxoroda mujassam. Shahrisabz atrofidagi, Katta Langardagi ichki bezaklarning unikalligi va yaxshi saqlanganligi bilan ajralib turuvchi masjid va

maqbara, Kitob tevarasidagi Xo‘ja Ilimkon majmuasi, tog‘ qishloqlari Hazrati Bashir va Tezob obidalari shular jumlasidan.

Buxoro markazi yaxlit, ulkan majmua ko‘rinishiga ega. U asosan ilk o‘rtalarda shahristonning g‘arbiy va janubiy ko‘chalarini egallagan. Markaz Poyi kalon majmuasidan boshlangan. Toqi zargaron –zargarlar chorsusi shahristonning markazini ifodalaydi. Undan sharqda, ko‘chaning ikki tarafidan Ulug‘bek va Abdulazizzon madrasalari o‘rin olgan. Zargarlar chorsuning janubida Abdullaxon timi joylashgan. XX asr boshlarida bu yerlarda karvon saroylar va do‘konlar bir-birlariga tutashib, zinch turishgan edi. Ular bizgacha etib kelmagan. Shahristonini ilk o‘rtalarda darvozasini, keyinchalik bozor o‘rnini hosil toqi **telpakfurushon** – telpakchilar chorsusi mustahkamlaydi. Zargarlar chorsusi shahriston markazini mustahkamlash masalasini xal etgan bo‘lsa telpakchilar chorsusida olti ko‘chadan iborat tugun hosil bo‘ladi. Telpakchilar chorsusidan shimolda Sarrofon hammomi mavjud. Uning tarhida ham murakkab shaharsozlik holati aks etgan.

Buxoro shaharining markazi tarkibidagi majmualardan tashqari o‘rtalarda shahar ichida Labi hovuz va Qo‘sish madrasa majmualari ham shakllangan.

Labi hovuz majmuasida sakkiz qirralik hovuz atrofida Ko‘kaldosh madrasasi va qo‘sish tizimida xonaqoh va madrasa joylashgan.

Ko‘kaldosh madrasasi Labi hovuz majmuasida birinchi bo‘lib (1568-69 yilda) bunyod etilgan. Ayni vaqtda u majmuadagi eng katta inshootdir. Uni Abdulloxon vaziri Ko‘kaldosh madrasasini qurdirgan. Tarhi an’anaviy – o‘rtasida hovli egallagan, to‘g‘ri burchakli shakldan iborat. Tashidan har to‘rt burchagi guldastalar bilan belgilangan. Madrasaga asosiy kirish Labi Xavuz maydonidan tashkil etilgan. U burun serbezak bo‘lgan, chuqur peshtoq bilan nishonlagan. Peshtoq eshigi yuksak badiiy qiymatga ega. Alovida pilakchalardan tizilgan girih oraliqlarini nafis uyma naqsh to‘ldiradi. Kirishning hovliruya peshtoq ayvoniga ketma-ket joylashgan yo‘lkalardan o‘tiladi. Markaziyo‘lakning yonlaridagi eshiklaridan masjid va darsxonaga ham o‘tildi. Yo‘lak gumbazlarning ichidan ko‘rinishi chuqur taassurot qoldiradi. Ravoqlar har xil yo‘sinda o‘zaro kesishib turli yulduzsimon shakllar hosil

qiladi. Ravoqlar sayqallangan g‘ishtlardan ishlanib, oraliqlari oq ganch bilan ajralib turadi. Markaziy yo‘lak gumbazida sakkiz qirralik yulduzlar, ayniqsa nafis gullar bilan to‘ldirilib nihoyatda bejirim ishlangan.

Darsxona gumbazi qarama – qarshi burchaklarga tashlangan asosiy qo‘sh ravoqlar kesishmasidan hosil bo‘ladi. Ular oralig‘ida turli kattalikdagi ravoqlar takrorlanib ajoyib yaxlit manzarani tashkil etadi. Gumbaz tepasidagi qubba darchalaridan tushadigan yorug‘lik bunga fazoviy yengilik bahsh etadi. Shunga o‘xhash masjid gumbazida ham ravoqlar kesishib darsxonadagidan farqli o‘laroq qator darchali fonusni ushlab turadi.

Madrasa hovlisi ancha ulkan. Peshtoqli ayvon yonlari ikki qavatli hujralar bilan band. Hujralarning ja’mi soni – 169 ta. Hujra ravoqlarining tepalarida va panjaralarida parchin bezak qo‘llangan. Ko‘kaldosh madrasasi tez-tez buzilib qayta-qayta tuzatilgan. Shuning uchun ham avvalgi qiyofasini yo‘qotgan. Darsxona, masjid va boshqa xonalar gumbazlarini ishslashda me’morlar yuqori mahorat cho‘qqilarini egalladilar.

Nodir devonbegi xonaqohi Labi hovuz majmuasining g‘arbini, hovuz bo‘yini egallaydi Uni 1620-21 yillarda Imomqulixonning vaziri qurdirgan. Devonbegi xonaqoxining hovuz tomoni inshootning bosh tarzi bo‘lib kirish peshtoqi bilan ajratilgan. Peshtoq ravog‘ining qanosi (tipani) ancha baland bo‘lib, ulug‘vorlikni ifoda etadi. Uning yuzi koshinlar bilan bezatilgan. Bosh tarzini burchaklardagi tagi qirralik ikki gulasta yakunlaydi. Xonaqoxning ikki yonida ham qo‘sishma kirish eshiklari mavjud. Devorlari esa bir necha bor (so‘ngisi 1914 yilda) qayta terilgan bo‘lib, asl ko‘rinishini yo‘qotgan. Devonbegi xonaqohning tarhi simmetrik: kiraverishdagi ayvon, markaziy xona va uning burchaklarida joylashgan ikki qavatli darveshlar yotoqxonalaridan iborat. Gulasta ichidagi aylana zina tepaga olib chiqadi. Markaziy xonaning 4 devorlarida ham taxmonlar bor. Uning usti ulkan gumbaz bilan yopilgan. Xonaqoh ichi dastlab hashamatli bezaklarga ega bo‘lsada, hozir saqlanmagan. Devonbegi xonaqohi mustahkamlanib keyingi buzilishlarga chek qo‘yiladi.

Nodir devonbegi madrasasi Labi hovuz majmuasining sharqiy qismida joylashgan. 1622 - 23 yilda Imomqulixon vaziri qurdirgan. Obidaning bosh tarzi Labi hovuz maydoniga qaratilgan bo‘lib, ulug‘lik va sipolik ruhida tashkil topgan. Kirish eshigi peshtoq bilan nishonlagan. Uning sirtida ohu, parvoz qilayotgan qush va boshqa koshinkor tasvir va naqshlar mavjud. Peshtoqning yonlaridagi devorini uchtadan ravoqli ayvonlar jonlantirib turadi. Old ko‘rinishdagi o‘lchamlarning o‘zaro mutanosibligi madrasa tarziga puxta chiroy bahsh etadi. Devonbegi madrasasi ikki ko‘chaning oralig‘iga tushgan. Tarhda ikki burchagi (shimoli-g‘arb va janubi-sharq) birmuncha kesilgan. Madrasa o‘rtadagi hovlining tomonlariga qurilgan ikki qavatli hujralar qatoridan iborat. Bino karvon saroyga mo‘ljallangan bo‘lib, bitgandan so‘ng madrasaga aylantirilgan. Odatda bo‘ladigan yirik o‘lchamli darsxona, masjid va h.k. yo‘q. Biroq bu xol obida mavjesini pasaytirmaydi.

Majmuuning shamoli-g‘arbiy burchagida XIX asr oxiri – XX asr boshiga mansub bo‘lgan Elnazar elchi nomi bilan bog‘liq imorat mavjud bo‘lgan. Keyinchalik badiiy qiymatga ega bo‘lmagan bino tariqasida buzib tashlangan.

Govkushon majmuasi Buxoro shahristonning janubi-sharqida bir necha ko‘cha uchratgan joyda o‘rnashgan. U qudratli Juybor shayxlari tomonidan qurdirilgan bo‘lib, kattagina madrasa va 19,5 metrlik minoradan iboratdir. Bulardan boshqa vayron bo‘lib ketganligi vajidan buzilgan Xo‘ja (yoki Govkushon) nomli masjid, uning oldidagi hovuz va janubroqda bo‘lgan Govkushon saroyi ham shu majmuuga kirgan. V.A.Lavrovning “Gradostroitelnaya kultura Sredney Azii”kitobida keltirilgan tarhga ko‘ra saroy anchagina hashamatli bo‘lgan.

Govkushon madrasasi 978 hijriy yilda (1570-1577 m.y) qurilgan bo‘lib, hovlining to‘rt tomonidan o‘rab turuvchi xonalar an’anaviy usulida bino etilgan. Biroq, uning tarhi to‘g‘ri to‘rburchak shaklida emas, balki bir burchagi kesik trapetsiya shaklidadir. Binoning old tomoni ikki qavat qilib ko‘tarilgan. Boshqa tomonlari bir qavatdan iborat. Undan tashqari oldinggi tomonni anchagina jonlatib turuvchi mezana o‘zida diqqatni birmuncha ushlab qoladi. Madrasaning kirish peshtog‘iga sirkor xattolik va naqqoshlik san’atlarining namunalari bezab turadi.

Binoga kiraverishdagi o‘ng tomonda – masjidxona. U darsxona vazifasini ham o‘tagan. Boshqa xonalar kichikroq- yordamchi xonalarga vazifasini o‘tagan. Hovlining g‘arb tomonidagi peshtoq qilib chiqarilgan ayvon uni muhtasham qilib turadi. Ayvon ichkariga qarab sal kichrayib tarhi besh qirralikka aylangan hamda tepada ajoyib muqarnas bilan yopilgan. Ayvonnning yon devorlaridan esa nafis yozuvlar yo‘li o‘tib butun yuzaga go‘zallik baxsh etib turadi. Shu bilan birga, madrasa me’morlari, avvalo qulay bo‘lishini o‘ylab tashqi ko‘rinishiga berilgan e’tibor ikkinchi o‘ringa o‘tganligi seziladi. Uning natijasida ba’zi joylarda simmetriya buzilgan. Masalan kirish peshtog‘ining o‘ng tomonida ikkinchi qavatda ayvonlar bor, chapda yo‘q.

Madrasaning janubi-sharq burchagiga yaqin bo‘lgan minora madrasa bilan oldinma-keyin qurilgan. U Xo‘ja masjidiga tegishlidir. Ko‘rinishi jihatidan Kalon minorasiga juda o‘xshashib ketadi. Minoraning bezalishi ancha sodda, lekin o‘ziga yarashgan. Sirti har xil shaklli g‘ishtlar bilan chiqarilgan juda xushbichim bo‘lgan chambarlar jonlantiradi. Bu chambarlar orasi pastda uzun bo‘lsa, yuqorilagan sari qisqaradi, bezaklari esa yengillashadi. Bu xol va minoraning gavdasi yuqoriga ingichkalashib borishi oxirida yengil fonusni idrok etishga chorlaydi. Fonusning o‘n qirrasining har biridagi ravoqli darchalar unga nihoyatda noziklik va latiflik bahsh etadi. Minoraning ichidagi zinasiga kirish uning Xo‘ja masjidining tomidan ravoqli ko‘prik orqali bo‘lgan. Bu esa pastdagi yo‘lovchilar harakatiga halaqit bermaydi.

Buzilgan Xo‘ja masjidi Buxoroning ulkan masjidlaridan biri bo‘lganligini ko‘p mualliflar ta’kidlagandilar. Keng hovli saxnini ayvonlar qatori o‘rab olgan edi. Uning kirish darvozasi naqshin peshtoq bilan nishonlangan bo‘lgan edi. Masjidda kompozitsion o‘qning boshqa uchini maqsura binosi belgilagan bo‘lib, uning ulug‘vor gumbazi hovli husniga yana husn qo‘sib turar edi. Buxoroning boshqa mashhur obidalari kabi dong taratmasa ham majmua me’morlikda o‘ziga yarasha o‘rin egallaydi.

Buxoro shaharining tashqarisidagi majmualardan Bohovuddin hamda Chor Bakr nomli majmular mashhurdir.

Bohovuddin majmuasi – to‘g‘risida Yodgorliklarni saqlash Bosh Boshqarmasi arxivida qimmatli materiallar mavjud. Majmua Buxoro shahari tevaragidagi Bohovuddin qishlog‘i yaqinida joylashgan. Asosan XVI asrda vujudga kelgan. Shayx Bohovuddin Naqshbandiyalar mazhabining asoschisi, g‘oyat martabali bo‘lib Buxoro xonlarining xomiysi hisoblangan. 1389-yilda vafot topgan. Bohovuddin majmuasi uning mozori tevaragida bunyodga kelgan. Biroq tadqiqotlar majmuada XIV asrga mansub binolar yo‘qligini ko‘rsatadi. Mozor Abdulazizzon buyrug‘i bilan tartibga keltirilib majmua sifatida yakunladi va 1544-45 yillarda majmuuning eng katta binosi-xonaqoh qurildi. Bohovuddin majmuasining asosiy qismiga daxmalar (Daxmai Shohon va Bohovuddin daxmasi), maqbara, 2 masjid, hovuz, quduq, minora, madrasa va ulug‘vor xonaqoh kiradi.

Majmua chortoq darvozaxonadan boshlanadi. Undan o‘tilganda o‘ng tomonda masjid, chap tomonda esa turli binolar (jumladan, ziyoratchi amaldor va boylar uchun manzilgoh) bo‘lganligi ma’lum. Yo‘lning so‘nggida Daxmai Shohon-xonlar va xonzodalar qabristoni o‘rnashgan. Dahmai Shohon – 2,5 metr balandlikka ega bo‘lgan, kulrang marmar bilan ko‘tarilgan ulkan to‘rtburchakdan iborat. Bunda ko‘plab marmar o‘ymakorligi, xattotlik san’atining ajoyib namunalari mavjud. Marmarlarga turli-tuman tokchalar, ustunchalar, sharafalar, sarv surati va boshqa bezaklar o‘yilgan.

Daxmai Shohondan o‘tgandan so‘ng eni 2,9 metrlik yo‘lak har xil naqshlar bilan bezatilgan bejama peshtoqqa olib keladi. Peshtoqdan o‘tilgandan so‘ng o‘ngda gumbazli maqbara ko‘rinadi. Unga kim dafn qilinganligi ma’lum emas. Chapda-olti ustunli soddagina Muzaffaraxon masjidi bor. Uning ayvoni kiraverishga qadar joyni egallagan. Masjid burchagiga yaqin boshqa, ikki ustunli Hakim qushbegi masjidi tushgan. Uning ikki tarafida, janubida naqshdor, shimolida naqshsiz ayvonlari bor.

Bohovuddin majmuasiga kiraverishning ro‘parasida - marmardan ko‘tarilgan kattagina, supasimon tepalik - daxma bo‘lib, usti chiroyli panjara bilan o‘ralgan. Unga Shayx Bahovuddin qabri qo‘yilgan. Daxmadan sal narida, shimolda-tomonlari 9,5 metrlik pog‘ona-pog‘ona qilib ishlangan marmar hovuz mavjud. Bohovuddin

dahmasi bilan hovuz oralig‘ida quduq bor. Yonidagi nozik shiyponda qadimda ziyyoratchilarga qiziq shaklli idishlardan “muqaddas” suv ulashilgan. Hovuzning shimoliy tomonida ko‘rkamgina chortoq joylashgan. Ulardan tashqari Hakim qushbegi hovlisining sahnida unga o‘ziga xos chiroy baxsh etuvchi keksa uzum va tutlar bo‘lgan. Hakim qushbegi masjidining shimolida mo‘jazgina minora qad ko‘targan. Uning narirog‘ida kichikroq madrasa bo‘lgan. Yana shimolida hovlidagi hovuzga qaraganda tomonlari 8 marta katta boshqa hovuz bo‘lgan.

Hovlining tashida, shimoli-g‘arbda eni 37 m, bo‘yi 40 m bo‘lgan xonaqoh qad ko‘targan. Sirdan gumbazda bir-biri bilan kesishib ketgan to‘rt ravoqlar ko‘rinib turadi. Xonaqohning o‘rtasi - masjidxona. Uning to‘rttala tomonida-chuqur ayvon bo‘lib uchtaidan ichkariga kiriladi. G‘arbiy tomonida esa mehrob mavjud. Imoratning har tomonlarida umuman simmetrik ravishda ikki qavat, katta-kichik hujralar bor. Honaqohning yonlardan ko‘rinishlari bir-biriga o‘xhash, vazmin va sodda. Masjidxonaning to‘rida chormazin yo‘li bilan chiqarilgan mehrob diqqatga sazovordir. Uning naqshlari qirma uslubida ishlangan bo‘lib ajabtovor chiroy baxsh etadi.

Bohovuddin majmuasiga shimoli - sharqdagi, asosiy inshootlardan 0,5 km naridagi Qasri Arifon masjidi ham kirgan. Uning yonida pastakkina minora mavjud. Masjid uch tarafdan ayvon bilan o‘ralib usti to‘sini bilan yopilgan. Shiftlaridagi hovuzaklarni ajoyib naqshlar to‘ldirgan.

Mustaqillik yillarida katta hajmdagi qayta qurish ishlari olib borilgan.

Majmuaga kirgan imoratlarni alohida olib qaraganda ularda oldingi davr imoratlaridan konstruksiya yoki tarhiy jihatlardan aytarlik ziyyodligi yo‘q. Bohovuddin majmuasining O‘rta Osiyo me’morligi rivojiga qo‘shtan hissasi boshqada. Majmua XVI asr me’morligining yangicha majmua tuzishdagi yutuqlaridan biridir. Qo‘shtan yoki uch binoli o‘ta simmetrik majmualardan farqli o‘laroq Bohovuddin majmuasi turli vaqtda qurilgan va ancha erkin joylashgan inshootlardan iborat. Bu inshootlar tarqoq, lekin o‘zaro uzviy bog‘langan, biri boshqasini to‘ldiradi.

Chor Bakr majmuasi masjid, xonaqoh, minora va ularning atrofidagi xaziralardan iborat. Masjid bilan xonaqoh birmuncha masofa o'tkazib yonma-yon qurilgan. Ularni orqa tomonidan devor tutashtiradi. Devor simmetrik tarzda xal etilgan. Uning o'qini minora mustahkamlab turadi.

Buxoroda Mag'oki Attoriy masjididan tashqari yana bir mag'ok turidagi obida - Mag'oki ko'rpa masjidi mavjud.

Xonaqohlar me'morligining jihatlarini Buxoro atroflarida qurilgan xonaqohlar yaqqol ko'rsatadi. Fayzoboddagi xonaqoh binosida o'rtadagi saroy – zalning ikki yonlarida ayvonlar joylashgani bilan sifatlanadi. U XVI asrning oxirida (1598-99 y.) qurilgan. Buxoroning shimoliy muzofotida joylashgan. Tarhi kvadratga yaqin bo'lsa hamki frontal - bo'ylama o'qli kompozitsiyaga ega. Old va orqa tarzlarida simmetriyaga o'ta muntazamlik bilan rioya etilgan. Old tarzi pog'onasimon ko'rinishli. U kiraverish peshtog'i, yon tomonlaridagi ikki qavatli ravoqlar, chekkalaridagi ayvon ravoqlari hamda ingichkaror guldastalardan tashkil topgan. Xonaqoh kompozitsiyasida frontallik jihatlar (asosiy kiraverishdagi peshtoq) bilan markaziylig (qolgan uch tarafagi ravoqlar) uyg'unlashtirilgan. Ikki yondagi ayvonlarning ochiq ravoqlari fazoviy jihatdan asosiy zalning hajmi bilan bog'liqdir.

Xonaqoh kompozitsiyasida asosiy zalning gumbazi alohida ahamiyatga ega. Gumbaz tashqi sirtda kengroq bo'lgan sakkizyonlikka tayanadi. Uning (sakkizyonlikning) qalin devoridagi ravoqlar, tuynuklar zalning ichini yoritib turadi. Ichkarida gumbazosti bag'allari jozibali to'qimani hosil qiladi. Sakkizyonlik ravog'lari o'zlarining umumiyl balandliklarini saqlagan holda tepa (linga) qismlarida ikkitadan bo'lib ajralishib ketishgan. Birinchilari (tashqilar) odatdagidek vertikal holatda chiqarilgan. Ikkinchilari (ichkilari) o'zlarining eng tepa nuqtalarida zal markazi tomon bir metrdan ortiq masofaga qochirib ishlangan. Shuning hisobiga gumbaz kosasining diametri sakkizyonlikdagi qarama-qarshi yonlarining oraliq masofasiga qaraganda uch metrdan kamdir. Gumbazning ichki sirti asosan islimiy naqsh bilan to'ldirilgan. Pasti esa muqarnasli, kichik yarimgumbazchalar shodasi

bilan hoshiyalangan. Fayzobod xonaqohi xonaqohlar me'morligining o'ziga xos kompozitsiyali xush bichim namunasidir.

Karmanadagi Qosim shayx xonaqohida o'ta markaziy kompozitsiyada xal etilgan.

XVII asrda Samarqandda Registonda qayta qurish ishlari olib borildi. O'sha davrda Ulug'bek inshootlaridan faqat madrasagina qoldi. Xonaqoh o'rnida Sherdor madrasasi, karvon saroy o'rnida Tillakori jome - madrasasi barpo bo'ldi. Qo'loxfurushlar timi joyida Chorsu binosi qurildi.

Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi bunday tipdagi inshootlarning shakllanish jarayonining nihoyasini yuksak cho'qqisini belgilagan yodgorlikdir. Madrasa hovlili, to'rt ayvonli kompozitsiyasining barkamol namunalaridan biridir. Hozirgi vaqtida ikkinchi qavati saqlanmagan. Old tomonidagi dastlabki tarzini qanday bo'lganligini undan nusha olgan qarshisidagi Sherdor madrasasining tarziga qarab tasavvur qilish mumkin.

Sherdor madrasasi Ulug'bek madrasasigi qaraganda kichikroq. Uning asosiy tarzini ko'p jihatdan old tomonidagi ikki zalning ustidagi g'arovli gumbazlari belgilaydi.

Tillakoriy madrasasi asosan g'arb tomondagi jome masjididan va boshqa tomonlardagi hujralar qatoridan iborat. Kiraverishdagi bosh peshtoqi o'zining zamonasi – XVI - XVII asrlar uslubida, ya'ni burchaklari kesik xolda xal etilgan.

Samarqanddagi Chorsu binosi undan ko'chalar taralishiga mos ravishda kompozitsiyaga egadir. Gumbazli, xar tarafga ravoqlar bilan ochilgan.

Samarqandda yana Abdi Berun majmuasi shakllangan bo'lib, unga maqbara, xonaqoh namozgoh kabilar kiradi.

Qarshi shahrida ham XVI-XVII asrlarda bir qancha inshootlar barpo bo'ldi. Registon maydonida Odina masjidi qurildi. Shaharda qo'sh gumbazli namozgoh qurildi. Shahrisabzning hozirgi kungacha qadimiyligi ko'chalarining chorrahasida savdo tizimi bo'lgan Chorsu saqlanib kelgan. Markaziy kompozitsiyali savdo binosi bo'lgan Chorsu shaharni shimoldan janubga, sharqdan g'arbga yo'nalishda o'tgan ikki asosiy

ko‘chalarining kesishgan joyida o‘rnashgan. Bu xol binoning to‘rttala tomonlaridan o‘qlar bo‘yicha kirishni tashkil qilish asosidagi me’moriy yechimni belgilab bergan. Obida 1598-1602 yillarda qurilgan. Chorsuning o‘lchamlari 21,0 x 21,0 metr bo‘lib, to‘rttala tomonlari peshtoqlar bilan ajratilgan. Ular kompozitsiya o‘qlari bo‘yicha joylashgan. Darvazaxonalar inshootning o‘rtasidagi tomonlari 11,85 m bo‘lgan kvadrat tarhli xonaga olib boradi. Xona burchaklari kesik. Diagonal yo‘nalishdagi yo‘laklardan burchaklaridagi savdo xonalariga o‘tiladi. Chorsu uchli (sferokonik) gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz markaziy xona burchaklaridagi ravoqlarga tayanadi. Darvozaxonalarda esa bag‘allar rombsimon bo‘lib, unda g‘ishtlar archasimon shaklda terilgan. Binoning umumiy balandligi 14 metrga teng.

Termiz shaharida XVI-XVII asrlarda qator imoratlar bunyod etilida. Ular ichida Sulton Saodatning ham g‘ishtdan xonaqoh qurilishi bilan majmua to‘la yakunlanib bo‘ldi.

XV – XVI asrlardagi binolar negizida shaharning funksional va kompozitsion – badiiy yaxlitligini ta’minlovchi Chorsu, Hazrati Imom, Shayxontahur, Zaynuddin buva, Zangi ota majmualari barpo bo‘la boshladи.

Toshkentdagи Chorsu majmuasi Xoja Ahror Vali tomonidan qurdirilgan jome (Matjome), madrasa (saqlanmagan) va Ko‘kaldosh madrasalaridan tashkil topdi.

Xazrati Imomdagи Baroqxon madrasasi oldin qurilgan ikki maqbarani o‘z ichiga olgan: kichigida dafn etilgan shaxs noma’lum; kattasi esa Suyunijxon maqbarasi bo‘lib, uning baland gumbazi (Ko‘k gumbaz, o‘tgan asrda qulab tushgan, hozirda tiklangan) o‘tmishda ham uzoqlardan ko‘rinib turishi manbalarda qayd etilgan gumbaz atrofni fazoviy uyushtirishda katta kompozitsion rol o‘ynagan.

XVI asrda barpo bo‘lgan Toshkentdagи ahamiyati katta bo‘lgan, nufuzli inshootlar bezagida, xususan Chorsudagi Ko‘kaldosh madrasasida, Xazrati Imomdagи Qaffol Shoshiy maqbarasida, Qoratoshdagi hammomda (poydevori saqlangan) rangdor koshinlar qo‘llanilgan.

Toshkentda mazkur davr mobaynida qurilgan yodgorliklar qatoriga Qorasaroydagи Ibrohim ota maqbarasi kiradi. U shu nomli qabristonda joylashgan.

Obida XVII asrga oid deb taxmin qilinadi. Ba’zi rivoyatlarga ko‘ra Xo‘ja Axmad Yassaviyning otasi bo‘lgan. Maqbarada jasadning bor-yo‘qligi hozirchalik noma’lum. Og‘zaki ma’lumotlar bo‘yicha Sayramda va Toshkent – Jambul yo‘li bekatida yana ikkita Ibrohim ota maqbaralari bor.

Toshkentdagি Ibrohim ota maqbarasining tashqi o‘lchamlari – 6,7x9,3 m, balandligi esa (gumbazi bilan) – 10,0 m. Oldi ravoqli peshtoq bilan belgilangan. Ichida, to‘rt tomonlarida to‘rt taxmon mavjud: g‘arb va sharq devorlarida sayoz, shimol va janubda chuqurroq. Yorug‘lik eshik tepasidagi va g‘arb tomonidagi ko‘rkam panjaralardan tushadi. Bino ichida ham, tashida ham panjaralardan bo‘lak bezak yo‘q. Maqbaraning g‘arb tomonidagi eshikdan zina orqali chillaxonaga tushiladi. Uning tarhi diametri sal kam 3 m doira shaklidadir. Chillaxonaning balandligi ichkarisidan 2 m bo‘lib, uning yarmisi erga kirgan. Aylana devorining g‘arbida soddagina mehrob mavjud. Ibrohim ota maqbarasi nisbatlarining mutanosibligi va nafis panjaralari bilan o‘ziga xos badiiy qiymatga ega.

XVI-XVII asrlarda me’morligi o‘zining ratsionallkka intilishi bilan xarakterlanadi. U majmualarni tashkil etishda xilma-xil turli vaziyatrlarni inobatga oladigan kompozitsion sxemalarni ishlab chiqdi. Xonaqohlar me’morligi muammolarini xal etdi.

XVIII – XIX ASRLAR O‘RTALARIDAGI ARXITEKTURA

XVIII asrda Turkiston yerlarida davlatning yaxlitligi yo‘qoldi. Bunga siyosiy berqarorlik va o‘zaro urushlar asosiy sabab bo‘lgan edi. Yagona davlat o‘rniga birnecha davlat va davlatchalar vujudga keldi. Bir shaharning o‘zida ham yagona hokimiyati bo‘ligan hollar ham uchragan. Bunga misol Toshkentning chorhokimlik davri. Vaziyat ayniqsa XVIII asrning birinchi yarmida va o‘rtasida og‘ir edi. Ba’zi shaharlik oilalar chekka joylarga ko‘chib qishloqlarda qo‘nim topgan. Bir vaqtlar savdo, tijorat, qurilishlar kechayu – kunduz tinmagan Samarqandda tarixchilarning yozishicha bir necha o‘n oilagina qoldi. Burun salobatli, bu vaqtda qarovsiz qolgan

madrasa, masjid kabi jamoat binolari to‘kilayozdi. Ayrim hollarda jamoat binolari o‘z funksiyasida foydalanilmadi; masalan, Toshkentdagি Ko‘kaldosh madrasasi bir muddat molxona sifatida foydalanilgan.

XVIII asrning oxirgi kelib siyosiy axvol nisbatan yaxshilanadi. Turkistonda uch asosiy davlatlar: Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligi vujudga keldi. Vaqt – vaqt bilan boshqa davlatlar vujudga keldi. Misol tariqasida shaharda chorhokimlikka barham bergen Yunusxo‘ja tashkil etgan Toshkent davlatini keltirsa bo‘ladi. Unga Chirchiq va Oxangaron vohasidan tashqari janubiy Qozog‘iston yerlari ham qo‘shilgan edi. XIX asr boshlarida Toshkent davlati Ko‘qon xonligi tarkibiga kirdi. Umuman olganda bu davrlar Abdulla Qodiriy ta’biri bilan aytganda, tariximizning «qora kunlari» edi.

Ba’zan, Mustaqillikdan oldingi tadqiqotlarda XVIII asrdagi siyosiy inqirozni (xonliklararo nizolar, ko‘chmanchi qabilalar hujumi, iqtisodiy tanglikni) madaniy inqiroz bilan barobarlashtirildi. Ularda xalq ustalari me’morlikda hamisha yangi va yangi me’moriy kompozitsion yechimlarga erishganliklarini e’tirof etilgan holda monumental arxitekturada me’morlarning ijodiy tafakkuri go‘yo turg‘unlikka uchraganligi to‘g‘risida yozildi. Biroq XVIII asrning me’moriy merosi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy tanglik sharoitida ham me’morlar oz moddiy va badiiy sarf bilan ham yuksak darajadagi qiziqarli me’moriy asarlar yaratishgan. XVIII – XIX asrlarning me’moriy merosi o‘zidan avval o‘tgan davrlarinikidan farqli bo‘lgan jihatlari mavjud. Tabiiyki, inshoot qanchalik tarixan uzoq davrda yaratilgan bo‘lsa, shuncha bizgacha etib kelish ehtimoli kamroq. Hozirgi saqlangan me’moriy obidalar ichida talayginasi ushbu va undan keyingi davrlarga taaluqlidir. Vaholanki, yuqorida zirk qilingan tadkikotlarda ushbu asrda siyosiy – iqtisodiy inqiroz tufayli arzigulik obidalar yo‘q degan xulosaga olib kelinadi. Barcha obidalarning salmoqli qismi ushbu ikki asr me’morligi tiynatini ko‘p jihatdan belgilaydi. Bu me’morlikda maxobatli, yorqin koshinlar bilan bezalgan inshootlar kam. Lekin ko‘proq sinch va paxsadan foydalanib, ommaviy ravishda qurilib kelingan inshoot tiplarining namunalari ko‘p. XVIII asrdan avval yaratilgan va butunligicha saqlangan xalq

me'morligining namunasi sifatida faqatgina Buxorodagi Baland masjidigina (XVI a.) ma'lum va mashhurdir.

XVIII asr oxiri – XIX asr o'rtasidagi davrda ham insonninghayoti kechadigan turli xillardagi me'moriy muhitni yaratishdekkatta muammoning yetarli qamrov bilan xal etilganliginiko'rindi. Albatta bunday masalalar avvalgi vaqtarda ham xaletilib kelingan. Biroq biz mazkur muammoni faqatgina shu davrgamansub yodgorliklaridagina to'la o'z ifodasini topganligini guvohibo'lamiz. Chunki, yuqorida aytilganidek faqatgina ushbu davrdanme'moriy muhitning asosiy qismini tashkil etadigan hamda o'ziga darrov jalb etadigan monumental me'morlikdan boshqa me'morlik, diqqatni o'ziga unchalik darrov tortmaydigan xalq me'morlik namunalari: turli turar uylar, maxalla masjidlari, mo'jaz madrasalar, xammomlar kabi juda ko'p marotabalab quriladigan inshootlar bizgacha etib kelgan. Agar ta'bir joiz bo'lsa, bu davrdagi me'morlikning nafaqat uzuk ko'zi, balki uzukning o'zi ham bizgacha etib kelgan. Bu muhit deyarli xamisha (ayrim hollar bundan mustasno) odamlarning turmush tarziga, estetik tushunchalariga, mahalliy iqlimga va tabiiy muhitga o'ta muvofiqligi bilan ajraladi. Bunga faqatgina o'tmisht asrlarining tajribalariga tayanibgina erishilgan albatta. Muvofiqlik barcha miqyosdagi arxitekturaviy muhitlarni - shaharsozlik miqyosidagi asarlardan tortib alohida olingan inshoot miqyosidagi asarlarni o'z ichiga qamrab oladi.

XVIII-XIX ASR O'RTASI SHAHARSOZLIGI

O'ttan davrdagi kabi bu davrda ham istiqomat joylarining ikki asosiy xili: shahar va qishloq bo'lgan. Adabiyotda va og'zaki nutqda muzofot, kasaba, kent, mahalla (alohida olingan manzilgoh sifatida), yozloq, ovul kabi iboralar ham uchraydi. Biroq ularning ilmiy shaharsozlik tariflari hozirgi kunga qadar ishlab chiqilmagan. Shahar va qishloqlarning mavqeい, qiyofasi va jihatlari ularning Turkiston hududidagi, karvon yo'llar joylashganligidan kelib chiqadi.

Odatda vohalardagi shahar va qishloqlar o'zaro bog'langan bo'lib yagona sug'orish tizimi bilan ta'minlangan edi. Masalan, Chirchiq daryosi tevaragidagi,

shimoliy - sharqda joylashgan Niyozbek qala (hozirgi Chirchiq shahari o‘rnida) va janubi – g‘arbda Eski Qovunchi qishlog‘i (hozirgi Yangi yo‘l shahari) bilan chegaralangan hudud Toshkent shaharining dehqonchilik qilinadigan yerlari deb hisoblangan. Antik va undan keyingi davrlarda odatda bunday dehqonchilik vohalari uzun devorlar bilan o‘ralgan.

Ko‘pgina shaharlar bo‘lib o‘tgan XVIII asr boshidagi siyosiy – iqtisodiy inqirozdan keyin o‘zlarini tiklab oladilar. Yangi shaharlar barpo etiladi. Jumladan, Shahrixon XIX asrda vujudga kelgan shaharlardandir. Ba’zi shaharlar o‘zlarini kichikroq miqyosda o‘nglanib oladidat. Ariqlar qazilib (masalan, Toshkent tevaragidagi Xonariq) yangi manzilgohlar barpo etiladi. Chunonchi, Rusiyaning bosqinchiligiga qarshi tadbir sifatida Sirdaryo bo‘ylarida Qo‘qon xonligi tomonidan qal’alar tizimi barpo etiladi. Ularning ichida eng mashhuri – Oq masjid qalasi bo‘lgan.

Turkistonning ba’zi shaharlari to‘g‘risidagi chor ma’muriyati keltirgan statistik ma’lumotlarni taxlil qilishda quyidagi vaziyatga e’tibor berish kerak. Mustamlakachilar shunday ish olib borganki, uning natijasida aholisi ko‘proq bo‘lgan, qadimiy shaharlar shahar deb tan olinmay, kolonial maqsadlarda barpo etilgan, aholisi kam bo‘lgan joylar esa shahar hisoblangan. Bunga o‘xshash statistika sovet davrida ham davom etdi.

Aholi joylarda hududiy – ma’muriy bo‘linish katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shaharlar odatda yirik va mayda, qishloqlar esa faqat mayda shaharsozlik birliklarga bo‘lingan. Bu bo‘linmalar turli nom bilan yuritilgan. Buxoro 12 jarib yoki mahalla, Samarqand 4 qita, Qo‘qon, Marg‘ilon, Toshkent shaharlari 4 daxa deb nomlangan yirik bo‘linmalarga taqsimlangan edi. Yirik bo‘linmalar o‘z navbatida maydalariga bo‘lingan. Bular ham turli joylarda turlichay nomlangan. Buxoro, Samarqand, Qarshi kabi shaharlarda – guzar; Qo‘qon, Marg‘ilon, Toshkent kabi shaharlarda – mahalla, Xorazmda esa –*masjid* (*masjidkavm*) deb atalgan. Demak, «mahalla»iborasi qo‘llanish joyiga qarab ikki ma’noni bildiradi: Buxoroda – bu yirik bo‘linmani, boshqa shaharlarda esa mayda bo‘linmani anglatgan.

Shaharlarning asosiy qismlari aksari mahallalardan (mayda bo‘linmalardan) iborat bo‘lgan. Mahalla umumiy erda joylashib kundalik hayotda o‘zaro yordam berish tamoyili asosida tashkil topgan ijtimoiy birlikdir. Mahalla ko‘pincha ko‘cha yoki bir necha ko‘cha yonlaridagi xonadonlarni birlashtirgan. Ularning markazida – guzarida hovuz, masjid (aksari maktabi, ba’zan madrasasi bilan), choyxona, novvoyxona va boshqa kundalik ehtiyoj uchun qurilmalar bo‘lgan. Mahalla ishini oqsoqol, imom, dasturxonchi va qarovul kabi lavozimlardagi shaxslar olib borgan. To‘y - ma’raka uchun mahallaning mulki: qozon, idish – tovoq, tobut va boshqa uskunalar bo‘lgan.

Mahallalar hududidagi qurilmalarining zich-siyrakligi, funksiyasi, jihatidan bir xil bo‘lмаган. Shaharlarning geometrik markazlaridagi mahallalarda qurilmalar zich bo‘lgan. Shahar aholining asosiy qismi savdo va hunarmandchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Shaharning chetlaridagi mahallalar dalasifat: qurilmalari siyrakroq, hovlilari kengroq, serdaraxt bo‘lgan.

Keyingi vaqtida me’morlik tarixi fanida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ba’zi tarixiy shaharlarda zikr etilgan yirik va mayda bo‘linmalardan tashqari yana boshqa, o‘rtacha bo‘linmalar mavjud ekan. Ular bir qancha mayda bo‘linmalardan tashkil topgan. O‘rtacha bo‘linmalar Marg‘ilonda – *o‘ram*, Xo‘jandda – *roat* deb atalgan. Demak, oldin qayd etilganlarni nazarga olsak Marg‘ilonda ikki shaharsozlik bo‘linishi emas, balki uch pog‘onali: daha – *o‘ram* – mahalla tartibidagi bo‘linish qaror topgan deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Undan tashqari mayda bo‘linmalar ham bir necha qismlarga – ko‘chalarga ajratilishi mumkin. Masalan, XX asr boshlarida Toshkentdagи Mergancha mahallasi bir necha ko‘chalarga bo‘linganligi ma’lum.

Kezi kelganda shuni aytish mumkinki ilmiy – me’moriy adabiyotda umumiy qilib (O‘rta Osiyo shaharlariga nisbatan) yirik shaharsozlik bo‘linmani – “daha”, o‘rtancha bo‘linmani – “*o‘ram*”, mayda bo‘linmani “mahalla”, uning jamoat markazini – “*guzar*” deb atash maqsadga muvofikdir.

Shaharlar o‘tmishda qo‘rg‘on devor bilan chegaralanib turgan. Ular shaharlarni mudofaa qilish va shartli ravishda ma’muriy chiziq vazifasini o‘tagan. Shartlilik

shundan iboratki, yuqorida aytib o‘tilganidek ko‘pgina shaharlar qo‘rg‘on devoridan tashqaridagi tevarak bilan funksional jihatdan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Shahar devorlarning ko‘proq paxsa va xom gishtdan qurilgan bo‘lib, qalinligi tepaga qarab ingichkalashib borgan. Odatda devorlarning tepe sathishunday bo‘lganki, uning ustida navkar, ba’zan ikki otliqyonma – yonyura olgan. Devorning tashqi tomonida kunguralari bo‘lgan. Kunguralar birinchidan, shaharning qamal vaqtlarida himoyachilarni dushman uqidan to‘sib turish vazifasini o‘tasa (funksiyasi), ikkinchidan, uning ko‘rinishida ritm hosil qilib tarzini joylantirib turgan (estetikasi). Devor sirtidan tashqariga bo‘rtib chiqqan burjlar ham funksional (devor tagiga kelib qolgan dushmanga o‘q uzish) ham badiiy – me’moriy (devor tekisligining plastikasini boyitish) vazifalarini o‘tagan. Muhammad Soliq Toshkandiyning “Jadidai tarixi Toshkand” asarida shahar devorining boshqa unsuri – *baru* tilga olinadi.

Shaharda darvozalar aholini tashqi dunyo bilan bog‘lab turgan. Ular shahar markazidan tarqalib tevarakdagi yo‘llarga aylanib ketadigan ko‘chalarining qo‘rg‘on devor bilan kesishgan joylarida qurilgan. Darvozalar ravoq shaklida bo‘lgan. Odatda ikki yoni burjlar bilan mustahkamlangan edi. Darvozaning o‘zi esa ikki tabaqali bo‘lgan. U aksari ravoq shaklining ichida joylashtirilgan. Darvozalar kechasi yopilib, kunduzlari ochilgan. Darvozabonlarning xonalari ko‘proq darvoza yo‘lagining ikki tomonida joylashgan. Nisbatan yaxshi saqlangan darvozalardan biri Buxoroning Shayx Jalol darvozasidir. Unda darvozabonlarning xonalari bo‘lib, tarkibida ayvon ham mavjud. Xivaning rabod devorida Qo‘sh darvoza nomli darvoza bo‘lib, u odatdagilardan ikki yonma – yon o‘rnatilgan darvozalaridan tashkil topganligi bilan ajraladi. Qo‘sh darvoza o‘zining originalligi, ko‘rkamligi bilan boshqalardan ham farqlanadi. Oshkora, diqqat tortadigan darvozalardan tashqari shahar devorlarida ko‘zga tashlanmaydigan eshiklar ham bo‘lgan. Toshkentda ular *qopqa* nomi bilan atalgan. Shunga ko‘ra, Toshkentni «32 qopqali» shahar deyishgan.

Ko‘p hollarda shahar devorlari bo‘ylab tashqi tarafdan suvga to‘ldirilgan zovur – *handaq* bo‘lgan. Xandaq ham devor kabi shaharning muhofazasini ta‘minlovchi qo‘rg‘on me’moriyasining bir tarmog‘i sifatida qadimdan ma’lum. Masalan,

Xorazmdagi antik davrga mansub Jonboz qal'a, Tuproq qal'a shaharlarida ham handaqlar bo'lgan. Aniqroq aytilsa, handaqlar antik davrdan ham qadimiyroqdir. Aksari handaqlar shahar devori paxsasi uchun tuproq qazib olinishi natijasida hosil etilgan.

Yirik shaharlarda hokim qarorgohlari – qal'alar (ark, o'rda) bo'lib, ular shaharning boshqa qismlaridan ajralib turgan. Joylashuvi turlicha bo'lgan. Buxoro kabi ba'zi shaharlarda dastlabki qal'a bu vaqtga kelib ham tarixiy o'rnini saqlab qolgan. Boshqalarida esa qal'a ko'chib yurgen. Ular sirasiga Samarqand, Toshkent kabi shaharlarning qal'alarini kiradi. Aksariyat qal'alar shaharning qo'rg'on devorlariga tutashgan. Xivada qal'a (ark) shahriston – Ichon qal'a devoriga g'arbdan tutash bo'lgan, Olloqulixon tomonidan Ichon qal'aning sharqida, Polvon darvoza yonida bir necha o'zaro tutash imoratlar solingandan keyin (ular ichida saroy – Tosh hovli ham bor) qadimgi qal'a Ko'hna ark nomi bilan atala boshlandi.

Turli shaharlarning qal'alarini tarkiblarida umumiylilik mavjud. Aksari ularda nog'oraxona, jilovxona, xaram, arzxona (rasmiy qabullar uchun), zarbxona (tanga zarb etish uchun), masjid kabi binolar, sarbozlarning mashqlari uchun maydon bo'lgan. Binolar funksiyalariga qarab ratsional holatlarda, hajmiy – jihatdan yaxlit muhitda o'zaro biriktirilgan.

O'rta Osiyodek iqlimi issiq mintaqada suvning ahamiyati beqiyosdir. Shaharning suv tarmog'i boshida bir yoki ikki bosh ariq turadi: Buxoroda – Shohrud, Samarqandda – Siyob, Xivada – Polvon yob, Marg'ilonda – Marg'ilonsoy, O'ratepada – Kattasoy, Toshkentda – Bo'zuvningikki tarmog'i – Kalkovuz va Anhor kabi Xo'jand esa Sirdaryoning o'zidan suv ichadi. Daryo va bosh ariqlardan yon ariqlar ajraladi. Ulardan ham maydalanib borgan ariq deyarlik har hovligacha etib borgan va shahardan chiqib ketgan. Xar xonodon ariq orqali suv o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan. Shariat taqozo etgan holatda qo'shnining hovlisi orqali o'tkazishga xaqli bo'lgan. Bu rioya qilinishi shart bo'lgan odat *obraha xaqi* nomi bilan ma'lum. Ariqlarning yo'nalishi arning past –balandligiga bog'liq bo'lgan va shaharning ko'p joylarda ko'cha bo'ylab o'tgan. Iste'mol uchun suvni aholi aksar

katta va kichik hovuz va hovuzchalardan olgan. Oqar suvdan tashqari buloq va quduqdan ham foydalanilgan. Xivaning Bog‘cha darvozasi oldidagi quduq, Toshkentda Chorsuda Dukkosha bulog‘i ma’lum va mashhurdir. Suv inshootlarining yaxshi holatda saqlanishiga alohida e’tibor berilgan.

Turkiston shaharining ko‘rkamligini ko‘p jihatdan bog‘lar ta’minlagan edi. Bog‘larga asosan mevali daraxtlar ekilgan. Ular ko‘proq shahar chekkalarida va qo‘rg‘on devor tashqarisida ishg‘ol etgan. Yuqorida zikr etilgan mavze va bog‘otlarning asosiy qismini bog‘lar, polizlar tashkil etgan. Ularning orasida dala hovlilari (uylar) joylashar edi.

Shaharlarning me’moriy qiyofasini undagi turli xildagi binolar shakllantirgan. Qurilmalarning eng ko‘p tarqalgan xili turar uylar (hovlilar) edi. Shahar markazida odatda uylar zinch, hovlilari tarroq bo‘lib, chekkasiga kelib uylar siyrakroq, hovlilari keng bo‘lgan. Dala hovlilari esa tarkoq, onda – sonda uchragan.

Qadimgi shaharlarning tarhlarida ko‘chalar yuzaki qaraganda betartib va tasodifan paydo bo‘lgandek tuyuladi. Aslida esa ko‘chalarning tizimi shaharning joylashuviga, past – balandliklariga, irrigatsiyasiga va muayyan tarixiy sharoitga qarab shakllangan. Ularda mantiqiylik, ratsionallik, ayni vaqtda o‘ziga xos badiiylik mavjud.

Shaharlarning tarhiy tuzilishi aksari quyidagicha bo‘lgan. O‘rtada shaharning asosiy markazibo‘lmish bozor joylashgan. Registon ham shu yerda bo‘lgan. Bosh, birinchi darajali ko‘chalar markazdan radial yo‘nalishda tarqalgan. Ular odatda shaharning qo‘rg‘on devoridagi darvozalar mavjudligi bilan ajraladi va devor ortida boshqa shahar va qishloqlarga olib boradigan yo‘lga aylanib ketadi. Bosh ko‘chalar bir muncha to‘g‘riliqi hamda biroz kengligi bilan xarakterlanadi.

Bosh ko‘chalarning ichida ham asosiylarini ajratish darkor. Ular karvon yo‘llari negizida tashkil topgan, yaxlit yo‘nalishdagi bir yoki ikki juft bosh ko‘chalardan hosil bo‘ladi. Bosh ko‘chalarga ikkinchi va uchinchi darajali ko‘chalar tutashtirilgan. Oraliqlarida mayda ko‘chalar hosil bo‘lgan.

Ko‘p hollarda shaharning qo‘rg‘on devorlari o‘rnida xalqa yo‘l shakllangan. Uning sodir bo‘lishi shunday kechgan; turli davrlarga mansub bo‘lgan qo‘rg‘on devorlar bo‘ylab yo‘l paydo bo‘ladi, devor yo‘q bo‘lib ketgach yo‘l ko‘chaga aylanadi. Ko‘chalarning shakllari qo‘rg‘on devorlarning shkallariga monand ravishda to‘rburchakka va aylanaga yaqin bo‘ladi. Mavqeい jihatidan bunday ko‘chalar ikkinchi darajaliydlar. Odatda ular bosh ko‘chalar bilan birgalikda shaharning radial – halqa sxemasini tashkil qilgan.

Shaharning asosiy funksional (va aksar xollarda geometrik ham) markazi bozor edi. Unda nafaqat turli savdo yoki hizmat (charxchilik, chegachilik kabi) jarayonlari bajarilibgina qolmay, balki ba’zi hunarmandlar o‘z mahsulotlarini ishlab chiqargan. Masalan, temirchilar tesha, bolta kabilarni bozorda ham tayyorlaganlar, ham sotganlar. Bunday maskanlarda qurilmalarning asosiy tipi – do‘konlar bo‘lgan. Hunarmandlik joylari asosan *rasta*, ya’ni muayyan kasb – hunarga tegishli qator asosida tashkil bo‘lgan. Pichoqchi, baqqol, maxsido‘z kabi hunarmandlar o‘z rastalariga ega bo‘lishgan. Rastalar odatda oddiy do‘konlardan iborat edi. Shu bilan birga bozorda qurilmalarga xojat bo‘lmagan turli mahsulot bilan savdo qilish uchun ochiq maskanlar – maydonlar tayin qilingan edi. Masalan, un bozor, qo‘y bozorlar ochiq joylarda uyushtirilgan.

Yirik bozorlarda asosiy rastalar joylashgan savdo ko‘chalarining ustilari yopiladigan edi. Ular *tim* deb atalgan. Buxoro, Toshkent, Marg‘ilon, Shahrixonda shunday timlar mavjud bo‘lgan.

Bozor xordiq chiqaradigan joy vazifasini ham o‘tagan. Maddoh, masharaboz, polvon, dorboz kabilar o‘z san’atlarini namoyish etigan. Bozor choyxonalarida xonandalar, sozandalar, shoirlar to‘planishib turishgan, askiyabozlar hazil – mutoyiba qilishgan. Ramazon oylarida bozor kechalari ham davom etgan. Bunday bozor *bozori sha’b* – tungi bozordeb nomlangan.

Shaharlarning ijtimoiy – siyosiy mavqega ega maydonlari bo‘lgan. Ular Registon nomi bilan ma’lum. Registon maydonlari odatda bozor bilan birga (tarkibida yoki yonma – yon) bo‘lgan. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qarshi kabi shaharlar bunga

misol bo‘lishi mumkin. Turkistonda Registonlarning me’moriy jihatdan salobatligisi Samarqandda bo‘lgan.

O‘rta Osiyo shaharlarida yuqorida bayon etilgan umumiy jihatlari bilan birga, har biri o‘ziga xos individual shaharsozlik tizimga, me’moriy qiyofaga ega bo‘lgan.

Xiva shahari ikki qism - qal’adan: Ichan qal’a va Dishan qal’adan iborat bo‘lgan. Xivaning shahristoni bo‘lgan Ichan qal’a tarhda to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lib shimol – janub yo‘nalishiga egadir.

Shimolda Bog‘cha darvozasi, janubda Tosh darvozasi mavjud. Ularni ko‘cha birlashtirib turadi. Asosiy ko‘cha esa g‘arb – sharq yo‘nalishida o‘tadi. Ko‘cha mos ravishda Ota va Polvon darvozalaridan o‘tadi. Ota darvoza oldida qal’a – Ko‘xna ark joylashgan. Dishan qal’a Xivaning rabodi bo‘lib, Ichan qal’aning tevaragida, sharqdan g‘arbgan qarab cho‘ziladi. Xorazm xoni Olloqulixon (XIX asr o‘rtasi) aholini dushman hujumidan saqlash maqsadida Dishan qal’ani uzunligi 6 km bo‘lgandevor bilan o‘ratadi. Qurilishda Xorazm aholisining ko‘p qismi qatnashib, olti xhaftada bitqaziladi. Dishan qal’ada 10 ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra 12 darvozabo‘lgan. Xivada ko‘proq Xazorasp (yoki Quyi), Pishkanik, Bog‘i shamol, Shayxlar, Tozabog‘, Shoximardon, Dosh oyoq, Qo‘s, Gadoylar va Gandumiyon darvozalari zikr etiladi. Dishan qal’aning bosh ko‘chalari Ichan qal’a ko‘chalarini davom ettiradi. Shaharning bozor, tim va rastalari asosan Dishan qal’ada bo‘lgan.

Buxoro shahri Turkiston zaminidagi asosiy shahardan biri bo‘lgan. XVI asrda shakllangan holati asosan saqlangan. O‘zgarish ko‘proq qurilmalarning zichlanishi hisobiga bo‘lgan. Shaharning qo‘rg‘on devori ichidagi hududi o‘sha davrda, XVI asrda vujudga kelganicha qolgan. Tarhi umuman doiraga yaqin bo‘lib shaharning avvalgi yerlariga g‘arb tarafdan Jo‘ybor yerlari qo‘shilgach Buxoro tarhi cho‘zinchoqroq shaklni oldi.

Buxoroning markazi shaharning katta qismini egallagan edi. Bir – biriga tutashib ketgan qadimgihamda keyinroq vujudga kelgan madrasa, masjid, savdo binolari, karvon saroy, do‘konva boshqa jamoat binolaridan, gavjum ko‘cha va maydonlardan iborat edi. Binolarning katta – kichikligi, shakl – shamoyili bir – biriga

mos kelib uyg‘un kompozitsion yaxlitlikni tashkilqilgan edi. Hozirgi holatda markazning anchagina imoratlari, ayniqsa do‘kon va karvonsaroy kabi binolarning buzilishi natijasida avvalgi yaxlitligi yo‘qolgan. Markazdagi asosiy ko‘chalarning tugunlari (chorrahalar) gumbazli tim (toqlar bilan ajratilgan. Shahardagi ja’mi to‘rtta toqdan uchtasi: Sarrafon, Zargaron, Telpakfurushon toqlari saqlangan. Ko‘chalarning yo‘nalishi va binolar egallagan joylarning shakli murakkab ko‘rinishdagi chegaralari. uzoq o‘tmish mobaynida shakllangan. Shahar markazdagi Sarrafon hammomi bunga yaxshi misol bo‘la oladi. Nomuntazam shakldagi joyga me’morlar ustalik ila imoratni rejalashgan. Umuman er tanqisligi shahar uchun xarakterlidir. Shu sababdan ham shahar ichida daraxtlar oz edi. Oddiy ko‘chalardan arava o‘ta boshlaganda aravakash ko‘cha boshidan turib qarshidan boshqa arava kirmasligi uchun ovoz bilan darak bergen.

Shahar qurilmalarining zichligi xonadonlarning hajmiy – fazoviy tuzilishiga ham ta’sir etgan. Buxoro xonadoni o‘zining hajmdorligi bilan sifatlanadi. Hovlini ikki sathda tashkil etish usuli, nimayvon (ayvoncha) kabi kam joy oladigan ayvon turi keng qo‘llanadi. Hovli sathidan maksimal foydalanilgan. Hovlining kichikligi Xorazm uchun ham xarakterlidir. Lekin Xorazmda hovli kichik qilinishining sababi boshqa vajdandir. U erda noqulay iqlimi sharoit, atrofdagi sahro hovlida mo‘tadilroq iqlim yaratish zaruratidan kelib chiqqan.

Samarqand shaharining tarhida asosan o‘rta asrlar davridagi holat saqlannb qolgan. Shaharning badiyiliqi o‘ziga xos asosga ega edi. Ommaviy sodda qurilmalar ichidan onda-sonda ulug‘vor ko‘k (lojuvard) Temur va temuriylar davriga oid bino qoldiqlari yuksalib turgan.

Shaharning qo‘rg‘on devor ichidagi maydoni doiraga yaqin bo‘lgan. Uning geometrik markazi tarhda yaqqol ko‘zga tashlanadi. U oltiyonlik Chorsu binosi bilan belgilangan. Bosholti ko‘char Chorsu binosidan radial yo‘nalishda olti darvozaga olib borgan. Shaharning ma’muriy markazi bo‘lmish qal’a tomon ketgan ko‘cha muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning mavqeini bu ko‘chadagi Registon maydonining

joylashuvi hamko ‘rsatib turadi. Shimolda Bibixonim myo’moriy guruhiga, janubda Go‘ri Amirga olib boradigan ko‘chalarining ham ahamiyati baland bo‘lgan.

XVIII – XIX asrlarda Shahrisabz mustaqil beklikning markazi edi. 1870 yilda Buxoro amirligiga qo‘shildi. XIX asrda shahar qaytadan besh darvozali qo‘rg‘on devor bilan o‘rab chiqildi. Yangi darvoza Qalmoq darvoza deb nomlangan edi. Shahar tarhi hozirgacha asosan o‘sha davrdagi vaziyatni saqlab qolgan. Asosiy jamoat markazlari (ma’muriy zona, bozor, memorial majmular) orasini turli katta – kichik ko‘chalar kesib o‘tgan. Shahar aholisi qurilmalari zich bo‘lgan guzarlarda istiqomat qilgan. Ular kasb – kori, urug‘ – aymog‘iga ko‘ra guzar jamoasini tashkil qilishgan. Shahar organizmi arxitekturaviy birlikni tashkil qilib qaytariluvchan, «tipik» unsurlardan iborat edi. Ulardan shahar qiyofasini belgilovchi turar uylar va jamoat binolari turli me’moriy kompozitsiyalar tuzilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra shaharda 30 ming aholi istiqomat qilgan. Unda to‘rt mingga yaqin xonodon, oltmishto‘rtga guzar masjidi, 6 ta madrasa, 7 ta karvon saroy, ikkita hammom mavjud edi.

Shahrisabzdagi Chorsuning qurilgan aniq vaqt noma’lum. Ba’zi og‘zaki ma’lumotlarga ko‘ra hokim Niyozbek (XVIII asrning 80-yillari) tomonidan qurdirilgan. Chorsu tarixiy shaharning ikki asosiy: g‘arb-sharq yo‘nalishidagi (Kushxona va Kunchiqar darvazalari oralig‘ida) hamda shimol-janub yo‘nalishidagi (Kitob yoki Ark va Charmgar darvazalari oralig‘ida) ketgan, ko‘chalarining kesishgan joyida – chorrahada barpo bo‘lgan. Shaharda bo‘ylama ko‘cha muhimroq bo‘lib, Chorsudan shimolga ketgan ko‘cha hammomga va Registon maydoniga, janubga ketgan ko‘cha esa jome masjidi - Ko‘k gumbazga olib borgan.

Chorsu tarhi murabba (kvadrat) shaklidadir. To‘rt tomonlaridagi kiraverishlari hamda keng va oldinga chiqarilgan peshtoqlar ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ularning yonlaridagi bir juftdan qilingan devor ravoqlari bino tomonlarining plastikasini boyitib turadi. Har peshtoq ravog‘idan o‘tilgandan so‘ng keladigan darvazaxonalar kichikroq va pastroq gumbazlar bilan yopilgan. Darvazaxonalarining gumbazlari pastlaridagi bag‘allarga tayanadi. Chorsuning o‘rtasini katta xona (zal) egallagan bo‘lib, u ham

gumbaz bilan yopilgan. Xona gumbaz tepasidagi tuynukdan va sakkizyonlikdagi darchalar orqali yorug‘lik oladi. Xonaning burchaklari kesik. Ulardan 45⁰ burchak ostidagi yo‘nalishda balxiy gumbazlar bilan yopilgan do‘konlarga o‘tiladi. Bu ham binoning markaziy kompozitsiyasi yanada kuchaytiradi. Shahrisabz chorsusi bizgacha etib kelgan shaharlarnikidan o‘zining shaharsozlik mavqesini aniq va to‘la-to‘kis namoyon etishi bilan ajraladi.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, XVIII asrning 1-yarmida Toshkent ichki hamda tashqi qismlardan iborat bo‘lib, ular qo‘rg‘on devorlar bilan o‘ralgan edi. Qirqqa yaqin juma va juda ko‘p mahalla masjidlari bo‘lgan. Hokim qarorgohi o‘sha vaqtida Ko‘kcha dahasida joylashgan edi. Chorsu bozorida shahar ombori (juvaxona) qurilgan (Nurmuhammad ma’lumoti). Registon maydonida chetlariga xarsang tosh yotqizilgan, tomonlari 20 metr hovuz qayd etilib, uning chekkalarida katga – katta daraxtlar o‘sgan edi (Miller ma’lumoti). Chorhokimlikdan so‘ng, 80 – yillarda nurab qolgan qo‘rg‘on devor qayta tiklangan. Hokim Yunusxo‘ja qarorgohi Qoratoshda bo‘lgan (Eski O‘rda).

XIX asrning I - yarmida Toshkent har tarafga, ayniqsa sharqqa kenggaygan. Aholi o‘rnashgan bu joylar ko‘pinchalik «Yangi mahalla» yoki «Yangi shahar» deb atalib kelinadi. XIX asrning birinchi o‘n yilligida Anhor arig‘ining chap tarafida yangi O‘rda qurildi. O‘rdaning janubi – g‘arbiy burchagi turtib chiqqan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida (sharqiy devori - 540 m, janubiysi – 490 m) bo‘lgan. O‘rdaning ichida beklarbegi saroyi, sarbozlar maydoni, boshqa binolar joylashgan. O‘rda Gadrgan arig‘idan suv ichgan, unda talaygina hovuzlar bo‘lgan.

Aniqlanishicha, XIX asr o‘rtasida Toshkent qo‘rg‘on devorining balandligi 8 metrga etgan; tepasida ikki otliq bemalol yonma-yon yura olgan; “baru” va “burj” kabi muhofaza elementlari bo‘lgan. Qo‘rg‘on devor shimoldan Kalkovuz arig‘ining qirg‘og‘idan, janubi – sharqda Burjar arig‘ining yuqori bo‘ylab, janubda Zax arig‘ining shimolidan o‘tgan; Quyi Bo‘zuvning boshlanish joyini kesib, janub – shimol yo‘nalishida har tarafga ketgan. Qo‘rg‘on devor bo‘ylab shahar tashqaridan suv bilan to‘ldirilgan xandaq bo‘lgan edi. Devor saqlanmagan.

Tashqi yerlar bilan bog‘lanish uchun qo‘rg‘on devorda katta (darvoza) va kichikroq (qopqa) eshiklar bo‘lgan. Toshkentning o‘n ikki darvozalari: Ko‘kcha, Chig‘atoy, Sag‘bon, Qorasaroy, Taxtapul, Labzak, Qashqar, Qo‘qon, Qo‘ymas, Beshyog‘och, Kamolon, Samarqand darvozalari ma’lum. Qopqalar soni aniq emas. Biroq, burun Toshkent (og‘zaki va yozma manb’alarga ko‘ra) «32 qopqali» deb hisoblangan. Ba’zilarining nomlari aniqlangan: Teshik qopqa, Sarboz, Sherdor, Yangi mahalla, Hiyobon qopqalar.

Shaharda ko‘chalar ko‘proq to‘r ko‘rinishida tor bo‘lgan. Muhim ko‘chalar nisbatan to‘g‘ri bo‘lib, darvozalarni shaharning asosiy markazi – Chorsu bozori bilan bog‘lagan. Bular hozirgi Uyg‘ur, Forobiy, Sag‘bon, Qorasaroy, Samarqand darvoza ko‘chalaridir. Chorsuni O‘rda bilan, nariroqda Qashg‘ar darvozasi bilan ham birlashtiruvchi ko‘cha alohida ahamiyatli bo‘lib Katta ko‘cha, keyinchalik Tosh ko‘cha Fayzulla Xo‘jaev ko‘chasi nomlari bilan atalgan. Ko‘cha hozirgi Navoiy shohko‘chasiga o‘rniga to‘g‘ri keladi. Asosiy ko‘chalar shahar tashqarisida ham boshqa shahar va qishloqlarga olib boruvchi yo‘l sifatida davom etgan.

Toshkentda XVIII – XIX asrda qurilgan yodgorliklar qatoriga Chilonzordagi Xayrobod masjidi va maqbarasi, Beshyog‘och ko‘chasidagi Baland masjidi va madrasasi, Xalqlar do‘sligi saroyi oldidagi Abdul Qosim madrasasi, Xazrati-imom majmuasidagi Muyi muborak madrasasi, Tilla shayx (Chaqar) masjidi hamda shaharning turli yerlarida joylashgan Yalanqar, Ohanguzar, Kallaxona mahallalarining yirik masjidlari kiradi.

XVIII-XIX ASRLAR O'RTASIDAGI ME'MORLIK

XVIII-XIX asr 1-yarmidagi me'morlikda ashylardan yapaloq g'isht, yog'och, paxsa, ganch kabilar konstruksiyalardan turli tayanch-to'siqli, toq-gumbazli konstruksiyalar, bezaklardan koshin, turli o'ymakorliklar va naqqoshliklar keng qo'lamda qo'llanilishi bilan xarakterlanadi; bu davr me'morligida qiyosan mohabatli me'morlikka qaraganda ommaviy bino-inshotlar me'morligi – xalq me'morligi ahamiyatliroq bo'lgan.

Bu davr me'morligida xalq me'morligining ulushi nihoyatda katta.

Xalq me'morligi ko'proq mahallalarning markazlari bo'l mish guzarlar, mahalla masjidlari hamda shahar va dala turar uylari me'morligi bilan tavsiflanadi; unda xalq me'morlari tomonidan asrlar mobaynida sinab ko'rilgan va borgan sari takomillashib kelgan uslub qoidalar o'z aksini topgan.

Guzarlar tarkibida aksari oldida hovuzi blgan masjid (ayvoni yassi yopmali, honaqohi yassi epmali eki gumbazli), choyxona, sartaroshxona, novvoyxona va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun qurilgan ustaxona va do'konlar bo'lgan.

Mahalla masjidlari yopiq (honaqoh) va ochiq (ayvon) xonalardan iborat bo'lib, u deyarlik har doim yassi edmasdi yoki gumbazli edi; ayvon honaqohga bir tomon (old - sharq yoki yon-shimol taraf)dan ikki tomondan (odatda shimol va sharq taraf)dan yoyinki uchtonon, (old va yon taraf)dan tutashtirilgan; ustunlar 1,2,3 va undan ham ko'p qator (qadamli) vaziyatda o'rnatilgan.

Tuzilishi jihatidan Xiva, Buxoro va Farg'ona turar uylari alohida ajraladi; ular ikki: tashqari (berun), ichkari (darun) hovlilardan tashkil topgan; turar uylarning joylashuvi jihatdan doimiy foydalaniladigan rejaviy yechimi to'liq bo'lgan shahar turar uylari hamda mavsumiy foydalaniladigan, rejaviy yechimi soddarоq dala turar uylari xillariga bo'linadi; sarflanadigan mablag' va hajm jihatidan oddiy turar uylar (xalq me'morligiga oid) va saroy (mahobatli me'morlikka oid) me'morligini farqlash lozim.

Buxorodagi Ark, Bolohovuz masjidi, xalifa Niyoqzul (Chor minor) va Amir Olimxon madrasalari, Xalifa Xudoydod majmualari kabi misollar o'z aksini topgan.

Xiva xonligi me'morligida o'ziga xoslik jihatdan yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xiva xonligi me'morligini Ichan qal'adagi Ko'hna ark, muhammad Aminxon madrasasi, Juma masjid (kompozitsiyasi Xazoraspning Juma masjidda ham takrorlangan), Tosh hovli Palvon darvoza oldidagi majmua (karvon saroy, tim, madrasa, darvoza), Pahlavon Mahmud maqbarasi, Sherg'ozixon madrasasi, oq masjid kabi binolar, Dishan qal'adagi Sholikorboy, Bog'bonli masjidlari kabilar misol tahlil qilish lozim.

Xiva shahari keng ko'rinishli (ponorama)siga minoralar alohida o'rinni egallaydi. Xivadagi Kalta minor (Muhammad Aminxon tarkibida), Juma va SHolikorboy masjidlari minoralari bir chiziqda joylashgan bo'lib, Ota va Polvon darvozalaridan o'tgan shaharning asosiy ko'chasini belgilab turadi.

Juma masjidi – Ichan. qal'aning markaziy qismida joylashgan jome'dir. Aniq sanasini ko'rsatish qiyin. X asrdayoq Xivaning Jome' masjidi hozirgi obidaning o'rnida bo'lган. Jome' masjidi asrlar davomida o'zgargan. Buzilgan qismlari pesh tiklanib borilgan. XIII asr oxirlarida Jome' masjidi kengaytiriladi va shimoli – sharqiy tomoniga minora quriladi.

Masjid (tomonlari 55 m. x 46 m.) bir qavatli imorat bo'lib, ichi yaxlit bir xonadan iborat. Tomdag'i ikki tuynugi xona ichini xira – shira yoritadi. Shift3,15 m x 3,15 m xonalarga bo'linib uni 212 ustun ushlab turadi. Masjidning mehrob qubbasidagi soddaroq ganchkor bezak, uyning atrofidagi rang – barang gulsafsar va natmatak suratlari, o'sha mehrob yaqinidagi shiftning naqshlari XIX asr oxiri va XX asrga oid. Masjidning asosiy bezagini baland va past toshlarga o'rnatilgan xilma – xil ustunlar tashkil etadi. Ustunlar turli devorlarda ishlangan, ba'zilari esa boshqa masjidlardan keltirilgan. Eng qadimiy davrdan 16-17 ustun saqlangan xolos. Ular o'g'irga o'xshash kallasining ko'zagidagi bargsimon shakllariiing nafis o'yma naqo'lari bilan ajraladi. Ayrim, keyingi davrlardagi ustunlar qadimiylariga o'xshash qilib o'yilgan. Ularning o'ymakorligi ijro etilganligi bilan asl qadimiylardan farqlqnadi. Qolgan ustunlar ko'p marta yangilangan. Ular ham turli asrlarga mansub.

Juma masjididagi ustunlar orasida Xiva yog‘och o‘ymakorligining turli rivoj bosqichlaridan namunalar mavjud. Ular xalq ustalarining o‘tkir zehn va did sohiblari bo‘lganliklaridag dalolat beradi.

Qo‘qon xonligi me’morligining rivoji Buxoro ustalarining xizmtlari katta bo‘lgan. Qo‘qon xonligi me’morligiga xos jihatlar Qo‘qon shahridagi O‘rda, Jome masjidi, norbutabiy madarasasi, Daxmal Shohon hazirasi, Marg‘ilondagi Xo‘ja Mag‘iz maqbarasi, Pir Siddiq (Kaftarlik) majmuasi, Namangandagi Xo‘ja Amin qabri maqbarasi kabi bino va inshootlarda o‘z aksini topgan.

XIX ASR OXIRI – XXASR BOSHI ARXITEKTURASI

Turkiston yerlari Rossiya tomonidan bosib olingandan keyingi zamonni ikki davrga ajratish mumkin. Bu davrlarning chegarasi XX asrning birinchi o‘n yilligiga, temir yo‘l qurilishi vaqtiga to‘g‘ri keladi. Birinchi davr - XIX asrning oxiri, ya’ni etmishinchi – to‘qsoninchi o‘n yilliklar bino va inshootlarning xillaridagi va konstruksiyalari hamda qurilish ashyolaridagi dastlabki o‘zgaruvlar bilan xarakterlanadi. Ikkinchi davr - keyingi asrning boshi bo‘lib, unda o‘zgaruvlar yanada kengayadi va chuqurlashadi.

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHI SHAHARSOZLIGI

Turkistonda XIX asrning 60-yillardan boshlab ayrim qadimiy shaharlarning chekkalarida, yonlarida yoki ulardan biror masofada «yangi shahar» lar paydo bo‘ldi. Shuni ham aytish joizki, “Yangi shahar” va “Yangi mahal” iboralari chorizm istilosidan oldingi davrda ham shahar darvozalari oldilarida XIX asr boshida vujudga kelgan shahar qismlariga ham ishlatilgan. Masalan, Toshkentdaggi Yangi shahar Qiyot nomli mahalla chorizmdan oldingi vaqtida vujudga kelgan. Samarqandda va Toshkentda dastlabki «yangi shahar» lar qadimgi qal’alarning buzib tashlanishi hisobiga, ularning o‘rinlarida asrlar davomida shakllangan shaharsozlik tizimlarini saqlab qoldilar. Buxoroning «qo‘riqchisi» sifatida Kogon qurildi. Marg‘ilondan birmuncha masofada «Yangi Marg‘ilon» - hozirgi Farg‘ona shahari tashkil bo‘ldi.

Turkiston shaharlari hayotida yuqorida aytilgan yirik va mayda ma'muriy-rejaviy tizimning ahamiyati saqlanib qolgan. Ko'pgina shahar va yirik qishloqlarda (masalan, Parkentda) aholi hunarmandchilik bilan birga dehqonchilik bilan ham shug'ullangan. Buxoro shahari bundan mustasno. Bunday shaharlarda oilalar bahorda ko'ch – ko'roni bilan shahar tevaragidagi bog'lariga ko'chib, kuzda hosilni yig'ib bo'lgach o'z mahallalariga qaytishgan. Shaharliklarning dehqonchilik qiladigan qo'rg'on devordan tashqaridagi yerlari turli nom bilan atalgan: Toshkentda – mavzu yoki mavze, Samarqandda va Qarshida – bog'ot deyilgan.

Xiva shaharida XIX asr oxiri - XX asr boshida ham avvalgi davrdagi qurilish shiddati pasaymadi. Qurilish asosan Dishan qal'ada olib borildi. Unda bu davrda bunyod bo'lган Nurillaboy saroyi, Sayidboy madrasasi va masjidi, To'rt SHabboz majmualari kabi ko'pgina obidalar mavjud.

Shahrisabz shahari boshqa o'rtacha kattalikdagi shaharlar sirasiga kiradi. Uning tarhida XV asrga mansub bo'lган shaharsozlik tizimi saqlanib qolgan edi. XIX asrning oxirida Shahrisabzda 52 guzar (mahalla) mavjud bo'lган. Har guzarda uning jamoat markazida oldi hovuzli hamda ko'kalamzorlashtirilgan masjid bo'lган. Markazda boshqa xildagi, masalan. jome' tipidagi masjid ham bo'lishi mumkin. Markazda guzar ahli yig'ilib bamaslahat ish ko'rishgan. Ba'zan markazda maktab, zaviya, takiya, madrasalar ham qurilgan.

Yangi shaharsozlik tizimini shakllantirishni Toshkent shahri misolida sinchiklab o'rganish mumkin.

1865 yilda Toshkentda chor qo'mondonligi O'rdada joylashdi. Keynchalik Ko'ymas darvozasidan sharqda yangi qal'auch darvozali – Tuproq qurg'on qurilgan. U g'arb fortifikatsiyasi qoidalariga muvofiq qurilgan bo'lib, noto'g'ri shaklli tarhga ega bo'lган. Ichida kazarmalar, ofitserlar uylari, kasalxona va boshqa binolar qurilgan edi. Keyinchalik qal'aning janubi – g'arbiy va shimoli – sharqiy tomonlarida boshqa harbiy tiynatdagi binolar barpo bo'lган (712-ad., 36-b.). Inshootlar Tuproq Qo'rg'on ichiga sig'may qolganda ba'zi binolar uning tashqarisida ham paydo bo'ldi. Qal'aning sharqiy darvozasi hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

1866 – 1867 yillarda topograf M.N.Kodesnikov Tuproq qo‘rg‘on bilan Shivli arig‘igacha bo‘lgan yerkarni Yangi shahar ehtiyojlari uchun rejalashtirdi. Loyiha bo‘yicha keng (25 m) ko‘chalar o‘tkazish mo‘ljallangan edi. Qadimgi Ming O‘rik bog‘ini hamda SHivli arig‘ining bo‘ylaridagi bog‘larni saqlab qolish ko‘zda tutilgan edi.

Turkiston shaharsozlik tarixini o‘rganishda chor ma’muriyatining 1889 yilning «Toshkent shahri Osiyo qismining tarhi» xaritasi muhim manbadir. U 5 – chizmachilik bo‘limniig boshlig‘i Rodionov tahriri ostida Toshkent harbiy – tipografik toshbosma bo‘limida chop etilgan. Xaritada hozirgi Eski shaharning deyarli hammasi ko‘rsatilgan. O‘rda va uning tevaragi bundan mustasno, chunki u yerlar Yangi shaharga qo‘sib yuborilgan. Xarita 100 sajen "I ingliz dyuymi" miqyosi (masshtabi) bo‘yicha bajarilgan. Ushbu xaritani o‘rganish Toshkent shaharsozligiga doir ba’zi qimmatli ma’lumotlarni beradi. Xaritada 268 masjid va 96 guzar ko‘rsatilgan. Ulardan 200 masjid va 41 guzar yakka holda keltirilgan. Qolganlari boshqa qurilma yoki shaharsozlik unsuri bilan turli birikmalarda keltirilgan. Xaritada guzarlar 2 – 3 mahalla markazi tariqasida berilgan. Guzarlarning tarkibida do‘konlar bo‘lib, ularning soni aksari 10 – 20 atrofida. Me’moriy birikmalar ichida masjid – guzar (eng ko‘p, qirqqa yaqin), masjid – madrasa, masjid – madrasa – guzar birikmalar qayd etilgan. Ularning tarkibida mozor yoki yakka bo‘lgan birikmalar ham mavjud.

Toshkent Turkistonning ma’muriy, savdo va sanoat markaziga aylandi. U asr boshiga kelib qariyb 300 ming aholiga ega bo‘ldi. O‘sha vaqtida shaharda 280 dan ortiq mahalla bo‘lgan. Shahar qadimgi va yangi qismlardan tashkil topgan edi. 1890 yil ma’lumotiga ko‘ra, shahardagi ko‘chalarning umumiy uzunligi 1343 kilometrga etgan.

Eski shahar binolari me’morligida, jumladan masjid va madrasalar qurilishida ustalar tomonidan qadimiylar, yapaloq g‘isht bilan barobar zamonaviy o‘lchamlarga yaqin o‘lchamlardagi *solloti g‘isht*, gumbaz va tomlar uchun tunuka, zinalar uchun temir ham qo‘llanildi.

Eski shaharda ko‘pgina yangi binolar paydo bo‘ldi. Shayxontahur majmuasining darvozasi (1892 yil, usta Abduraxim), To‘xta boyvachcha masjidi (1906 y.), Shayxontahur dahasining Balandmasjidi (1925 yil, usta Mo‘min) kabi binolar bunga misol bo‘laoladi. Ayni vaqtda Yangi shaharning ayrim binolarida, masalan «Xiva» kinoteatrida (1910 – 1916 y., arx. G. Svarichevskiy, imorat saqlanmagan) mahalliy me’moriy shakllardan foydalanildi. XIX asr oxiri – XX asr boshida Toshkentda bir necha yangi uslubdagimoratlar: savdo binosi (1911 yil, 4 – poliklinika), Eski shahardagi birinchi – telegraf (avvalgi kasb – hunar bilim yurti, keyin o‘qituvchilarining malakasini oshirish kurslari, Jangob arig‘i bo‘yida bo‘lgan), Maxsido‘zlik ko‘chasidagi Turon mehmonxonasi – (keyinchalik omonat cassasi va viloyat kutubxonasi) binolari qurildi. Zikr etilgan oxirgi ikki bino saqlanmagan.

Toshkentning Chorsu bozori nafaqat savdo markazi, balki hunarmandchilik markazi ham bo‘lgan. Bozor bir xil mollar bilan savdo qiluvchi maydonchalar va hunarmandlar rastasi birikmalaridan iborat bo‘lgan. XX asr boshlarida ja’mi qirqqa yaqin bozorchava rasta bo‘lgan. Chunonchi, Alloflik, G‘allabozor, Arpabozor, Bedabozor, Somonbozor, Bordonbozor, Gilambozor, Kiyizbozor, Namatbozor, Ko‘rpabozor, Kattabozor, Ko‘mir saroy, Kulol bozor, Tovoqbozor, Ko‘chatbozor, Mevabozor, Nonguzar, Sabzavot kabi bozorcha – maydonlar hamda Bazzozlik, Chitfurushlik, Beshikchilik, Vassabozor, Dukchilik, Zargarlik, Ko‘nchilik, Romsozlik, Sovungarlik, Sarrojlik, Sakkoflik, Tunukachilik, Etikduzlik, Misgarlik, Charxchilik kabi rastalar bo‘lgan. Rastalarning ba’zilari usti berk (tomi avval tuproq, keyin tunuka) tim shaklida bo‘lgan. Tim jazirama yozda soya– salqinni ta’minlagan. Qor – yomg‘irda loygarchilikdan asragan. Do‘konlar odatda oldi ko‘tariladigan, ravonli sinchkor xonadan iborat bo‘lib, ularning umumiy soni 4,5 mingga etgan. Bozorda Chorsu arig‘ining yaqinida usti tomli Dukkosha (Ukkosha) bulog‘i bo‘lgan. Ko‘p choyxona, oshxona, hammomlar, jumladan Badalmat hammomi («Chorsu» mexmonxonasi o‘rnida), yerlar va xotin – qizlar uchun alohida – alohida ikki Pushti hammom biri Maxsido‘zlik ko‘chasida, ikkinchisi - Tabiat muzeyiga yaqin bo‘lgan (ikkisi ham saqlanmagan) kabi binolar bozorninig qiyofasini belgilagan edi. Undan

tashqari bu yerda hozir yo‘q bo‘lib ketgan karvon saroylar: Xoji Malik karvonsaroyi (Farobiy va Sag‘bon ko‘chalari tutashgan joyda), Hind karvon saroyi (Jangob arig‘i bo‘yida) kabi binolar joylashgan edi.

Chorsu bozoridan tashqari shaharda bir xil mollar bilan savdo qiladigan maxsus bozorlar bo‘lgan. Qaymoq bozor o‘rda oldida, Molbozor shaharning shimoliy qismida, Qovunbozor Samarqand darvoza oldida joylashgan edi.

Shahar devoridan tashqaridagi dexqonchilik qilingan yerlar mavze deb atalgan. Shahar aholisining anchagina qismi qishda biron–bir kasb bilan shug‘ullanib, ertabahorda mavzelardagi qo‘rg‘onlarga (bog‘ uylariga) ko‘chib kelingan. Hosil yig‘ilgandan keyin, kech kuzda shahardagi xonadonlariga qaytishgan. Deyarlik har mahalla o‘z mavzesiga ega bo‘lgan. Odatda, qo‘shni mahallalarning mavzelari ham yonma – yon bo‘lgan. Xatto ayrim xollarda mahalladagi xonadonlarning joylashuv tartibi mavzedagi bog‘larning joylashuvida ham saqlangan. Ba’zan esa mahalla o‘z mavzesi bilan bir nomda bo‘lgan. Masalan: Eshonguzar va Zangi ota mahallalarining mavzelari shu nomlar bilan atalgan. Toshkentning ja’mi mavze va qishaloqlari katta maydonni egallagan. U shimoli –sharqda, Nayozbek qal’asidan, janubi – g‘arbda Qovunchigacha davom etgan. XX asr boshida mavzelar soni 150 dan ortiq bo‘lgan.

Yangi shahar eskisi kabi asosan bir qavat va xom hamda pishiq g‘ishtdan qurilgan edi. Markaziy ko‘chalarning ba’zilari tosh bilan farsh qilindi. Bunday ko‘chalarning yonlarida magazin, bank, mehmonxona, restoran, xashamatli turar uylar ham qurildi (masalan, Andijon ko‘chasida arxitektor G.Svarichevskiy loyihalagan saroy). Yangi shaharda Katta prospekt, Moskva va Konstantin ko‘chalari ajralib turgan. Katta prospektning Moskva va Mixail ko‘chalarining chorrahasida cherkov va savdo maydoni (Piyon bozor) bo‘lgan. Bu yerda saqlangan binolaridan Buyuk knyaz N.K.Romanov saroyini (1889-1890 y.) kursatish mumkin. 80 – yillar boshida Yangi shahar janub tomonga qarab kengayib Shahar bog‘i (1882 y.) barpo etildi. Ofitserlar majlisxonasi qurildi. 1899– yil va 1906 – yilda Kaspiyorti va Orenburg temir yo‘llari paydo bo‘lgach, sanoat korxonalari – paxta zavodlari, temir yo‘l ustaxonalari va boshqa yangi tipdagi imoratlar qurildi.

XIX ASR O'RTASI- XX ASR BOSHI ME'MORLIGI

Xalq me'morligida paxsa, guvala, xom va yapaloq pishiq g'isht qo'llanilgan. XIX asr so'nggi choragidan boshlab to'g'ri to'rtburchak yuzli (salloti) g'isht, fanera, tunuka, oyna kabi qurilish materiallaridan ham keng foydalanilgan. Sinchkor konstruksiyalar o'z ahamiyatlarini yo'qotmagan. Ravoq, toq, gumbazlar ko'proq madrasa, masjid, maqbara, hammom kabi binolarda qo'llanilgan. Bezak sifatida rangdor naqshdan, ganch va yog'och o'ymakorliklaridan keng foydalanilgan. S.Xujayev, A.Boltayev, T.Arslonqulov kabi xalq ustalari – ijodida amaliy san'atning, xususan Toshkent amaliy san'atining o'ziga xos hususiyatlari aks etgan.

Turar uylar xilma – xil bo'lган. Kambag'allarniki sodda va kichik, boylarniki ko'p xonali, naqshinkor edi. Asosan xona, daxliz va ayvon kabi muhitlardan tashkil topgan. Aksari tashqari va ichkari hovlillardan iborat edi. Hovli sahnida sufa bo'lib, tok, tut, o'rik, olma kabi mevali daraxtlar ekilgan. Deyarlik har hovlidan ariq o'tkazilib, undan suv ichilgan, ekin sug'orilgan. Toshkentda usti yopiq hovlilar ham keng tarqalgan edi. Ular ko'pinchalik ikkinchi qavatda qo'llanilgan. Shahar devoridan tashqaridagi yozlik uy – qo'rg'onlarning muhofasiga alohida e'tibor berilgan. Devorlari paxsadan urilib, ba'zan guldsta (devorga tutash minorasimon element) bilan bezalar edi. Qo'rg'on uylarda yopiq xonalardan ko'ra ko'proq ayvonlardan foydalanilgan.

Shaharning yangi qismlarida turar uylar ovrupocha qurilar edi. Qurilish ashyolari, konstruksiyalari, tarhiy yechimlari va qiyofalari yangicha bo'lган. Ularning ayrim jihatlari vaqt o'tgan sayin, ayniqsa XIX asrning oxirlariga kelib, an'anaviy uylar me'morligida ham namoyon bo'la boshladi.

O'zgarishlar boshqa turlardagi binolar me'morligida ham sodir bo'ldi. Ular ikki yo'sin bo'yicha ajraladi. Birinchi yo'sinda o'zgarishlar shaharlarning yangi qismlarida vujudga kelgan ovropocha me'morlikni qamrab oladi. Ikkinci yo'sindagi o'zgarishlar tarixiy shaharlarga tegishlidir. Ularda ayrim yangi turdag'i binolar bunyod etilgan. Qadimdan tarqalgan turdag'i binolarning me'morligida ham oldin

bo‘lмаган ба’зан ижоби (modern uslubi ko‘ринишлари) ба’зан салби (еклектизм ко‘ринишлари) жиҳатлар пайдо бо‘лди.

Асрлар давомида шаклланган мајмумалар тарқибидаги XIX аср охри – XX аср босидаги биноларда ва ан’анавиј турдаги (масжид, мадраса каби) иморатларда янгича ме’морлик қурилиш ашыларда, янгича шаклларда намоян бо‘лди.

Хивадаги Исломxo‘ja мадрасаси ва минораси Ichan qal’анинг о‘рта qismidagi yodgorliklar түркүмига кирди. Bog‘cha ва Tosh darvozalarining chizig‘ida joylashgan. Ularni 1908 – yilda Asfandiyorxonning vaziri Islomxo‘ja qurdirgan. Madrasani usta Xudoybergan xoji бунёд etgan. Koshin bezaklarini Voisov va Madaminovlar bajarishgan. Naqsh nushalarining muallifi Eshmuhammad Xudoyberdievdir. Madrasaning bezaklari oddiygina. Oldi peshtoq, uning tomonlari ikki qavatlik ravoq va guldastalar bilan ajralgan. Ravoqlar qanoslarida bezaklar nihoyatda sodda. Kichik hovli atrofidagn hujralar bir qavatli qilib ishlangan. Faqat kirish tomonida, ikkinchi qavatda soddagina ayvon bor. Madrasaning janubi - g‘arbiy tomonida gumbazli masjid қурилган. Ichidagi mehrobida va ba’zi boshqa joylarida ganchkor naqshin bezak qo‘llanilgan. Masjidga bog‘lanib ketgan minora madrasaga nisbatan xaybatlidir. Уning balandligi – 44,6 m, asosining diametri – 9,5 m. Minora yuqoriga qarab juda keskin ingichkalashib qubbali fonus – *qafasa* bilan tugallanadi. Tepasi sodda, lekin o‘ziga yarashgan naqshin xalqalar bilan o‘ralgan. Xalqalar zangori, moviy va qizg‘ish oqsirlangan g‘ishtlardan iborat. Minoraning tepe qismida moviy rangli g‘ishtlar ko‘proq bo‘lib ular juda bejirim ishlatilgan. Madrasada me’морликка кириб kelayotgan yangi usul sezilib turadi. Lekin bu yangi usul beo‘xshov emas. U minora arxitekturasiga xalal qilmaydi. Bunda qadimgi va yangi usullarni uyg‘unlashtirib yuborgan ustalarning xizmatlari katta. Islomxo‘ja minorasи shahar manzarasini ochib turadi. U shaharda o‘ziga xos yo‘l ko‘rsatgich vazifasini bajaradi.

Shahrisabzda XIX аср oxirida Xo‘ja Mirxamid va Molik Ajdar masjidlari қурилган. Birinchisi Chorsuniig qarshisidagi hammom yonida, ikkinchisi Molik Ajdar guzarida joylashgan. Ikkala obizada ham yirik xonaqoh (tomonlari 8,0 m va 8,5 m)

gumbazlari burchaklaridagi ravoqlarga tayantirilgan bo‘lib, ularning oraliqlari bag‘allar bilan to‘ldirilgan. G‘arba yo‘naltirilgan binolarning asosiy o‘qlarida ikki xilrangli ganchkor mehrob joylashgan. Xonaqohlarning boshqa, uchchala tomonlari taxmonlaridagi eshiklar orqali tashqariga ochiladi. Xo‘ja Mirxamid masjidining xonaqohi uch tarafdan ayvon bilan o‘ralgan. Molik Ajdar masjidida esa ayvonlar xonaqohning yonlarida joylashtirilib, asosiy kiraverish peshtoq bilan ajratilgan.

Toshkentdagi Zangi ota majmuasi Toshkent viloyatining Zangi ota qishlog‘ida vujudga kelgan. XX asr elliginchi yillarda majmua gumbazli darvozaxonadan boshlanar edi. Uning shundoq orqasida yo‘lning chetlarida ikki pastakkina minora qad ko‘tarib turgan. Dastlabki darvozaxona sirlangan g‘isht va guldaстalar bilan bezalib, minoralardan 22 metr narida bo‘lgan. Yo‘lning janubi – g‘arbida kichkina shiypon turgan edi.

XX asr boshida darvozaxonadan boshlangan yo‘l ikki tomoniga teraklar ekilgan hiyobon orqali madrasa hovlisiga olib borgan. Hovli o‘rtasida solloti g‘ishtidan qurilgan baland qirralik minora mavjud. Hovlining g‘arbini peshayvonli namozgoh (XVIII asr oxiri – XIX asr boshi) masjidi egallaydi. Uning yaxlit bo‘lgan ichini g‘ishtin ustunlar gumbazli xonalarga bo‘lgan. O‘rta xonaning mehrobli devori rangli girih va yozuvlar bilan. Madrasa hovlisining boshqa uch tomonini ham bir qavatli xujralar egallaydi. Shimoliy tomonda darsxona, sharqiy tomondaesa ikki tarafi ham peshtoq bilan nishonlangan yana birdarvozaxona bor.

Zangi ota maqbarasi (XV asr boshi) esa hovliningjanubi – g‘arbiy burchagida joylashgan. Maqbara ko‘p, katta – kichikta’mirlar natijasida dastlabki holatini yo‘qotgan. Binoningsharqiy yonida ham xona qoldiqlari saqlangan. Maqbara peshtoqliayvon, ziyoratxona va go‘rxonalardan iborat. Peshtoq dastlab boshdan oyoq sirlangan edi. Hozir ta’mirlangan.

Zangi ota maqbarasidan janubi–g‘arbda yana bir maqbara – Ambarbibi maqbarasi (XV asr) qabristonda qad ko‘tarib turadi. Inshootda oldingi maqbaraga ham qaraganda ta’mirlanishlar natijasida ko‘proq o‘zgarishlarga duchor bo‘lgan.

Zangi ota majmuasi boshqa Toshkent majmulariga ham xos bo‘lgan jihatlarda barpo etilgan. XIX asr o‘rtasi – XX asr boshida O‘rta Osiyo shaharsozligida turli xarakterdagi o‘zgarishlar sodir bo‘lgan.

Mustaqillikni saqlab qolgan Buxoro va Xiva xonliklarida shaharlarning tizimlarida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lman; Qo‘qonda shahrida yangi ovrupacha qurilish asosan O‘rdaning g‘arbiy tomoni bo‘ylab yo‘nalgan tomonlarida va unga g‘arbdan perpendikulyar ketgan ko‘chalar olib borilgan; Toshkent, Samarqand kabi shaharlarning qo‘rg‘on devorlari buzib tashlangan, O‘rdalari o‘rnida yoki yaqinida yangi qal’alar barpo bo‘lgan; u shaharlarga tutashtirib yangi manzilgoh shaharlar tashkil etilgan.

Shaharlarning arxitekturaviy – tarhiy tuzilishlariga ko‘p asrlar davomida shakllanib kelgan qismlari asosiy rolni o‘ynagan.

Aksari shaharlar bir-birlari bilan kam bog‘langan qadimiylari, kattaroq (“Eski shahar”) va chog‘roq yangi (“Yangi shahar”)dan iborat bo‘lgan; ko‘pgina “Eski shahar” lar to‘rt yirik shaharsozlik birlik (daha, qit‘a kabi)larga bo‘lingan; yirik birliklar o‘z navbatida mayda (mahalla, guzar kabi)lardan iborat bo‘lgan; “Eski shahar”larning tevaraklari bog‘-rog‘ (mavze, bog‘ot kabi)lardan tashkil topgan; shaharlarning “Yangi shahar” qismlari alohida ma’muriy mustaqil birlik hisoblangan.

Samarqand shahari XIX asrning 1-yarmida asosan Xisor va qal’adan tashkil topgan. Xisor olti: Poyi Kabok, Shohi Zinda, Qalandarxona, So‘zangaron, Xo‘ja Ahror va Buxoro darvozalari bo‘lgan; Hisorning g‘arbini 10 metrcha balandlikda katta (31.2 ga) qal’a egallagan bo‘lib, u o‘ziga xos kichik kentni tashkil etgan; shahar tashqarisida dala joylar (bog‘ot) bo‘lgan; 1870-1875 yillarda Samarqandning g‘arb va janubi-g‘arbiy tevaragi hududida yangi shahar rejasi amalga oshirildi; uning tarhi qal’adan radial yo‘nalishlarda ketgan uch va yoysimon besh ko‘chalardan tashkil topgan; 1880 yilda qadimgi qal’a hududida yangi qal’a qurildi.

Hozirgi **Farg‘ona** shahari qadimgi qishloqlar o‘rnida XIX asrning oxirgi chorasisida vujudga kelgan batamom yangi shahardir.

Nomlari Yangi Marg‘ilon (1907 yilgacha), Skobelev (mahalliy talaffuzda-Iskobil, 1907-1924 yillarda) deb atalgan shahar Marg‘ilondan 10 km janubda, Marg‘ilonsoy-ning asosan chap tomonida 1877-1904 yillarda qurilgan; besh bastionli qal’adan radial yo‘nalishda besh ko‘cha tarqalgan, shaharning jamoat markazi hozirgi - Ahmad Farg‘oniy va o‘rtada unga perpendikulyar bo‘lgan ko‘chalar atrofida vujudga kelgan.

XIXasr oxiri - XX boshlaridagi me’morlikda ham hiylagina o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Oldingi davr me’morligi an’analari, jumladan uslublari XIX asr oxiri - XX asrda ham davom ettirilgan holda, ancha tezkorlik bilan Ovrupacha qurilish ashyolaridan, konstruksiyalaridan foydalanila boshlandi, bino-inshootlarning yangi turlari (bank, mehmonxona-otel va boshqalar) qurila boshlandi; Rossiyada shu davrda tarqalgan uslublar: soxta Vizant, soxta rus, antik, gotik kabi uslublar hamda yangi modern uslubi qo‘llanila boshlandi.

Turkiston sarxadidagi XIXasr oxiri - XX asr boshidagi me’morlikda qadimiy an’analar bilan yangicha uslub turlicha chatishma berdi. Buxoro amirligida bino turlarining qadimiylarida Ovrupacha jihatlar aksari kamroq bo‘lgan masalan, Sitorai Mohi Xossa saroyida,; yangi turdagи binolar asosan Ovrupocha qurilgan, chunonchi, Kogon temir yo‘li tarmog‘idagi vokzal binosi, ikki kasalxonasi, turli magazin, firmalar idoralari, banklar bo‘limlari kabi vazifalarini o‘zida jamlab o‘tash uchun qurilgan, ko‘p funksiyali binolar yangi me’morlik uslubiga taaluqlidir.

Turkiston o‘lkasi poytaxtiga aylantirilgan Toshkentda me’morlik shaharning Eski va Yangi qismlarida ancha keskin farqlangan; Eski qismida Ovrupacha yangiliklar bir qancha inshootlarda, jumladan Shayh Xovand Tohur majmuasi darvozaxonasi (1892 y, Usta Abdurahim), To‘xta boyvachcha masjidi majmuasi kabilar me’morligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Farg‘ona vodiysi shaharlarida XIX asr oxiri-XX asr boshida binolarning qadimiy turlari me’morligida yangicha jihatlar ko‘p hollarda kamroq, ayrim hollarda esa ko‘proq paydo bo‘la boshlagan – Qo‘qonda - Kamol Qozi (XIX asr), Xalfa Tillo majmuasi (XX asr boshi); Marg‘ilonda - Sayid Ahmad madrasasi (XIX asr oxiri),

Chaqir masjidi (1911 y.), Andijonda - Jome masjid (XIX asr oxiri), Ota qo‘zi madrasasi (XX asr boshi), Ahmadbek Xoji mehmonxonasi (1905-1907 y., Ovrupa jihatlar ko‘proq); Namanganda - Ota Valixon to‘ra masjidi (XX asr boshi), Mulla Qirg‘iz madrasasi kabilar bunyod etilgan. Yangi uslub har xil turdag'i binolar me'morligiga tadbiq bo‘lgan; ular qatorida turar joylar, harbiy binolar, magazinlar, banklar, nasoriy diniy inshootlar, ma’muriy binolar, ko‘ngil ochar binolar, o‘quv va ilmiy binolar, muhandislik inshootlar mavjuddir.

Xivada XIX asr oxiri - XX asr boshida Paxlavon Mahmud maqbarasi bilan Ko‘hna arkda katta hajmlardagi ishlar olib borilishi natijasida bu majmualar nihoyasiga yetkazildi; 1908-1912 yillarda Islom xo‘ja tomonidan majmua barpo ettirildi; Ovrupacha jihatlar ko‘proq Dishan qal’adagi Nurillaboy saroyida (ayniqsa Asfandiyorxon ko‘rinish xonasida) va Qubla Tozabog‘ saroyida (shiftda - naqshinkor faneria, polda - taxta qo‘llanilgan) o‘z ifodasini topgan; kasalxona va pochta binolarining tashqi ko‘rinishlarida an’anaviy shakllar va bezaklar qo‘llanilgan.

Yangi turdag'i binolarning me'morligi asosan ovrupo usluba shakllandi.

Turkiston general-gubernator qarorgohi – “**Oq uy**” hududi 3,3 m atrofida edi (712-ad., 39-b.). XIX asrning 70-yillari da qurilishi to‘la bitkazilgan. Saroyning o‘rtasida Qishki bog‘ bo‘lgan. Bezak ishlarida xalq ustalari ishtirok etilgan. XX asr boshlarida O‘zbekiston hokimiyati ehtiyojlarit uchun qayta qurilgan. Bu ishlarda arx. S.Polupanov va S.Rozenblyush ishtirok etishgan (712-ad., 48, -194-betlar).

Aka-uka **Yaushevlar rastasi** (passaji) 1913 yilda modern shakllarida barpo bo‘lgan (712-ad., 47-b.).

Toshkentdagi **Shahar dumasi binosi** ikki ko‘cha-kesishgan joyini, burchagini belgilab turgan. 1899 yilda arxitektor Gamburg tomonidan qurilgan (712-ad., 47-b.).

Zinger shirkati binosi mo‘jaz kvartalni egallagan edi. Burchaklari o‘sadavrlarda tarqalgan bezak-gumbazchalarga ega bo‘lgan (712-ad., 48-b.).

N.K.Romanov saroyi 1889-1890 yillarda A.Benua loyihasi bo‘yicha, V.Geynselman rahbarligida qurilgan. G‘arbiy burchakdagi xona sharqona naqshlar

bilan, Sharqiy burchakdagi xona esa Ovruponing o‘rta asrlarga xos bo‘lgan naqshlar bilan bezatilgan (712-ad., 54-b.).

N.Romanov saroyiga yaqin bo‘lgan joyda, unga tegishli “**Xiva**” **kinoteatri** bo‘lgan. U 1912-1916 yillarda G.Svarichevskiy tomonidan loyihalangan edi. Kiraverishning yon tomonlarida zambaraklar qo‘yilgan edi (712-ad., 55-b.).

Orifxo‘ja rastasi bir qavatlari juda uzun (120 m) bino edi. Rastaning ayrim qismlari boshqa savdogarlarga va banklarga ijara berib turilgan. O‘rtasida va chetlarida yirikroq hajlar bino tarzini joylashtirib turgan. Uning ayrim joylarida renessens unsurlari qo‘llanilgan bo‘lgan. Gimnaziyalar Yanchevskiy loyihasi bo‘yicha 1878-1883 yillar davomida qurilgan. Olma Ota (Верный) shaharida ham Yanchevskiy loyihasi bo‘yicha gimnaziyalar qurilgan.

ADABIYOT

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrain. T.: 1969
2. Ahmedov M. O'rta Osiyo me'morligi tarixi. T.:1995 Bobirnomda. T.: 1960
3. Захидов П. Архитектурные памятники Зарафшанской долины. Т.:1985
4. Zohidov P. Bebahoh xazina. T.:1980.
5. Zohidov P. Me'mor olami. T.:1996
6. Zohidov P. Me'mor san'ati. O'zbekiston arxitektura tarixidan lavhalar.
7. Искусство стран и народов мира. Т.1. М.:1962
8. Искусство стран и народов мира. Т.2. М.:1965
9. Искусство стран и народов мира. Т.3. М.:1971
10. Искусство стран и народов мира. Т.4. М.:1978
11. Наршахий. Бухоро тарихи. Т.:1966
12. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.1-12. T.:2000-2006
13. Нильсен В. У истоков современного градостроительства Узбекистана (XIX-нач.XX в.). Ташкент, 1988
14. Пугаченкова Г., Ремпель Л. История искусств Узбекистана. М.:1965
15. Po'latov X. Arxitektura va shaharsozlik tarixi. O'rta Osiyo arxitekturasi tarixi. O'quv qo'llanma. TAQI, T.:2001
16. Po'latov X., O'rolov A. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. TAQI, T.:2002
17. Pouqatchenkova G. Chefs-d'œuvre d'architecture de L'Azie Centrale XIV-XV siecle. Paris, 1981.
18. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Т.1.М.:1970
19. Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Т.8.М.:1969
20. Воронина В. Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. М.:1951.
21. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. Т. 1958
22. Пугаченкова Г.А. Пути развития архитектуры Южного Туркменистана поры рабовладения феодализма. М.:1958

23. Прибыткова А.М.. Строительная культура Средней Азии в IX-XII вв. М.:1973
24. Булатова В.А.,Маньковская Л.Ю. Памятники зодчества Хорезма. Т. 1978
25. Булатова В.А., Маньковская Л.Ю. Памятники зодчества Ташкента. Т. 1983
26. Лавров В.А. Градостроительная культура Средней Азии. М.; 1956
27. Н.Б.Немцева, Ю.З.Шваб. Ансамбль Шахи-Зинда. Т.:1979
28. Жилище народов Средней Азии и Казахстана. М.:1982
29. Ташкент. Географический атлас. М.:1983
30. Ўзбек совет энциклопедияси. 1-14 томлар. Т.:1971-1980
31. НазиловД.А.Архитектура горных районов Узбекистана. Т.:1984
32. ТагаррыевЕ.А. Средневековый Дехистан. История и культура города Юго-Западного Туркменистана. Л.: 1986
33. Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии XV в. Т.:1978
34. БулатовМ.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX-XV вв. М.:1978
35. Культура Среднего Востока. Развитие, связи и взаимодействия. Градостроительство и архитектура. Т.:1989
36. Аршавская З.А., Равеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. Т.:1982.
37. Залетаев В.С. Древние и новые дороги Туркмении. М.: 1979.
38. Артемьев В., Урманова А. Архитектурное исследование Северного Гонура в Туркменистане.
39. Сарманиди В.И. Гонур-депе. Город царей и богов. Ашхабад: 2005.
40. Археологические исследования в Казахстане, Таджикистане, Туркменистане и Узбекистане. Берлин: 2010.
41. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. М.: 1985.
42. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. М.: 1982.
43. Ртвеладзе Э.В. Великий шёлковый путь. Т.: 1999.
44. Художественная культура Средней Азии. IX-XIII века. Т.: 1983.

45. Пугаченкова Г.А. Термез, Шахрисабз, Хива. М.: 1976.
46. Денике П. Архитектурный арнамент Средней Азии. М.-Л.: 1939.
47. Axmedov M. Me'moriy meros. T.: 2011.
48. Аскаров Ш. Архитектура Темуридов. Т.: 2009.
49. Немцева Н.Б., Шваб Ю.З. Ансамбль Шахи Зинда. Т.: 1979.
50. Саварепская Т.Ф. История градостроительного искусства. Т.: 1984.
51. Некрасова Е. Термиз и его архитектура. Т. 2001.
52. Массон М.Е. Среднеазиатские мосты прошлого и проблемы их изучения. Т.: 1978.
53. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Бухарские записки. Т.: 1981.
54. Пугаченкова Г.А. Средняя Азия. Справочник-путеводитель. М.: 1983.

MUSTAQIL ISH BAJARISH BO‘YICHA KO‘RSATMA VA MAVZULAR

Kadrlarni tayyorlash milliy dasturining hozirgi sifat bosqichida bo‘lg‘usi mutaxassislarni raqobatbardosh qilib tayyorlash talabi talabalar uchun mustaqil ishlarni tayyorlashda alohida ma’suliyat yuklaydi.

Mutaxassis o‘z sohasida muammoli vaziyatlarni o‘z vaqtida payqay oladigan, ularni tahlil qilib tegishli yechimlarni topadigan, sharoitga tez moslashadigan bo‘lmog‘i zarur. Buning uchun u o‘z bilimlarini, ko‘nikmalari va malakasini mustaqil va mutassil ravishda oshirishni uddalay oladigan bo‘lishi kerak. Buning uchun talaba ta’lim muassasasida har doim ham o‘z bilimlarini mustaxkamlab borishi, yangi bilimlarni o‘zlashtirishi, ijodiy faoliyatini oshirishi, amaliy ko‘nikma va malakani shakllantirishi zarurdir. Mazkur masalani hal etishda OO‘MT vazirligining 14.08.2009 yil sanasidagi 286-buyrug‘i va unga ilova qilingan Yo‘riqnomasi katta ahamiyatga molikdir.

Talabaning mustaqil ishining tizmiyligini ta'minlash. Yo'riqnomada talabalar mustaqil ishini tashkillashtirishda uning tizmiyligiga alohida e'tibor berilgan. Unda mustaqil ish topshiriqlarining shakli, hajmi, qiyinlik va mustaqillik darajalarini semestr dan-semestr ga oshib borishi tobora oshib borishi lozim ekanligi qayd etilgan. Berilgan vazifalarni talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyati hisobga olgan holda “oddiydan murakkabga” tamoyili bo'yicha tanlanishi kerak bo'ladi.

Talabalarning mustaqil ishlari sirasida quyidagi shakllarni ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Mavzuni mustaqil o'zlashtirish.
2. Referat tayyorlash.
3. Ko'rgazmali vositalar tayyorlash.
4. Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.
5. Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.
6. Amaliy va nazariy mazmundagi nostandard masalalarni echish, ularga ijodiy tarzda yondashish.

Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlarning maqsadi-talabani kelgusida o'z faoliyati davomida vujudga keladigan muammolarini aniqlashga va ularni echishga o'rgatishdir. Ularga ijodiy va ilmiy tadqiqot xarakterdagi ishlar kiradi. Mazkur turdag'i mustaqil ishlarda uchrashishi mumkin bo'lgan muammoli joylar o'qituvchi bilan birgalikda hal etadi. Auditoriyadan tashqarida bajariladigan ish A4 formatida 20 bet atrofidagi hajmli yozma ish shaklida bajariladi. Ishni nazorat qilib borish buning uchun maxsus belgilanadigan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.

A. “O'rta Osiyo arxitektura tarixi” fani bo'yicha talabalarning auditoriyadan tashqarida bajariladigan ishi

Mazkur mustaqil ish yuqorida aytilganidek shaklan 20 bet atrofidagi betlardan tashkil topgan ishlanmadir. Qo'lda yoki kompyuterda yoziladi. Qo'lda yozilgan ish ko'proq vaqt sarflanishini talab etsa-da, ishning mazmuni talaba tomonidan

chuqurroq o‘zlashtiriladi. Ish varaqlari stepler yo qisqichlar (skrepka yoki zajim) yordamida faylga solib topshiriladi, himoya qilinadi va baholanadi.

Ishning muqovasida varaq sirtida badiyan muvozanatli holda joylashtirilib quyidagilar yoziladi:

Oliy ta’limning “Arxitektura” yo‘nalishida “San’at, arxitektura va shaharsozlik tarixi” fanlari sikli mutaxassislarni etishtirishda muhim o‘rinni egallaydi. Mazkur fanlar siklida ham talabalar mustaqil ishlarining tizimliligini ta’minlash talabi “oddiydan murakkabga” tamoyili qo‘llanishini taqozo etadi. Shunga ko‘ra “San’at tarixi” va “Arxitektura tarixi” fanlarida ko‘proq yuqorida dastlab sanab o‘tilgan uch, ya’ni mavzuni mustaqil o‘zlashtirish, referat tayyorlash, ko‘rgazmali vositalar tayyorlash shakllarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. “Shaharsozlik tarixi” va “O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi” fanlari uchun mustaqil ishning ko‘proq ilmiy maqola, tezislar va ma’ruzalar tayyorlash shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Sikldagi oxirgi “Zamonaviy arxitektura” fanida esa mustaqil ishning murakkablaridan bo‘lgan amaliy va nazariy mazmundagi nostandard masalalarni echish shaklini qo‘llash o‘rinli bo‘ladi. Ayni vaqtida, yuqorida qayd etilganidek mustaqil ishning shakllari tanlashda ularning qobiliyatlarini va shaxsiy istaklarini inobatga olish joizdir.

Mustaqil ishlarning ikki turi. “O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi” fani bo‘yicha talabalar mustaqil ishlari shartli ravishda ikki asosiy: auditoriyada bajariladigan va auditoriyadan tashqarida bajariladigan turlarga ajraladi.

Auditoriyada bajariladigan mustaqil ishlarning maqsadi-o‘tilgan mavzular bo‘yicha olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishdir. Ular nisbatan soddarоq bo‘lib ikki marta yozma ish shaklida o‘tkaziladi: birinchi yozma ish I modul hajmidagi material asosida, ikkinchi yozma ish II va III modullar hajmidagi materiallar asosida 1- va 2- oraliq nazoratlar tariqasida o‘tkaziladi. Bu nazoratlar orqali talabaning dars paytida o‘tilgan mavzularni qay darajada o‘zlashtirilganligi, olgan bilimlarini uy sharoitida qay darajada kengaytira va chuqurlashtira olganligi tekshiriladi.

Ish betlariga tartib raqami qo‘yiladi. Birinchi betga-muqovaga tartib raqami yozilmaydi. Muqovadan keyingi varaqdan 2 raqami qo‘yilib davom etib ketiladi. Ishga kirgan rasmlarga ham tartib raqam beriladi.

Mavzu tanlash. Mustaqil ishning muvaffaqiyatli bajarilishi ko‘p jihatdan mavzuni to‘g‘ri belgilash bilan bog‘liqdir. Mustaqil ish bajarish jarayonida talaba auditoriyada o‘tilgan materialni mustahkamlaydi, analitik fikrlashi takomillashitirib boradi. Aksar fan bo‘yicha beriladigan savollardan biri asosida mavzu tavsiya etiladi. Talaba uni keng va chuqur yoritishi lozim. Mavzu manbasi bo‘lgan fan savollarining ko‘pchiligi yo umumiyligi, yo xususiy tiynat (xarakter)ga egadir. Umumiyligi tiynatdagi fan savollarida odatda “Umumiyligi tavsif” jumlesi bo‘ladi. Xususiy tiynatdagi savollar esa ko‘pinchalik muayyan yodgorlikka (masalaga) bag‘ishlangan bo‘ladi.

O‘qituvchi ko‘rsatgan umumiyligi tiynatdagi savol-mavzuni talaba tomonidan o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda konkretlashtirish (toraytirish) maqsadga muvofiqdir. Misol tariqasida fan savollaridan o‘qituvchi ko‘rsatgan “O‘rta Osiyoning XVI-XVII asrlar me’morligi. Umumiyligi tavsif” degan savolni “O‘rta Osiyoning XVI-XVII asrlar me’morligidagi konstruksiyalar” deb konkretlashtirish mumkin va aksincha muayyan yodgorlikka bag‘ishlangan fan savolini har xil darajada umumiylashtirish mumkin.

Mavzu tanlashning eng yaxshi yo‘li fanga taalluqli va talaba o‘zi qiziqqan mavzuni taklif etish va o‘qituvchi tomonidan tasdiqlab olish yo‘lidir.

Mustaqil ish tuzilishi. Dastlab mustaqil ishning rejasini puxta qilib belgilab olish lozim. Reja muqovadan keyin 2-betda beriladigan mundarijada o‘z aksini topadi. U nafaqat ishning bo‘limlari tarkibini va ketma-ketligini ifoda etadi, balki bo‘limlarning hajmlarini ham yaqqol aniq-ravshan ko‘rsatadi. To‘g‘ri, puxta tuzilgan mundarija va unga rioya qilish ishning yuqori malakada bajarilishining muhim omilidir.

Mustaqil ish monografik tarzda bajariladi, ya’ni ishning mazmuni yakka mavzuni chuqur va keng yoritishdan iboratdir. Aksar hollarda ish mavzusi keng

qamrovli bo‘lib, bir necha o‘zaro bog‘langan kichikroq mavzuchalardan tashkil topadi.

Mustaqil ish har qanday ilmiy ish kabi uch bosqich: material to‘plash, uni tahlil qilish va xulosa chiqarishdan iborat bo‘ladi. Shunga muvofiq ravishda ish mundarijasiga so‘z boshi, bir necha (ko‘proq uch) bo‘limlardan iborat asosiy qism, xulosa va foydalanilgan manbalar kiritiladi.

Manbalardan foydalanish. Mavzu aniqlangach, ish jarayoning material to‘plash, ya’ni manbalardan foydalanish jarayoni boshlanadi. Manbalar sirasiga nashriy adabiyot, arxiv va Internet ma’lumotlari kiradi. Manbalardan olinadigan ma’lumotlar matniy va grafik shakllarida bo‘lishi mumkin.

Matniy manbalar bilan ishlashda ayrim hollarda foydalanilayotgan matnning kichik bo‘lgan so‘zma-so‘z, ya’ni iqtibos (sitata) yoki kattaroq bo‘lagini ko‘chirma tariqasida qo‘shtirnoqqa olingan holda keltiriladi. Aksari hollarda foydalanayotgan matndagi ma’lumotlarni talaba o‘z mavzusi nuqtai nazardan yondoshib o‘z so‘zlar bilan yozishga xarakat qilishi kerak. Iqtibos, ko‘chirma shakllarida ham, o‘z so‘zi bilan qayta bayon etilgan hollarda ham manba albatta ko‘rsatiladi.

Grafik manbalar bilan ishlashda chizmalarning mashtabiga alohida e’tibor berish zarur. Ba’zi matniy manba yo‘q hollarda grafik manbalar juda asqotadi. Bunday vaziyatlarda mavjud chizmalarni har taraflama tahlil qilish natijasida mustaqil ishni talab hajmiga yetkazish mumkin. Foydalanilgan chizma manbalarni ham mumkin qadar to‘laroq ko‘rsatish zarur.

Manbalarning soni ham katta ahamiyatga egadir. Mustaqil ish bajarishda 5-6 manbalardan foydalanish tavsiya etiladi. Kamida 3-4 manbadan foydalanish kerak. Ko‘p sonli manbalardan foydalangan talaba ularda bir-biridan ozmi-ko‘pmi farqlanuvchi ma’lumotlarga duch keladi. Ma’lumotlar to‘g‘riligini tekshirish, ya’ni to‘plagan materiallarni tahlil qilish etish zaruriyati tug‘iladi. Boshqacha qilib aytganda, ish rostmana ilmiy xarakterga ega bo‘la boshlaydi.

Manbalarni to‘la va to‘g‘ri ko‘rsatish nihoyatda zarurdir. Kitoblar quyidagi tartibda ko‘rsatiladi - muallif yoki mualliflar; kitob nomi; nashr joyi va yili, masalan:

“Zoxidov P. Me’mor olami. T.:1966” yoki “Пугаченкова Г., Ремпел Л. История Узбекистана с древнейших времён до середины девятнадцатого века. М.:1965” Jurnallardagi yoki ilmiy to‘plamlardagi maqolalar quyidagi tartibda ko‘rsatiladi - muallif yoki mualliflar; maqola nomi va “//” (ikki qiya chiziq) belgisidan keyin jurnal yoki to‘plam nomi, nashr soni va yili, lozim topilsa kitoblarining foydalanilgan betlari ham ko‘rsatiladi.

Chizmalar yoki boshqa illyustrativ manbalar ham mumkin qadar to‘laroq: chizma nomi, muallifi, manbasi, yili ko‘rsatiladi. Arxivlardan olingan manbalarda aytilganlardan tashqari arxiv nomi, saqlanayotgan jildi - papka varag‘i kabi ma’lumotlar ham yoziladi. Internet ma’lumotlari mos saytlar yordamida ko‘rsatiladi.

Ishning matni uchinchi betdan - so‘zboshi (muqaddima yoki kirish)dan boshlanadi. Unda talaba mustaqil ishni bajarish borasida o‘z oldiga qo‘yadigan maqsad va vazifalarni aniqlab oladi, boshqa, dastlab berilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar keltiriladi. So‘zboshi orqali muallif matning asosiy qismini tushunishga qaratilgan ma’lumotlar vositasida o‘quvchini tayyorlaydi.

Ishning asosiy qismida yuqorida zikr etilgan 3-4 bo‘limlarning ketma-ketligining joylashtiriluvida “umumiydan xususiyga” tamoyiliga rioya qilinadi. Barcha bo‘limlar bevosita yoki bilvosita ishning mavzusini to‘laroq oolib berishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bo‘limlarga tartib raqamlar qo‘yiladi. Bundan farqli o‘laroq So‘z boshi, xotima va ishning undan keyingi keladigan bo‘limlarga tartib raqamlar qo‘yilmaydi.

Xulosa chiqarish (ishning xotima bo‘limi) eng muhim va aynan qiyin bo‘limdir. U ishning asosiy qismida bildirilgan fikrlarning hosilasidir. Boshqacha qilib aytganda, xulosa asosiy qismda keltirilgan ma’lumotlarning yakuni tariqasida berilishi lozim. Xulosa talabaning faqat o‘z fikridan iborat bo‘lishi kerak. Hajman u kichik bo‘lib, bir bet-yarim betdan oshmaydi. Xulosa nafaqat so‘zboshida belgilangan muammoni yechimi, balki shu vaqtgacha ochilmay kelingan yangi muammoni ko‘rsatish tariqasida ham berilishi ham mumkin. Xulosa ilmiy ishning, jumladan mustaqil ishning eng zarur talabi - uning yaxlitligini ta’minlaydi.

Ishning rasmlari matn ichining tegishli joylariga kiritiladi. Rasmlar matn orqasiga ilova tariqasida ham kiritilishi mumkin. Har bir rasmning tartib raqami, nomi (annotatsiyasi) yoziladi. Qavs ichida rasmning manbani (olingan joyini) ham ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Ba'zi hollarda rasmlar (xarita, o'lchov chizmalar, bosh tarhlar va va h.k.) matnga qaraganda ahamiyatliroq bo'lib, mustaqil ishning asosiy mazmunini tashkil etadi. Mazkur hallarda mustaqil ish arxitekturaviy tahlil, grafik tahlil tariqasida bajarilishi mumkin.

B. Grafik tahlil tariqasida auditoriyadan tashqarida bajaridagan mustaqil ish

Ba'zi mavzularni, ularning xarakteriga qarab, grafik taxlil tariqasida ishlab chiqish ko'proq maqsadga muvofiq bo'ladi. Matniy mustaqil ishdan farqli o'laroq grafik tahlil tariqasida mustaqil ishni A3 o'lchamli qattiq qog'ozli varaqlarda bajarish tavsiya etiladi. Varaq aksari rasmlar turkumi-jadvaldan iborat bo'ladi. Ish tahminan 8-10 varaqdan tashkil topadi. Bajarilishi jihatdan mazkur xildagi ish ham matniy mustaqil ish kabidir. Ishning maqsadi - auditoriyada o'tilgan o'quv materiallarni mustaxkamlash hamda grafik mahoratni takomillashtirishdir.

Mazkur turdag'i mustaqil ish mazmunan arxitekturaviy tahlildan iborat bo'lib, chizma, sxema, jadval va boshqa grafik shakllarda bajariladi. Mavzuni ham O'rta Osiyo shaharsozligidan (shaharning rejalanishini, qurilishini, jamoat markazlarini, kucha, maydon, kvartal, va boshkalarni), *ham* me'morligini (turar uylar rivojini, jamoat binolarning, masjid, madrasa va boshqa turdag'i binolarning evolyutsiyalarini, konstruktiv tizimlarning takomillashuvini va boshqalarni) qamrab olishi mumkin. Tahlil monografik, ya'ni yakka olingan mavzuni chuqurroq yoritishdan iborat bo'lishi lozim. Mavzuga tegishli hamma material sinchkovlik bilan o'rganiladi; kerakli chizmalar xitoy (shaffof) qog'ozga ko'chiriladi; fotosuratlar, rasmlar yig'iladi; ishning keyingi tahlil bosqichiga kerakli hamma narsa material tayyorlanadi. So'ngra material **batafsil** taxlil qilinadi. Tahlil natijasi chizmalar orqali ifodalanadi. Chizmalar uchun quyidagi masshtablardan foydalaniladi: 1:100; 1:200; 1:400; 1:500; 1:1000; 1:2000; 1:5000; 1:10 000; 1:20 000; 1:25 000; 1:50 000.

Chizmalarni kerakli masshtabga keltirish uchun «burchakli masshtab», «kataklarga olish», kseroks, kompyuter vositalaridan foydalanishmumkin.

Jadvallar qatori (ular 2 xil bo‘ladi) uchun yagona masshtabdan foydalanish kerak. Qatorning birinchi xili *tipologik qator* (masalan: turar uylarlarning tiplari) bo‘lib, ikkinchi xili taxlil etilayotgan narsaning (ob’ektning) evolyutsiyasini (o‘zgarishini) ko‘rsatadi - *evolyutsion qator*. Grafik taxlilnatijasi, ya’ni butun ish xulosasi ravshan ifodalanishi zarur. Rasmlar chizikli bo‘lgani yaxshi. Agar ishning xulosasini ifodalashga mos kelsa, oq-qora yoki rangli buyoqdan foydalaniladi. Ayrim hollarda shtrixovka qo‘llanishi mumkin. Evolyutsion va tipologik qatorlar muhim jihatlarni (umumiylıklarni yoki tafovutlarni) ifoda etishi kerak. Jadval aksari 4 - 5 murakkab chizmadan yoki 10-12 va hatto undan ham ko‘p soddaroq chizmalardan iborat bo‘ladi.

Ish mazmuni kartoteka tuzishni talab etsa A3 format emas, balki A4 formatning yarmi yoki choragi o‘lchamidagi (201 x 148 mm, 105 x . 148 mm) qog‘ozga chizish ruhsat etiladi. Ishning xulosalari shartli chiziqlar. Kompozitsion o‘qpunktir, yo‘g‘on chiziq, shtrixovka va rang yordamida ifodalanadi. Ishga zarur hollarda qisqa tekst - annotatsiya kiritiladi. Lekin shuni nazarda tutish joizki, grafik tahlilda talaba xulosani (o‘z fikrini) chizma orqali ifoda etishga o‘rganishi zarur. Chizmalarning yozuvlari mavzuni, yodgorlik nomini, uning joyini, qurilgan vaqtini va shunga o‘xhash boshqa zarur ma’lumotlarni berishi lozim. Foydalanilgan manba (kitob, karta, chizma) alohida ko‘rsatiladi. Ishni bajarishda Toshkent arxitektura-qurilish institutining kutubxonasidan, shu institut Arxitektura fakulteti kutubxonasidan, Navoiy nomidagi Milliy kutubxonadan hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport ishlari vazirligi qoshidagi Yodgorliklarni saqlash Bosh boshqarmasining arxividan foydalanish tavsiya etiladi.

V. Ishni tahrir qilish va uni himoya qilish

Auditoriyadan tashqarida bajarilgan mustaqil ish dastlab tayyorlangandan so‘ng (dastlabki variant) xatolari tuzatiladi, so‘ngra himoya qilinadi. Taxrir qilish ishning

ham mazmuniga, ham adabiy jihatlari (stilistikasi va grammatisasi) ga tegishli kamchiliklar bartaraf etish orqali amalga oshiriladi. Bunda talaba o'qituvchi konsultatsiyasidan foydalanadi.

Ko'p uchraydigan kamchiliklar sirasidan bir nechasini alohida ko'rsatish lozim.

- Mavzuning nomiga yetarli darajada e'tibor bermaslik; natijada talaba mavzudan chetga chiqib ketadi.

- Mundarijada bo'limlar orasida bog'liqlik kam; bo'limlarning "biri bog'dan, biri tog'dan keladi."

- Ish matni bo'limlarga ajratilmaydi, tegishli sarlavha berilmaydi.

- Mundarija bilan ishning o'zi (matni) bir - biriga mos kelmaydi.

- Chizmalarda nostandard masshtab ishlataladi, chiziqli masshtab ko'rsatilmaydi; bunday kamchiliklar ayniqsa grafik tahlil tariqasidagi ishlarda ko'zga qo'pol tashlanadi.

- Ishning betlariga, undagi rasmlarning tartib raqamlari va yozuvlari berilmaydi.

- Foydalanilgan manbalar to'g'ri va to'la ko'rsatilmaydi.

Ish jarayonida paydo bo'layotgan yuqorida ko'rsatilgan va boshqa kamchiliklarga boshidayoq yo'l qo'ymaslik, ishning samaradorligini ta'minlaydi.

Himoya Talaba auditoriyadan tashqarida o'zi bajargan mustaqil ish mazmunini va mohiyatini tushuntirib bera olishi lozim. *Himoya* ishning prezentatsiyasidir. Talaba ishni himoya jarayonida o'zi erishgan yutuqlarni namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, ilmiy bahs qonun-qoidalarini o'zlashtiradi, kelajakda xamkasblari bilan hamkorlik va ayni vaqtida raqobat qilish madaniyatiga ko'nikma hosil qiladi.

G.Arxitekturaviy tahlilga oid adabiyot

- Апайхо И. Архитектурная композиция, М.:1982
- Архитектурная композиция. Современные проблемы. Сб.М.:1979
- Афанасев К.Н. Построение архитектурной формы древне русскими зодчими. М.:1961

- Борисовский Г.Б. Наука, техника, искусство. Мысли о современной архитектуре. М.:1969
- Борисовский Г.Б. Парфенон и конвейр, М.:1971
- Брунов Н.И. Памятники Афинского акрополя. Парфенон и Эрехтейон. М.:1973 . Стр. 94 - 143
- Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX -ХВ вв. М.:1978
- Грабар И.Е.Научные основы реставрации памятников искусства. Вестник АН СССР, №3. М.:1944.
- Защиков П.Сщ. Основы канона гармонии в архитектуре. Т.:1982.
- Корбюзе Сщ, Модулор. В кн.: Архитектура XX века. М.:1970
- Кринский В.Ф., Ламсов Й.В., Туркус М.А. Элементы архитектурно -пространственной композиции. М.-Л., 1934 (Второе изд. - М.:1968)
- Михайловский И.Б. Теория классических архитектурных форм. М., 1937
- Иконников А.В., Степанов Г.П. Основы архитектурной композиции.М.,

D. Spaharsozlik bo‘yicha namunaviy mavzular*

(*topshiriqlarni bajarish uchun tavsiya etilgan adabiyot mazkur ko‘rsatma va
mavzular bo‘limi oxirida berilgan)

1. Samarqand shaharining rivojlanishi.

Mo‘g‘ullar istilosigacha va undan keyingi davrlarga mansub shaharning 4 - 5 tarhini bir xil masshtabga keltirgan holda jadval tuziladi. 2, b.202, 278; 11, b. 69, 71, 99, 148; 18, b. 1.2.

2. Samarqand registoni.

Maydonni bosh tarhi va qirqimidan foydalanib, geometrik bog‘lanish ifodalanadi hamda maydonning aksonometriyasi chiziladi. 2, b. 328, 329; 19, b. 148.

3. Poyi Kalon maydoni.

Buxoroning Poyi Kalon majmuasini aks ettiruvchi bosh tarz va qirqimidan foydalanib, aksonometriya chiziladi. 2, b. 256; 11, b. 265; 20, b. 121, 122.

4. Buxoroning rivojlanish davrlari.

Shaharning muhim bo‘lgan 3 - 4 davrga mansub tarzlarini bir xil masshtabga xronologik tartibda joylashtiriladi. 2, b. 203; 5, b. 122; 11, b. 71, 106.

5. Shoxi Zinda majmuasi.

Majmuaning bosh tarhi va yo‘l bo‘ylabketgan yoymadan foydalanib, aksonometriya chiziladi. 12, b. 19 - 21.

6. Chorbog‘ saroylari.

Chorbog‘ rekonstruksiyasi (G.A. Pugachenkova bo‘yicha) va bir xil masshtabga keltirilgan saroy tarhlari chiziladi. 2, b. 334; 11, b. 117; 18, b. 42, 98.

7. Uzun devorlar.

Geografik xaritaga (yoki uning sxemasiga) uzun devorlar joylashtiriladi. 11, b. 58, 59, 76.

8. Shohi Zinda majmuasining shakllanishi.

Majmua shimoliy guruhining turli davrlariga oid aksonometrik tasvirlari jadval tartibida chiziladi. 12, b. 29, 48, 57, 59, 78, 85; 11, b. 154.

9. Sulton Saodat majmuasi. Majmuaning evolyutsion tarhlar jadvali tuziladi. 11, b. 156; 22, b. 96, 98.

10. Arklar (o‘rdalar) arxitekturasi.

Turli shaharlardagi XIX - XX asr boshlaridagi o‘rdalarning tipologik jadvali tuziladi. 2, b. 334, 339, 340, 346; 4, b. 22, 112; 9, b. 54; 11, b. 39, 42, 99, 126, 135, 162; 21, b. 116; 7.

11. XIX- XX asr boshlaridagi shaharlar.

Shahar tarhlarini bir xil masshtabga keltirib tipologik jadval tuziladi. 2, b. 279, 336; 4, b. 19; 5, b. 337; 6, b. 63, 105, 147, 157; 9, b. 34, 35; 11, b. 106, 109, 111, 114, 115; 15 (tom 14, b. 37); 21, b. 127.

12. Shaharlardagi arxitekturaviy majmular. Bir xil masshtabdagi tipologik jadval tuziladi. 2, b. 248, 288, 302, 308, 313; 321; 6, b. 140; 9; 11, b. 122, 143, 144, 146, 156.

13. Qo‘rg‘on arxitekturasi.

Shahar devor va darvozalarning ortogonal proeksiyalari chiziladi. 2, b. 279, 307; 5, b. 56, 57; 11, b. 186, 32.

14. Shahar tashqarisidagi arxitekturaviy majmular. Bir xil masshtabdagi tipologik jadval tuziladi. 2, b. 312, 317; 6, b. 91, 94; 9; 11, b. 159.

15. Tarixiy shaharlarning negiz ko‘chalari.

to‘rt - besh shahar asosiy ko‘chalarning tipologik jadvali tuziladi. 2, b. 308, 336; 5, b. 377; 6, b. 69, 37; 11, b. 160, 162; 15 (tom 14), b. 375; 29, b. 114; 21, b. 132.

16. Qadimgi Xorazm shaharlari.

Olti-yetti shahar tarhi bir xil masshtabga keltirib chiziladi. 5, b. 17; 11, b. 10, 18, 19, 21, 32, 43; 5, b. 47; 21, b. 152.

17. Rustoqlar.

Bir xil masshtabga keltirib tipologik jadval tuziladi. 11, b. 40, 56, 78.

18. Ilk o‘rta asr O‘rta Osiyo davlatlarning shaharlari. Regionlar (Xorazm, Sug‘d, Farg‘ona, Shosh bo‘yichashahar tarhlari bir xil masshtabda chiziladi. 11, b. 42, 43, 53, 54, 55; 21, b. 61, 91; 22, b. 30.

19. Termiz shaharining rivojlanishi.

Shaharning uch - to‘rt davrga mansub bo‘lgan tarhlari bir xil masshtabda chiziladi. 5, b. 44; 11, b. 69, 71, 73.

20. IX-XX asrlardagi shaharlar.

Shahlar sxemalarining jadvali tuziladi. 11, b. 69, 71, 73, 81.

21. O‘zbekistonning tarixiy bog‘lari:

Sxemalar jadvali tuziladi. 2, b. 334; 11, b. 69, 71, 73, 81, 117; 18, b. 42, 98.

22. «Qo‘sh» tipdagi majmular.

Bir xil masshtabdagi tarhlar jadvali tuziladi. 11, b. 46, 262, 264; 19, b. 210, 211; 21, b. 158.

23. Uch binodan tashkil topgan arxitekturaviy majmular. Bir xil masshtabdagi tarhlar jadvali tuziladi. 5, b. 274; 11, b. 148; 21, b. 162.

24. Tarixiy shaharlarning «eski» va «yangi» qismlari. Qismlarning o‘zaro shaharsozlik munosabatlari ko‘rsatiladi. 4, b. 42, 43, 94, 137.

E. Me'moriy yodgorliklar bo'yicha namunaviy mavzular*

(*topshiriqlarni bajarish uchun tavsiya etilgan adabiyot mazkur ko'rsatma va mavzular bo'limi oxirida berilgan)

25. Deggaron masjidi.

Ish monografik xarakterga ega bo'lishi kerak. Chizmalarda yodgorlik to'g'risida mumkin qadar to'la informatsiya (bino qismlari to'g'risida ham) ifoda etiladi. 2, b. 210; 20, b. 34.

26. Madrasalar arxitekturasi.

Turli kompozitsiyadagi madrasalar tarhlari bir xil masshtabda va jadval tariqasida chiziladi. 2, b. 296; 10, b. 46, 47; 12, b. 42; 9, b. 63, 64; 18, b. 68, 70, 72, 74; 19, b. 211 va boshqa betlar.

27. Rabotlar vakarvon saroylar arxitekturasi.

Bir xil masshtabdagi tarhlarning tipologik jadvali tuziladi. 2, b. 208, 227, 228; 8, b. 103, 104, 107, 108; 11. b. 48, 51; 17, b. 76; 18, b. 48.

28. Chorsular arxitekturasi.

To'rt - besh shaharning chorrahalaridagi chorusu binolarining tarzlari jadval tarzida tuziladi. 2, b. 321; 9, b. 58; 11, b. 165; 18, b. 46.

29. Hammomlar.

Hammomlar tarhlarining jadvali tuziladi. 3, b. 61; 9, b. 59; 18, b. 44; 21, b. 82; 86.

30. Masjid tiplari.

Tipologik jadval tuziladi. Jadvalni funksional, regional va kompozitsion belgilarga q arab ajratish tavsiya etiladi. 2, b. 210, 212, 238, 325, 338; 3, b. 55, 56, 57; 8, b. 192, 194, 197; 10, b. 45; 9, b. 69, 70, 71; 18, b. 59, 63; 19, b. 200.

31. Maqbara tiplari.

To'rt - besh maqbaralarning tarz vatarhlari jadval shaklida chiziladi. 2, b. 190, 214, 215 va boshqa betlar; 5, b. 255; 8, b. 61, 121; 15, b. 54; 12, b. 521, 51; 9, b. 72, 73, 75; 18, b. 80, 81, 85; 19, b. 77, 58; 21, b. 106, 110.

32. Jarqo'rg'ondag'i minora rekonstruksiyasi.

Uch bo‘g‘inli minoralar chizmasidan foydalanib, Jarqo‘rg‘on minorasining ikkinchi va uchinchi bo‘g‘inlarning balandligi topiladi: 5, b. 209; 18, b. 65, 66; 22, b. 77.

33. Girih.

To‘rt - besh girih va pargoriy girih yechilmalari (chizilish tartiblari) topiladi. Vazifani murakkablashtirish uchun yangi girih ihtiyo etish tavsiya etiladi. 3, b. 105; 12, 6. 46, 95, 96, 105; 9, b. 270, 272 va keyingi betlar.

34. Gumbaz va toq turlari:

Tipologik jadval tuziladi. 2, b. 193, 292; 5. b. 233; 12, b. 131; 16. b. 20, 21, 29, 193, 292 va boshqa betlar.

35. XIX - XX asr boshlaridagi xalq turar uylar arxitekturasi.

Turli regionlarga tegishli uylarning tarhlar yoki (vazifa murakkablashtirilgan holda) aksonometriyalar jadvali tuziladi. 2, b. 335, 343, 346; 3, b. 20, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 37; 6, b. 384-387; 10, b. 66, 67; 11, b. 124; 16, b. 27 va undan keyingi betlar; 20, b. 138.

36. To‘rt ustunli xonalar kompazitsiyasi.

To‘sin va gumbazli konstruksiyaga ega bo‘lgan xonalar tarhlarining va yoki sxematik perspektivalarining jadvali tuziladi. 2, b. 187, 209, 210; 7; 16, b. 78, 84, 90; 21.

37. Atrofi yo‘lak bilan o‘ralgan xonalar kompozitsiyasi. Diniy binolarda (Oq Beshimdagi ibodatxonadan Bo‘yonqulixon maqbarasigacha) kompozitsion uslubning o‘zgarishi ifoda etiladi. 2, b. 189, 235, 244 va boshqa betlar: 19, b. 130; 21, b. 153.

38. Dehistondagi madrasa.

Arxeologik qazilmalar natijasida tuzilgan madrasa qismlarining tarhiga asoslanib to‘liq tarh chiziladi. 17, b. 70.

39. Markaziy kompozitsiyali binolar.

Turli davrlarga mansub bo‘lgan olti - yetti binolarning tarhlari jadval holatida chiziladi. Vazifa murakkablashtirilishi mumkin. Bunday holda chizmada tarhlar qatoriga tarzlar qo‘shiladi. 2, b. 191, 206, 312; 11, b. 48.

40. Saroylar arxitekturasi.

Tarhlarning tipologik jadvali tuziladi. 1; 2, b. 224, 226, 346; 4, b. 138, 149; 5, b. 50, 192; 9, b. 54, 55; 11, 6. 93, 131, 134, 135.

41. Hovlili binolar kompozitsiyasi.

Tarhlarning tipologik jadvali tuziladi. 2, b. 224, 225, 228, 302, 341, 342; 11, b. 51; 21, b. 51; 20, b. 93.

42. Ko'shklar arxitekturasi.

Eng ilk o'rta asrlardagi ko'shklarning tarhlaridan jadval tuziladi. 2, b. 185, 224, 225; 5, b. 31; 8, b. 93; 11, b. 27, 39; 20, b. 24;

43. Ravoq turlari.

Turli ravoq xillarini chiqarish usullari ko'rsatiladi. 1; 19, b. 72, 80.

44. Kam saqlangan bino tiplari.

Tipologik jadval tuziladi. 2, b. 282, 231; 22, b. 78, 79.

45. O'zaro kesishgan ravoqlar konstruksiyasi.

Samarqanddagi Cho'pon ota maqbarasining qirqimva fototasviridan foydalanib tarhga gumbaz proeksiyasi chiziladi. 2, b. 298.

46. Bohovuddin xonaqohi,

Ortogonal proeksiyalardan foydalanib xonaqohi aksonometriyasi chiziladi. Vazifa murakkablashtirilishi mumkin. U holda binoning chorak qismi qirqib ko'rsatiladi. 2, b. 312.

47. Muhammad Aminxon madrasasi.

Ortogonalproeksiyalardan foydalanib aksonometriya chiziladi. 2, b. 342.

48. Xonaqohlar arxitekturasi.

Tarhlarning, tipologik jadvali tuziladi. 11, 6. 85, 121, 123; 19, b. 216, 217; 22, b. 86-88.

49. Dala uylari arxitekturasi.

Tipologik jadval tuziladi. 9, b. 55, 51; 11, b. 89, 126 va undan keyingi betlar; 20, b. 138.

50. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi.

Ortogonal proeksiyalardan foydalanib aksonometriya chiziladi. 19, b. 186, 188, 190.

51. Ulug‘bek madrasalari.

Madrasalarning tarzlari bir xil masshtabga keltiriladi. 19, b. 180, 188, 193.

52.Tog‘ turar-uylari.

Ortogonal chizmalarga ko‘ra aksonometriyachiziladi.16, b. 27, 28, 30, 37, 40 va undan keyingi betlar.

53. XIX asr 2-yarmidagi XX asr boshlaridagi «yangi» stildagi arxitektura.

Turli funksiyadagi binolarning tarhlari jadval tarzida chiziladi. 4, b. 31, 57, 71, 74, 78, 14, 132 va boshqa betlar.

54. Qo‘loxiy gumbazli maqbaralar.

Regionlar bo‘yicha tipologik jadvaltuziladi. 8, b. 158, 173, 182; 10, b. 48.

55. Toshkentdagи Chilonzor Oqtepasi.

Tarz va tarhdan foydalanib aksonometriya chiziladi. 10, 6. 27.

56. Qaffol Shoshiy maqbarasi.

Qirqim va tarhdan foydalanilgan holda binoning aksonometriyasi chizilib, choragi qirqiboltingan holatda ko‘rsatiladi. 10, b. 54.

J. Mustaqil ishlarni bajarish uchun adabiyot

Всеобщая история архитектуры в12 томах, Т. 1. М ., 1970.

Всеобщая история архитектуры в 12 томах. Т. 8.М:.1969.

В.Л.Вронина. Народные традиции архитектуры Узбекистана. М:.1951.

В.А.Нилсен.Уистоков современного градостроительства Узбекистана (ХИХ-нач. XX вв.) Т:.1988.

Г.А. Пугаченкова, Л.И. Ремпел. История искусств Узбекистана. М, 1965.

Г.А.Пугаченкова,Л.И. Ремпел.Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана, Т:.1958.

Г.А.Пугаченкова. Пути развития архитектуры Южного Туркменистана поры рабовладения и феодализма. М:.1958.

- А.М. Прибыткова. Строительная культура Средней Азии в ИХ-ХИИ вв. М.:1973.
- В.А.Булатова, Л.Ю. Манковская. Памятники зодчества Хорезма. Т.:1978.
- В.А. Булатова, Л.Ю Манкрвская. Памятники зодчества Ташкента. Т.:1983.
- ВА. Лавров. Градостроительная культура Средней Азии. М.,1956.
- Н.Б. Немсева, Ю.З. Сщваб. Ансамбл Сщахи-Зинда. Т.:1979.
- Жилище народов Средней Азии и Казахстана. М.:1982.
- Ташкент. Географический атлас. М.:1983.
- O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 1-14 tomlar. Т.:1971 - 1980.
- Д.А. Назилов. Архитектура горных районов Узбекистана. Т.:1984.
- Е.А. Атагаррыев. Средневековый Дехицан. История и культура города Юго - Западного Туркменистана. Л., 1986.
- Г.А, Пугаченкова, Зодчество Сентралной Азии ХВв, Т.:1978.
- М.С. Булатов. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии ИХ-ХВ вв. М.:1978.
- В.Н. Засыпсин.Архитектура Средней Азии. М.:1948.
- Култура Среднего Воцока. Развитие связи и взаимодействия.
- Градостроительство и архитектура. Т.:1989.
- З.А. Аршавская, Э.В. Ртвеладзе, З.А. Хакимов. Средневековые памятники Сурхандари. Т.:1982 г.

KEYS – STADI:

O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixining dolzarb muammosini aniqlash (fragmentlar)

O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi fanida ustoz-olimlarning mehnatlari o‘laroq qo‘lga kiritilgan ko‘pgina yantuqlar barobarinda qator hal etilmagan muammolar mavjud.

Bo‘lg‘usi mutaxassislar uchun o‘z faoliyatida O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi, xususan O‘zbekistonning o‘tmish shaharsozlik va me’morchilik merosini to‘laqonli o‘zlashtirish borasida o‘zlarining ijodiy va ilmiy izlanishlarining yo‘nalishlarini topib olishga xizmat qiladi.

Mazkur keys talabalar o‘zlariga kelgusida ijodiy va ilmiy yo‘nalishlarini aniqlab olishlariga yordam beradi. Ta’limning bu texnologiyasi orqali talabalar o‘tmish shaharsozlik va me’morchilik tarixi bo‘yicha tadqiqotchilarining yantuqlarini o‘zlashtiradilar, ularning izlanishlarini davom etdiradilar.

1.Keysning kirish qismi

1.1 “O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi” fanining rivojlanish jarayoni (историческое описание)

O‘rta Osiyo shaharsozligi va me’morchiliga oid ma’lumotlar Avestada, Beruniy, Istarriy, Ibn Havqal, sharafiddin al-Yazdiy, Lui Gonzales de Klavixo asarlarida hamda “Boburnoma”da, Bartold, Yaxyo G‘ulomov, M.Masson, G.Pugachenkova, V.Nilsen, Po‘lat Zohidov va boshqa olimlarning tadqiqotchilarda uchraydi. Ularning ulkan xizmatlarini munosib ravishda e’tirof etish lozim.

Ayni vaqtida o‘sib kelayotgan yosh mutaxassislar uchun “O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi” fani ilmiy va ijodiy izlanishlar maydoni kengdir. Fanning aniqlanmagan, yetarlicha yoritilmagan tomonlari ko‘p.

2 Pedagogik annotatsiya

O‘quv fanlar sikli: “San’at, arxitektura va shaharsozlik tarixi”.

O‘quv fani: “O‘rta Osiyo arxitekturasi”.

O‘quv davri: VI semestr, fanning texnologik xaritasi bo‘yicha.

Mavzu: Fanning kelgusida yechilishi lozim bo‘lgan masalalari.

Keys maqsadlari: 1. Fanning shu kungacha aniqlangan va aniqlanmagan sohalari (mavzulari) to‘g‘risida talabalarga tasavvur berish.

2. Iqtidorli talabalarni aniqlash.

Kutilayotgan o‘quv natijalar: Fan bo‘yicha ma’lumotlarni mustaqil ravishda taxlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar; olgan bilimlarini kengaytirish uchun o‘z oldilariga muayyan maqsad qo‘ya oladi va buning uchun tegishli vazifalarni belgilay olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tayanch bilim (prezentatsiya) va tayanch ko‘nikmalar:

Keysni muvaffaqiyatli ravishda echishlari uchun O‘rta Osiyo arxitekturasining asosiy mazmunini bilishlari, tanlangan mavzu bo‘yicha mustaqil ish bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.

Holat (situatsiya) turi: Keys haqiqiy – tashkiliy (institutsional) tizim – TAQI faoliyatini ifoda etadi.

Axborot manbai “O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi” fanidan talabalarning mustaqil ishlari bo‘yicha qilingan prezentatsiyalar davomida olingen ma’lumotlari

Keysning tipologik tasniflari:

- asosiy manbalardan xona sharitida foydalilaniladi;
- davrlarning ketma-ketligi nuqtai nazardan olganda keys-syujetli, holat (situatsiya) o‘tmishdan - hozirgi kunga tartibida bayon etilgan;
- keys ob’ekti ko‘p sub’ektlardan tashkil topgan keys materiali ma’lumotlar majmuasi usulida keltirilgan, hajman - o‘rtacha kattalikda, tizimli, ya’ni strukturaga ega;
- o‘quv topshirig‘i keys- vazifa tariqasida berilgan, o‘quv (dedaktik) maqsadi jihatidan keysni trening shaklida o‘tkazish belgilangan, nashriy matn sifatida shakllangan.

Keysning qayta ishlanishi:

Keysning tashkiliy – uslubiy ta’minotini qayta ishlangan xolda undan “San’at, arxitektura va shaharsozlik ” fanlar siklidagi “San’at tarixi”, “Arxitektura tarixi”,

“Shaharsozlik tarixi” kabi fanlarni o‘qitish jarayonida ham foydalanish imkoniyati mavjud.

Keysning bosh muammosi: “O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi” fanining muammolar doirasini aniqlash.

Bosh muammoning bo‘limlari (kichik muammolari):

1. Talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish;
2. Eski nashrlardagi berilgan sana va boshqa me’moriy ma’lumotlarning taxlil qila bilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
3. Talabalar tomonidan o‘zlari rejalagan faoliyati yo‘nalishiga tegishli.

5 Ta’lim modeli

<i>Mavzu</i>	“O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi” fanining eng dolzarb muammolari
<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqt:</i> auditoriyada individual (mustaqil)ish
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	Bilimni kengaytirish va chuqurlashtirish ham ko‘nikmalarni kengaytirish bo‘yicha seminar-treninglar
<i>Seminar-treninglar rejasi (keys bosqichlari)</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Keys-o‘quv mashg‘ulotlariga kirishish (vazifa qo‘yish) 2. Bilimlarni aktuallashtirish (individual ish) 3. Keysni guruhchalar miqyosida echish (guruhcha a’zolarining prezintatsiyalari va diskussiya) 4. Keysni kichik guruhlar miqyosida echish (kichik guruhcha a’zolarining prezintatsiyalari va diskussiya) 5. Keysni oqim miqyosida (umumiy prezintatsiya, diskussiya), keys o‘quv mashg‘ulotlarini yakunlash (talabalar, guruhchalar, kichik guruhlar) faoliyatlarini hamda seminar-trening maqsadiga etishganlik darajasini baholash
<i>O‘quv mashg‘ulotlarining maqsadi:</i>	O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish, fanga tegishli bo‘lgan, muayyan mavzuga oid materiallar to‘plash ko‘nikmalarini takomillashtirish, muammoli amaliy vaziyat (situatsiya)larni tahlil eta bilish va undan chiqqa olish ko‘nikmalarini shakllantirish.
<i>O‘quv faoliyati natijalari</i>	<p><i>O‘quv faoliyati natijalari</i></p> <p>Mashg‘ulotlar natijasida talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Keysda ifoda etilgan vaziyat (situatsiya)ni <u>tahlil</u> eta biladilar; • <u>Muammoni</u> ajrata va ifoda eta oladilar, unga mos ravishda o‘zi va boshqalar oldiga vazifa qo‘ya oladilar, muammoli vaziyatdan chiqish bo‘yicha amallar algoritmini ishlab chiqara oladilar; • <u>Keysni echish</u> uchun vaziyatni (situatsiyani) tahlil etish natijasida asoslangan yechim topa oladilar; <p><i>O‘qituvchi vazifalari</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalarda “O‘rta Osiyo arxitekturasi tarixi” fanidan bilimlarini mustaxkamlash va chuqurlashtirish; • Talabalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muammoni ifodalash, vazifa qo‘yish, vazifani bajarish tartibini (algoritmini) ishlab chiqish kabi <u>ko‘nikmalarini</u> shakllantirish; • Talabalarda <u>o‘z nuqtai nazarini</u> asoslash va himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish; • Talabalarda bahs (diskussiya) madaniyatini, kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish.

• <u>Yakuniy xulosaga</u> kela biladilar va asoslangan ravishda himoya eta biladilar.	
Ta'lim uslublari	Keys-stadi, aqliy hujum, bahs, nazariy uslub
Ta'lim vositalari	Keys, talabalar uchun uslubiy ko'rsatmalar, adabiyot, internet
Ta'lim shakllari	Individual ta'lim; akademik oqim, kichik guruhchalar, guruhchalar bilan ishlash
Ta'lim sharoiti	Auditoriyalar, kutubxonalar
Monitoring va baholash	Kuzatuv, blits-so'rov, prezintatsiya, o'zaro baholash va baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ходиев Б.Ю., Голиш Л.В., Хашимова Д.П. Способы и средства организации самостоятельной учебной деятельности: Учебно-методическое пособие для студентов. Издания 2-е, дополненное и исправленное. ТГЕУ, 2010, 115 с.

Ходиев Б.Ю., Бекмурадов А.Ш., Голиш Л.В. технология разработки кейса: Слайдовая презентация.

Разработка и реализация кейс-технологии обучения: Слайдовая презентация ТГЕУ.

MAVZULAR BO‘YICHA SAVOL – JAVOBLAR

Nº	Mavzular nomi	Mavzuga ajratilgan soat	Mavzu ichidagi kichik tugal mavzular nomi	Baholanadigan ball	Savollar	Javoblar
1	O‘rtal Osiyo me’morligining umumiy tavsifi	2	O‘rtal Osiyo me’morligining asosiy jihatlari	1	O‘rtal Osiyo me’morligining muhim sifatlari nimalardan iborat?	O‘rtal Osiyo me’morligi juda qadimdagisi yuksak darajada rivoj topgan bo‘lib, u jahon me’morligining tarkibiy qismini tashkil etgan
			O‘rtal Osiyo me’morligi bosqichlari	1	O‘rtal Osiyo me’morligi tarixida qanday asosiy davrlar mavjud?	Ibtidoiy davrdan m.av.VIII asrgacha, m.av. VIII-m.V asrlar, VI-XIII asr boshi, XIII-XVII asrlar, XVIII-XIX asrning 1-yarmi, XIX asrning 2-yarmi-XX asr boshi
			Me’moriy maktablar	1	O‘rtal Osiyo me’morligida necha me’moriy maktablarni ajrata olasiz?	Yetti: janubi-g‘arbiy (Turkmaniston), shimoli-g‘arbiy (Amu daryoning quyi oqimi (Xorazm), janubiy (Surxondaryo), markaziy (Zarafshon vodiysi), sharqi (Farg‘ona vodiysi), va shimoliy (Janubiy Qozog‘iston) maktablarni ajratish mumkin
			Qurilish ashyolari	1	O‘rtal Osiyo me’morligida qanday ashyolardan foydalanishgan?	Gilga asoslangan ashyolardan (paxsa, xom g‘isht, pishiq g‘isht, keramik qoplama va boshqalar), yog‘och, tosh kabi ashyolardan foydalanilgan; qorishma sifatida – loy, ganch, qir; pardoz sifatida – ganchkorlik, sirli qoplamlar qo‘llanilgan
			Qurilish konstruksiyalari	1	Urta Osiyo me’morligida qanday konstruksiyalar rivoj topgan?	Asosan ikki: 1. tayanch-to‘sini (jumladan yakka va qo‘sish sinchli devorli) 2. ravoqli, toqli hamda turli gumbazli konstruksiyalar asrlar mobaynida takomillashib borgan)
2	Arxitektura debochasi	1	Tosh va birinj davridagi yodgorliklar	1	O‘zbekistonda tosh davriga mansub qanday manzilgohlar bor?	Quyi paleolit (taxminan 800-100 ming yillardan burun) manzilgohlari juda sodda bo‘lgan; o‘rtal paleolit (taxminan 100-40 ming yilliklar burun) manzilgohi sifatida Teshik toshni (Boysun togida) yukori paleolit (taxminan 13-5 ming yilliklar) manzilgoxi sifatida Samarqand shahar bogidan topilgan manzilgoxni hamda mezolit (taxminan m.av. 13-5 ming yillardan) va neolit (taxminan m.av.4-3 ming yillardan) oraliklariga mansub deb faraz kilingan Machayni (Boysun tumani) misol tarikasida keltirish mumkin
			Janubiy Turkmanistondaneolit davridagi arxeologik obidalar	1	Janubiy Turkmanistondagi qanday arxeologik obidalar o‘rganilgan?	Pasajiktepa (m.av.6-mingginchi yillik), Jaytun (m.av.7-5-mingginchi yilliklar), Qoratepa (m.av.3-mingginchi yillik), Kuksur (Geoksyur) tolosi (m.av.4-3-mingginchi yillardan); bularning Yaqin Sharqdagi Sherixon neolitik qarorgohlari bilan umumligi mavjud

		Dastlabki shaharlar (protoshaharlar)	1	Birinj (bronza) davriga mansub qanday dastlabki shaharlarni bilasiz?	Oltintepa (Kaaxka tumani, Meana qishlog'i, m.av.5-4-mingginchi yilliklarda - qarorgoh, m.av. XXI-XVIII asrlarda - shahar), Sopollitepa (Surxondaryo, m.av. XVII-XIV asrlar), Jarqo-ton (Surxondaryo)	
3	Qadimgi shaharsozlik	1	Ahamoniylar davridagi shaharsozlik	1	Zardushtiyarning muqaddas kitobi "Avesto"da qanday ma'lumotlarni uchratish mumkin?	"Avesto"da qadimgi shaharsozlik bo'yicha ayrim ma'lumotlar bor, chunonchi, unda ezbilik ma'budi Ahura Mazda podshoh Jamshidga tomonlar bir ot yuguruvni uzunlikka ega bo'lgan "vara" (sug'dcha - "qo'rg'on") qurishni buyurganligi, bir ariqdan suv ichgan manzilgohlolar maxsus nom bilan atalganligi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud
			Ilk antik va kushonlar davridagi shaharsozlik	1	O'rta Osiyoning qadimgi davrga mansub qanday muhim shahar va manzilgohlarni bilasiz?	Shimoliy Parfda-Nisa (Mixrdatkirt va Yangi Nisa), Marg'iyonada-Erk qal'a va G'avr qal'a, Shimoliy Baqtrada-Termiz, Dalvarzintepa, Sug'dda-Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Parkanada-Chust, Ealaton, Sho'rakashot, Marhamat, Toshkent vohasida-Choshtepa, Qang'ha, Xorazmda-Ko'zali qir, Qal'ali qir, Jonbozqal'a, Qo'yqirgan qal'a, Tuproq qal'a)
4	Qadimgi me'morlik	2	M.av.VIII-IV asrlar me'morligi	1	Qadimgi davrning dastlabki bosqichlaridagi turar uylar me'morligi to'g'risida nimalarni bilasiz?	Qadimgi davr me'morligining dastlabki bosqichlarini Kuchuktepa qo'rg'on hovlisi (Baqtra), Bo'ztepaka kichik manzilgohi (Parkana), Qal'ali qir saroyi (Xorazm) kabi obidalar xarakterlab beradi
		Shimoliy Parf me'morligi	1	Shimoliy poytaxt bo'lgan shaharda qanday yirik inshootlar qurilgan?	Shimoliy Parfda Arshoqiyarning rezidansiyasi bo'lgan Nisada "Kvadrat zal", "Aylana ibodatxonasi" kabi mahobatli inshootlar qurilgan	
		Shimoliy Baqtra me'morligi	1	Shimoliy Baqtriy me'morligini qanday inshootlar xarakterlab beradi?	Xolchayon saroyi, Kushonlar davri me'morligiga oid bo'lgan Zurmola stupasi, Termizdagi Fayoztepa vixarasi (yer ustida), Qoratepa vixarasi (yer ostida) kabi inshootlar Baqtra me'morligi uchun xarakterlidir	
		Qadimgi Xorazm me'morligi	1	Qadimgi Xorazm me'morligidagi san'at turlarining sintezi masalasi qanday yechilgan?	Tuproq qal'a saroyining "Navkarlar zali"da haykaliy bezaklar qo'llanilgan; devoriy sur'atlarda tasvirlar, jumladan, arfa chalayotgan qiz ko'rsatilgan	
5	Ilk o'rta asr shaharsozligi	2	Eng ilk o'rta asrlar shaharsozligi	1	Eng ilk o'rta asrlardagi shaharlarning tarhiy qismlarini aytib, ularni Panjikent misolida ko'rsating	Eng ilk o'rta asrlarda (V-VIII a.) shaharlar aksari ikki: diz (qal'a) va asosiy qismi-shahristondan iborat bo'lgan, chunonchi, Panjikentning g'arbida diz, sharqida esa shahriston barpo bo'lgan; atrofida navs (suyaklar saqlanadigan inshoot)lar joylashgan edi
		"Uzun devor"lar	1	"Uzun devor"larni tushuntirib bering va ularga misollar keltiring	Obod vohalardagi shahar va qishloqlarni muhofaza qilish uchun qurilgan qo'rg'on devorlarga "Uzun devor"lar degan ibora qo'llanilib, aksari "Devori kandi pirak (Kanpir devor)" nomlari bilan atalgan, masalan: Buxoro va Toshkent atroflari	
		Rustoqlar	1	Rustoqning ta'rifini bering va unga misol keltiring	Ilk o'rta asrlarda biron katta ariqdan suv ichgan dehqonlarning mayda-yirik manzilgohlari rustoqni tashkil etgan, masalan Xorazmdagi Burgut qal'a va Qavat qal'a	
		Ilk o'rta asrlardagi shahar lar tuzilishi	1	Ilk o'rta asrlardagi shahar larning tarkibiy qismlari aytib, unga misollar keltiring	Aksari shaharlar o'rta asrlarda ark (qal'a), asosiy qismi (shahriston, hisor, madina) va alohida qo'rg'on devor bilan o'ralgan (rabod) qismidan tashkil topgan, masalan: Buxoro va Toshkent (Binkad) shaharları	

			Shaharlarning obodonlashtirishishi	2	Shaharlarda qanday obodonlashtirish inshootlari bo‘lgan?	Shaharlarni suv bilan ta’minlashga alohida e’tibor berilgan, Afrosiyob (Samarqand) kabi tepalikda joylashgan shaharlar ko’targan, Farova kabi shaharlarga suv koriz (yer ostki sopol quvurlar) orqali keltirilgan, ba’zi shaharlar (mas.- Marv, Buxoro, Termiz)da taroz-kanalizatsiya qo’llanilgan
6	VI-VIII asrlar me’morligi	2	Toq-gumbazli konstruksiyalar	1	VI-VIII asrlarda qanday toq-gumbazli konstruksiyalardan foydalanilgan?	Eng ilk o’rtasrlarda yassi yopmali konstruksiyalardan tashqari tik bo’lakli toqlardan, qiya bo’lakli toqlardan hamda perspektiv ravoq (bag’al)larga tayangan gumbazlikonstruksiyalardan foydalanilgan
			Bezaklar	1	VI-VIII asrlarda qanday tasviriy vositalar bezak sifatida qo’llanilgan?	Haykaliy bezaklar (Varaxshoxda - arxar, bedanalar, Panjakentda - kariatida) va syujetli devoriy suratlar (Afrosiyobda, Bolalitepada, Mingo’rikda va boshqalarda) qo’llanilgan
			Ko’shklar	1	Xorazmshox Afrig’ qurdirgan saroy qaysi ko’shkka o’xshaydi?	Abu Rayxon Beruniytavsiflagan Afrig’ saroyi (markaziy binoni o’rab turgan uch qator devor, ko’tarma ko’prik va boshqalar) Xorazmdagi Yakka Parson ko’shi tuzilishi bilan bir xildir
			Panjakent me’morligi	1	Panjakent me’morligida qanday binolar turlari ayniqsa diqqatga sazovor?	Panjakentning turar uylari, ayniqsa uylardagi o’zining kattaligi bilan ajraladigan to’rt ustunli xona – (mehmonxona)lar hamda shahar markazida joylashgan katta va kichik ibodatxonalar alohida diqqatga sazovordir
7	IX-X asrlar me’morligi	2	Qurilish ashyolari va konstruksiyalar	1	IX-X asrlar me’morligida qanday qurilish ashyolari va konstruksiyalar qo’llanilgan?	Qurilish ashyolari sifatida xom g’isht bilan bir qatorda bejirim ko’rinishda teriladigan mayda o’lchamli g’ishtlar keng qo’llanilgan, yassi yopmali konstruksiyalardan tashqari zilzilabardosh uchli ravoq va sfera-konus shaklidagi gumbazlar rivoj topgan
			Bezaklar	1	IX asrdan boshlab qanday naqshlar mavjud bo‘lgan?	IX asrdan boshlab asosan uch turdagи naqshlardan: islimiy (o’simliksimon), girix (handasiy) hamda xattroji (epigrafik) naqshlardan keng foydalanilgan
			Masjid turlari	1	Qanday masjid turlari mavjud?	Masjidlarning asosiy tuzilishlari jihatidan bir-biridan ajraladigan uch turi mavjud: 1. mahalla masjidlari - kunda besh mahal namoz uchun, 2. jome yoki juma masjidlari - juma namozlari uchun, 3. namozgoh yoki iydgoh - hayit namozlari uchun mo’ljallangan
			To’rt tayanchli masjidlar	1	Qanday to’rt tayanchli masjidlarni bilasiz?	Qadimdan ishlab kelingan to’rt tayanchli zallar me’moriy mavzusi uch masjidda: 1. Buxorodagi Mox (Mag’oki Attoriy) masjidida, 2. Xazoradagi Deggaron masjidida va Termizdagi Chorsutun masjidida davom ettirilgan
			Maqbaralar me’morligi	1	IX asrlarda bunyod bo‘lgan qanday maqbaralar mavjud	Uch maqbara: jahon me’morchiligining shoh asari bo’lmish Buxorodagi Somoniylar maqbarasi, Tim (Samarqand viloyati) qishlog’idagi Arab ota maqbarasi va Karmanadagi Mir Sayid Bahrom maqbaralari alohida diqqatga sazovordir
8	XI-XIII asrlar me’morligi	4	Davr me’morligining umumiy tavsifi	1	XI-XIII asrlar me’morligida qanday jihatlar alohida ajraladi?	XI-XIII asrlarda pishiq g’ishtdan kengroq foydalaniladi, g’ishtlarni turli holatda terish vositasida bejirim bezak hosil etiladi, dastlabki bor sirkor qoplamlalar qo’llaniladi, gumbazlar bir necha qobig’lardan tashkil etilib, ularning tuzilishi murakkablashadi, binolar kompozitsiyasida frontallik yetakchilik qiladi

			Yog'och o'ymakorligi	1	XI-XIII asrlarga mansub yog'och o'ymakorligining qanday yuksak namunalarini bilasiz?	XI-XIII asrlardagi yog'och o'ymakorligining yuksak namunalarini qatoriga Xiva juma masjidining ismiy, girih va xattoyi naqshlari bilan bezatilgan o'nga yaqin ustunlar, Iskador qishlog'idan topilgan yog'och mehrob va Kurut qishlog'ida ishlangan yog'och me'moriy unsurlar kiradi
			Me'moriy maktablar	1	Qanday me'moriy maktablar mavjud edi?	XI-XIII asr boshidagi O'rta Osiyo me'morligida o'ziga xosliklari bilan janubi-g'arbiy (Shimoliy Xuroson), shimoli-g'arbiy (Xorazm), markaziy (Movaraunnahr), sharqiyl (Qozog'iston va Qirg'izistonning shimoliy hududlaridagi) me'moriy maktablar alohida ajraladi
			Shimoliy Xuroson me'moriy maktabi	1	Shimoliy Xuroson me'moriy maktabiga qanday jihatlar xos, ular qaysi maqbaralarda namoyon bo'ladi?	Shimoliy Xuroson me'morlari binolarning hajmiy yechimiga alohida urg'u berishgan bo'lib, bu jihat Kerki yaqinidagi Xo'ja A'lambardor, Saraxsdagi uch qobig'li Gumbaz bilan yopilgan Abul Fazl, Miyonadagi ikki qobig'i saqlangan gumbaz bilan yopilgan Abu Sayid hamda tashqi yechimi Somoniylar maqbarasi bilan hamoxang bo'lgan Marvdagi Sulton Sanjar maqbaralarida yaqqol namoyon bo'lgan
			Xorazm me'moriy maktabi	1	Xorazm me'moriy maktabining o'ziga xosligi nimadan iborat?	Xorazm me'moriy maktabida ikki: ichki, cho'qqili (uchli) va tashqi, gardishlarga tayangan ko'laxiy gumbazlar qo'llanilgan bo'lib, bu Ko'hna Urganchdagi Fahriddin Roziy (gardishi - prizma, gumbazi - ko'pqirrali piramida) va Sulton Takash (gardishi - silindr, gumbazi - konus) maqbaralarda o'z ifodasini topgan
			Farg'ona me'moriy maktabi	1	O'zgandagi maqbaralar me'morligi kompozitsiyalarida qanday jarayon o'z aksini topgan?	O'zgandagi uch maqbara kompozitsiyalarida markaziylikdan frontallikka o'tish jarayoni o'z ifodasini topgan: dastlabki, o'rtadagi maqbara to'la markaziylikka ega, keyingi qurilgan shimoliy maqbarada old tomongina birmuncha ajratilgan, oxirgi bo'lib qurilgan janubiy maqbara to'la frontal kompozitsiyada qurilgan.
			Janubiy Qozog'iston me'morligi	1	Shimoliy me'moriy maktabga oid qaysi binolarni keltirish mumkin?	Shimoliy me'moriy maktabga mansub binolarda hajmiy jihatdan soddarloq, lo'ndaroq bo'lgan, ko'proq qo'loxiy gumbazlar qo'llanilgan; bu jihatlar Janubiy Qozog'istondagi Bobozi Xatun va Oysha bibi maqbaralariga ham mansubdir
			Minoralar me'morligi	1	Minoralar me'morligi namunalarining o'zlariga xos jihatlari nimalardan tashkil topgan?	Buxorodagi Kalon minorasi umuman me'morlikning yuksak namunalaridan hisoblanadi, unga shaklan o'xshash bo'lgan Vobkentdagi minora o'zining ixchamligi bilan, Jarqo'g'ondagi minora sirti g'arovli qilib ishlanganligi bilan, Termizdagi minora qaddi (shakli) silindrikligi bilan ajralib turadi
			Karvonsaroylar	1	Karvon saroylar muhim namunalarining kompozitsiyalari qanday tashkil topgan?	Turkmanistondagi Doya xotin karvon saroyi hovlili to'rt ayvonli kompozitsiyada, Buxoro bilan Samarqand oraliq'idagi Raboti Malik simmetrik tarzida tashkil etilgan bir necha hovlili kompozitsiyasida hal etilgan; ikkala karvon saroyning ham to'rida gumbazi sakkiz tayanchga asoslangan zal (masjid) joylashtirilgan
9	XIV-XV asrlar shaharsozligi	2	Samarqandning shaharsozlik tizimi	1	Mo'g'ullar istilosidan keyingi davrda Samarqandning tuzilishi qanday bo'lgan?	Afrosiyob (Samarqand)ni suv bilan ta'minlab turgan inshoot - Jo'yi Arzis istilida buzilgandan keyin, shahar janubga, pastga ko'chgan va asosan ikki: qal'a va xisordan iborat bo'lgan

			Samarqand Registoni majmuasi	1	Samarqand Registoni XV asrda qanday tuzilishda edi?	Registonning daslabki inshootlari (madrasa, xonaqoh, karvon saroy, hammom) Ulug‘bek tomonidan qurdirligani bo‘lib, majmuaga bulardan tashqari Ko‘kaldosh jome masjidi va yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatilgan Muqatta masjidi ham kirgan
			Samarqand tevaragi	1	Samarqand atrofi qanday ko‘rinishda bo‘lgan?	Samarqand atrofida Amir Temur va Ulug‘bek tomonlaridan jaxon poytaxtlari nomlari (Forish-Parij, Bog‘dod) bilan atalgan qishloqlar barpo etildi, o‘ndan ortiq chorborg‘lar (mas.: Bog‘i Shamol, Bog‘i Baland, Bog‘i Dilkusho kabi)lar tashkil bo‘ldi
			Shohizinda majmuasi	1	Shohizinda qanday kompozitsiyaga ega?	Majmua Afrosiyob (Bolohisor)ning Janubiy yonbag‘ri deyarlik o‘n ikki asr mobaynida Qusam ibn Abbas qabrida yonida chiziqli kompozitsiyada barpo bo‘lgan; turli qurilma (asosan maqbara)lar uch chortoq atrofida uyushgan
			Shahrisabzning shaharsozlik tizimi	1	Shahrisabz qanday tuzilishgai ega bo‘lgan?	Shahrisabzning hisori to‘g‘ri to‘rtburchak shaklga ega bo‘lib, uning to‘rt darvozalaridan o‘tgan ikki asosiy ko‘cha kesishgan joyni Chorsu binosi belgilab turgan; hisorning janubi-sharqiyo choragida Dorus Saodat va Dorut Tilovat majmualari barpo bo‘lgan; shahar tevaragini mavzelar egallagan edi
10	XIII-XIV asr o‘rtasidagi me‘morligi	2	XIII-XIV asr o‘rtasidagi me‘morlikning umumiy tavsifi	1	Mazkur davr me‘morligining xarakterli jihatlari nimalardan iborat?	Me‘morlikda sifat o‘zgarishlari sodir bo‘lib, ustalar ko‘proq markaziy gumbaz og‘irligini yon tomonlardagi konstruksiyalarga muvozanatlilik holda taqsimlaydigan xonalar guruhini tashkil etish, bezakda sirli qoplamlarni keng tadbiq etish muammolarini hal etishga harakat qilganlar
			Xorazm me‘morligi	1	XIII-XIV asr o‘rtasidagi me‘morlik ko‘proq Xorazmning qanday inshootlarida namoyon bo‘ladi?	XIII-XIV asrlar me‘morligida Ko‘xna Urganch yetakchilik qilgan bo‘lib, uning xarakterli jihatlari minora to‘rt xonadan iborat bo‘lgan Najmiddin Kubro maqbarasi va To‘ra beka xonim maqbarasi hamda Ostonadagi Shayx Muxtor Vali maqbarasi kabi binolarda namoyon bo‘ldi
			Samarqand va Buxoro me‘morligi	1	Samarqand va Buxoroda XIII-XIV asr o‘rtasida qanday inshootlar bunyod bo‘lgan?	XIII-XIV asr o‘rtasida Shohizinda majmuasi tarkibida Xo‘ja Ahmad maqbarasi, Usta Ali qurban maqbara, 1360 yilda qurilgan maqbara, Buxoroda Sayfiddin Boxarziy, Buyon Qulixon maqbaralari kabi binolar qurildi
11	Amir Temur me‘morligi davri	3	Mazkur davrning umumiy jihatlari	1	“Yangi uslub” qanday vujudga keldi?	Amir Temur davridagi me‘morlik uslub jihatidan oldingidagidan ancha farqlanib, uni o‘sha davrdayoq zamondoshlar, jumladan Sharofiddin al-Yazdiy tomonidan “yangi uslub” ibora orqali e’tirof etilgan edi; “yangi uslub” uchun o‘ta mahobatlilik, serbezaklilik kabi jihatlar xarakterli edi
			Bibi xonim majmuasi	1	Bibi xonim majmuasi qanday hosil bo‘lgan?	Samarqandning shimoliy tarafga ketadigan hozirgi Toshkent ko‘chasida qo‘sh tariqasida bunyod etilgan kiraverish peshtog‘i alohida ajratilgan hovlili, to‘rt ayvonli kompozitsiyasida qurilgan Amir Temur jomesi va qarshisidagi (tarkibida Bibixonim maqbarasi bo‘lgan) madrasadan tashkil topgan
			Go‘ri Amir maqbarasi	1	Muhammad Sulton majmuasida qanday o‘zgarishlar bo‘lgan?	Amir Temurning vorisi bo‘lmish nabirasi Muhammad Sulton vafotidan so‘ng, unga hovli atrofida maqbara, xonaqoh va madrasa solingen bo‘lib, Ulug‘bek davrida maqbaraga kiraverish tomoni o‘zgartirilgan; hozirgi vaqtida hovli peshtog‘i va maqbaragini saqlangan
			Shahrisabz me‘morligi	2	Shahrisabzda Amir Temur vaqtida qanday uch yirik bino va majmualar	Birinchisi - dastlab to‘rt qavatli, hovlili bo‘lgan hozir faqat kirish peshtog‘ining ikki yon tomon(pillapoya)larigina saqlangan Oq saroy; ikkinchisi - tarhi to‘qqiz

					qurilgan edi?	bo‘laklardan tashkil topgan va hozir peshtog‘ining bir tomoni Hazrati Imom maqbarasi nomi bilan ataladigan va Jaxongirni dafn etish uchun mo‘ljallangan deb hisoblanadigan tagxona (lahad)dan iborat qismlari saqlangan Dorus-Siyodat bino-majmuasi; uchinchisi - tarkibiga Ko‘k Gumbaz jome masjidi, Shamsiddin Kulol va Gumbazi Sayidon maqbaralari kirgan Dorut-Tilovat majmuasi (inshooti)
			Xo‘ja Ahmad Yassaviy bino-majmuasi	1	Bino-majmualar deb qanday binolarga aytildi?	Bino-majmua (Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy va SHahrisabzdagi Dorus-Siyodat yodgorliklari kabilarning tarhlari va ko‘ndalangiga uchtadan qismlarga bo‘lingan hamda turli vazifalarni (kiraverish - peshtoq, ziyoratxona, go‘rxona) o‘tagan inshootlarni bir o‘zida mujassam etgan binoga aytildi
12	Temuriyla r davri me‘morligi	3	Temuriylar davri me‘morligining umumiy tavsiyi	1	XV asr me‘morligi uchun nimalar xarakterli?	Temuriylar, ayniqsa Ulug‘bek davri me‘morligi uchun ilm-fan bilan bog‘liq bo‘lgan inshootlar salmog‘ining yuqoriligi, binolar kompozitsiyasida arxitektonikaviylik (bezaklarning hajmlarga nisbatan mutanosiblik) kabi jihatlar xarakterlidir
			Madrasalar me‘morligi	1	Ulug‘bek qurdirgan necha masjid saqlangan?	Ulug‘bek qurdirgan uch: eng katta va madrasalarning klassik namunasi bo‘lgan Samarcanddagi, o‘rtacha kattalikda ishlangan Buxorodagi va kichikroq bo‘lgan G‘ijduvondagi madrasalar saqlangan; ularning hammasi ham hovlili kompozitsiyada bo‘lgan
			Rasadxonaning tuzilishi	1	Qanday bo‘lgan?	Rasadxonaning dastlabki holati bo‘yicha olimlar bir xil fikrga ega emaslar; bu masala bilan shug‘ullangan Jahongirov, Vyatkin, Qori Niyoziy, M.Bulatov, G.Pugachenkova, V.Nilsen, P.Zohidov kabi tadqiqotchilar rasadxona to‘g‘risida bir-birlarinikidan farqlanadigan fikrlarni bildirishgan
			O‘zaro kesishgan ravoqli binolar	1	Markaziy xona gumbazida o‘zaro kesishgan ravoqli yodgorliklar to‘g‘risida nima deyishingiz mumkin?	Samarcandda o‘zaro kesishgan ravoqli (chorlinga) konstruksiyaga ega bo‘lgan Ishratxona, Oq saroy va Cho‘pon ota nomlari bilan ataladigan yodgorliklar dastlabki funksiyasi to‘g‘risida olimlar turli tahminlar ilgari surishgan
			Buxoroning XV asr me‘morligi	1	Qanday inshoot misolida ko‘rsatish mumkin?	XV asr me‘morligi aks etgan eng yirik bino Kalon masjid (235x85 m) bo‘lib, u an‘anaviy-hovlili to‘rt ayvonli tarzda barpo etilgan; hovlining sharq va g‘arb taraflari besh qatorli, shimol va janub tariflari to‘rt qatorli gumbazlar bilan yopilgan; masjid to‘rini (mehrob tomonini) katta gumbazli xonaqoh egallagan
			Anovdagagi masjid	1	Anovdagagi masjidning tuzilishi qanday bo‘lgan?	Masjidning hajmiy rejalanishida relefdan ustalik bilan foydalilanilgan; bir tomoni ochiq hovlining to‘rida yirik gumbazli, katta ravoqli xonaqoh bo‘lib, uning ikkala old burchaklariga o‘rtalari bir xil kattalikdagi gumbazlar bilan yopilgan qo‘sishma qurilmalar tutash bo‘lgan
			Me‘moriy risolalar	1	Me‘morlik nazariyasiga oid qanday risolalarni bilasiz?	Fanda hozirgacha ikki risola o‘rganilgan; birinchisi - G‘iyosiddin Koshiyning “Miftohul hisob” bo‘lib, u hunarmandlar, jumladan me‘morlar uchun qo‘llanma tariqasida yozilgan; ikkinchisi - “Irshod az-Ziroa” risolasi bo‘lib, u bog‘chilik san‘atiga, xususan chorborg‘lar tashkil qilish masalalariga bag‘ishlangan
13	XVI-XVII asrlar	2	Buxoro shahrining tuzilishi	1	Buxoroning qo‘rg‘on devorlari va darvozalari qanday bo‘lgan?	Shaharning hududi XVI asrda oldingi davrdagiga qaraganda g‘arbdagi Jo‘ybor shayxlariga tegishli yerlar hisobiga kengaygan, yangi qurilgan qo‘rg‘on devorida 11, ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra 12 darvozalari bo‘lgan

	shaharsoz -ligi					
		Me'moriy majmualar	2	Buxoro va uning atrofidagi qanday me'moriy majmualarni bilasiz?	Buxoroning avvalgi shaxristoni hududida Poyi kalon majmuasi (Kalon minorasi va jome masjidi, Amir Olimxon madrasasi), qo'sh tarzida barpo bo'lgan Ulug'bek va Abdulazizzon madrasasidan tashkil topgan majmua mavjud; shahriston hududidan tashqarida Labi Hovuz majmuasi (Ko'kaldosh madrasasi, Nodir Devon begi xonaqohi va madrasasi, hamda saqlanmagan Ernazar elchi madrasasi), Qo'sh madrasa (Abdullahxon va Madorixon madrasalari) joylashgan; shahardan tashqarida Chor Bakr (madrasa, xonaqoh, madrasa, minora) va Bahovuddin (xonaqoh, quduq, ikki ayvonli masjid, madrasa va boshqa inshootlar) majmualari barpo bo'lgan	
		Samarqandning Registon maydoni	1	XVII asrda qanday qayta qurish ishlari olib borildi?	Shahar hokimi Yalangtush Bahodir davrida Ulug'bek madrasasi qarshisida Sherdor madrasasi, maydonning shimoliy tomonida Jome masjidi vazifasini ham o'tagan Tillor koriy madrasasi qurilgan; hozirgi vaqtida ham Registon shunday ko'rinishga ega	
		Qarshining Registon maydoni	1	Qarshi Registoni tarkibiga qanday binolar kirgan?	M.E.Masson qaydiga ko'ra – XX asr boshida Qarshi Registoni tarkibiga sho'rolar davrida qamoqxonaga aylantirilgan va hozirgi vaqtida ta'mirlangan Odina masjidi hamda sardobadan tashqari Abdullaxon madrasasi, Chorsu binosi va bir qancha kichikroq madrasalar kirgan	
14	XVI-XVII asrlar me'morligi	4	XVI-XVII asrlar me'morligidagi bosqichlar	1	XVI-XVII asrlar me'morligining necha va qanday bosqichlari mavjud, ular nimalar bilan farqlanadi?	Ikki bosqichi bo'lgan: XVI asrning 1-yarmi mobaynidagi birinchi bosqichda avvalgi, XV asrga oid bir necha jihatlari davom etgan, XVI asrning 2-yarmida – XVII asr mobaynidagi ikkinchi bosqichda yangi jihatlar to'la namoyon bo'lgan
		Davr me'morligining umumiy tavsiyi	1	Me'morlikda qanday muhim o'zgarishlar ro'y berdi?	Birinchidan, binolar tipologiyasi o'zgardi - maqbaralar alohida bino sifatida deyarli qurilmadi, savdo-sotiq binolari va xonaqohlar ko'plab qurildi; ikkinchidan, binolarning hajmiy tuzilishi o'zgardi: peshtoq va hovli burchaklari 45°da kesik qilib ishlana boshlandi, buning natijasida binolarning qulayligi o'sdi	
		Savdo-sotiq binolar me'morligi	1	Buxoroda qanday savdo-sotiq binolari saqlangan?	Buxoroda XVI asrda qurilgan savdo-sotiq binolardan uch: Toqi zargaron, Toqi telpakfurushon, Toqi sarrafon : Chorsu binolari hamda Abdullaxon timi saqlangan; bulardan tashqari Toqi tirgaron Chorsusi bo'lib, u hozir saqlanmagan	
		Xonaqohlar me'morligi	1	Qanday binolar xonaqohlar me'morligiga misol bo'la oladi?	Buxorodagi Xo'ja Zaynuddin xonaqohi (ayni vaqtida mahalla masjidi vazifasini ham o'tagan), Bahovuddin va Chor Bakr majmualari tarkibidagi Xonaqohlar, Karmanadagi xonaqoh va ikki tomonlarida ayvonlari bo'lgan Fayzoboddagi xonaqohlar bunday turdag'i binolarning yorqin namunalari hisoblanadi	
		Irrigatsiya inshootlari	1	Qanday suv inshootlarini bilasiz?	XVI-XVII asrlarda muhandislik qurilmalarga, jumladan suv inshootlariga alohida e'tibor berilgan bo'lib, ularidan Mirzacho'ldagi sardoba, Abdullaxon bandi, G'ishtband nomlari bilan ataladigan to'g'on qoldiqlari, Qarshidagi	

					ko‘prik hozirgi kungacha etib kelgan
		Loyihalash ishlari	1	“Buxoro ustasi chizmalari turkumi”da nimalar ifodalangan?	“Buxoro ustasi chizmalari turkumi” tahminlarga ko‘ra XVI asrga oid bo‘lib, ularda tomonlari bir gazni ifodalovchi kataklarda namunaviy (tipik) inshoot (madrasa, xonaqoh, sardoba va boshqa bino)larning tarhlari chizilgan
		Mag‘oklar me’morligi	1	Mag‘oklar nima?	Mag‘oklar qisman yoki butunlay yer ostidagi masjidlar bo‘lib, ularga misol tariqasida Buxorodagi Mag‘oki attoriy (dastlab Moh masjidini nomi bilan atalgan, XVI asrda qayta qurilgan) masjidini va Mag‘oki ko‘rpa (XVII) masjidini misol tariqasida keltirish mumkin
		Buxorodan boshqa shaharlarning XVI-XVII asrlarda me’morligi	1	Buxorodan boshqa shaharlarda XVI-XVII asrlarga mansub qanday muhim binolar qurilgan?	Samarqandda Registon maydonidagi inshootlardan tashqari Abdi Berun majmuasida maqbara, xonaqoh, namozgoh, Toshkentda - Shayx Xovandi Tohur majmuasida Yunusxon maqbarasi (xonaqohi), Xazrati Imom majmuasida Baroqxon madrasasi, Qarshida namozgoh kabi binolar barpo etilgan
		Curxondaryoning XVI-XVII asrlardagi me’morligi	1	Termiz va uning shimalidagi XVI-XVII asrlarga oid me’morlikning qanday asarlarini bilasiz?	XVI-XVII asrlar mobaynida Termizdagi Sulton Saodat majmuasining shakllanishi nihoyasiga etdi; Kokildor ota xonaqohi qurildi, Denovda Sayid otaliq madrasasi barpo bo‘ldi; Iskandar ko‘prigining bunyod etilishi ham shu davrga to‘g‘ri keladi
15	XVIII-XIX asr o‘rtasidagi shaharsozlik	Mazkur davrdagi shaharsozlikning umumiy tavsiyi	1	XVIII-XIX asr o‘rtasidagi SHaharlar qanday tuzilgan bo‘lgan?	O‘rta Osiyoning XVIII-XIX asr o‘rtasidagi har bir shahar o‘zining jug‘rofiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-siyosiy sharoitlariga ko‘ra o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘igan; ayni vaqtda shaharlarning tarhlari aksari doiraga yaqin shaklda bo‘lib, ular qo‘rg‘on devor bilan o‘ralgan edi; markazlaridagi bozordan radial yo‘nalishda ketgan ko‘chalar shaharlarning darvozalariga olib borgan; shahar tizimidagi muhim tugunlari me’moriy majmualari bilan ajralib turgan
		Shaharlar qal’alari	1	Shaharlarning qal’alari qanday tuzilishga ega bo‘lgan?	Shaharlarning qal’a (ark, o‘rda)lari hokimiyatning qarorgohlari sifatida barpo bo‘lib, ular o‘rta asrlardagi shahristonga yaqin (Buxoro), ba’zan tutash (Xiva) joyda yoki shahar chekkasida joylashgan (Toshkent, Samarqand); qal’alar tarkibida mudofaa, mahkama inshootlari (arzxona va boshqalar), saroy kabilar bo‘lgan
		Xiva shahari tuzilishi	1	Xivaning tarhiy tuzilishi qanday bo‘lgan?	Xivaning shahristoni - Ichan qal’ada to‘rt: Polvon, Tosh, Ota va Bog‘cha darvozalari bo‘lgan; rabodi - Dishan qal’ada o‘n: Shayxlar, Gadoylar, Xazorasp, Shohimardon, Jalol (yoki Toshoyog‘), Tozabog‘, Pishkanik, Bog‘i Shamol, Gandumiyon, Qo‘s (yoki Urganch) darvozalari bo‘lgan; “Ko‘xna” qo‘s himchasini olgan ark shahriston ichida, Ota darvozasi yaqinida bo‘lgan
		Toshkent shahari tuzilishi	1	Toshkentning tarhiy tuzilishi qanday bo‘lgan?	Toshkentni qadimda “32 qopqoli” deyilgan, bu sonning hisobiga darvoza va kichik darvoza-qopqalar kirgan; darvozalardan 12 ta: Labzak, Qashgar, Qo‘qon, Quymas, Beshyog‘och, Kamolon, Samarqand, Ko‘kcha, Chig‘atoj, Sag‘bon, Qorasaroy va Taxtapul darvozalari bo‘lgan; o‘rtada Chors, uning atrofida Xazrati Imom, Shayx Xovand Tohur, Zangi ota, Zayniddin buva majmualari shakllangan

16	XVIII-XIX asr 1-yarmi me'morligi	2	Mazkur davr me'morligining umumiy tavsifi	1	XVIII-XIX asr 1-yarmidagi me'morligini nimalar bilan tavsiflash mumkin?	XVIII-XIX asr 1-yarmidagi me'morlikda ashyolardan yapaloq g'isht, yog'och, paxsa, ganch kabilar, konstruksiyalardan turli tayanch-to'siqli, toq-gumbazli konstruksiyalar, bezaklardan koshin, turli o'ymakorlik va naqqoshiliklar keng ko'lamma qo'llanilishi bilan xarakterlanadi; bu davr me'morligida qiyosan mohabatli me'morlikka qaraganda ommaviy bino-inshootlar me'morligi - xalq me'morligi ahamiyatlairoq bo'lgan
			Xalq me'morligi	1	Xalq me'morligi nimalar bilan xarakterlanadi?	Xalq me'morligi ko'proq mahallalarning markazlari bo'lmish guzarlar, mahalla masjidlari hamda shahar va dala turar uylari me'morligi bilan tavsiflanadi; unda xalq me'morlari tomonidan asrlar mobaynida sinab ko'rilgan va borgan sari takomillashib kelgan uslub-qoidalar o'z aksini topgan
			Guzarlar me'morligi	1	Guzarlar tarkibiga nimalar kiradi?	Guzarlar tarkibida aksari oldida hovuzi bo'lgan masjid (ayvoni yassi yopmali, honaqohi yassi yopmali yoki gumbazli), choyxona, sartaroshxona, novvoyxona va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun qurilgan ustaxona va do'konlar bo'lgan
			Mahalla masjidlari	1	Mahalla masjidlari qanday tuzilgan?	Mahalla masjidlari yopiq (honaqoh) va ochiq (ayvon) xonalardan iborat bo'lib, u deyarlik har doim yassi yopmali yoki gumbazli edi; ayvon honaqohga bir tomon (old - sharq yoki yon-shimol taraf)dan ikki tomon (odatda shimol va sharq taraf)dan yoyinkи uch tomon (old va yon taraf)dan tutashtirilgan; ustunlar 1,2,3 va undan ham ko'p qator (qadamli) vaziyatda o'rnatilgan
			Turar uylar me'morligi	1	Turar uylar qanday bo'lgan?	Tuzilishi jihatidan Xiva, Buxoro va Farg'ona turar uylari alohida ajraladi; ular ikki: tashqari (berun), ichkari (darun) hovlilardan tashkil topgan; turar uylarning joylashuvni jihatidan doimiy foydalilaniladigan rejaviy yechimi to'liq bo'lgan shahar turar uylari hamda mavsumiy foydalilaniladigan, rejaviy yechimi soddarorq dala turar uylari xillariga bo'linadi; sarflanadigan mablag' va hajm jihatidan oddiy turar uylar (xalq me'morligiga oid) va saroy (mahobatli me'morligiga oid) me'morligini farqlash lozim
			Buxoro amirligi me'morligi	1	Buxoro amirligi me'morligi qanday majmua va inshootlarda aks etgan?	Amirlik me'morligi Buxorodagi Ark, Bolohovuz masjidi, Xalifa Niyozqul (Chor minor) va Amir Olimxon madrasalari, Xalifa Xudoydod majmualari kabi misollarda o'z aksini topgan
			Xiva xonligi me'morligi	1	Xiva xonligi me'morligini qanday majmua va inshootlarda misolida ko'rib chiqiladi?	Xiva xonligi me'morligini Ichan qal'adagi Ko'hna ark, Muhammad Aminxon madrasasi, Juma masjid (kompozitsiyasi Xazoraspning Juma masjidda ham takrorlangan), Tosh hovli, Palvon darvoza oldidagi majmua (karvon saroy, tim, madrasa, darvoza), Pahlavon Mahmud maqbarasi, Sherg'ozixon madrasasi, Oq masjid kabi binolar, Dishan qal'adagi Sholikorboy, Bog'bonli masjidlari kabilar misoli taxlil qilish lozim
			Xiva minoralari	1	Xivadagi minoralar qanday shaharsozlik vazifasini bajaradi?	Xivadagi Kalta minor (Muhammad Aminxon madrasasi tarkibida), Juma va Sholikorboy masjidlari minoralari bir chiziqda joylashgan bo'lib, Ota va Polvon darvozalaridan o'tgan shaharning asosiy ko'chasini belgilab turadi
			Qo'qon xonligi me'morligi	1	Qo'qon xonligi me'morligi qanday majmua va inshootlarda namoyon bo'lgan?	Qo'qon xonligi me'morligi Qo'qon shahridagi O'rda, Jome masjidi, Norbutabiy madrasasi, Dahmai Shohon hazirasi, Marg'ilondagi Xo'ja Mag'iz maqbarasi, Pir Siddiq (Kaftarlik) majmuasi, Namangandagi Xo'ja Amin qabri maqbarasi

					kabi bino va inshootlarda namoyon bo‘lgan	
17	XIX asr o‘rtasi - XX asr boshidagi shaharsozlikning shaharsoz -lik	2	Mazkur davrdagi shaharsozlikning umumiy tavsif	1	XIX asr o‘rtasi - XX asr boshidagi shaharsozlikda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?	Mustaqillikni saqlab qolgan Buxoro va Xiva xonliklarida shaharlarning tizimlarida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lmagan; Qo‘qonda shahrida yangi ovrupacha qurilish asosan O‘rdaning g‘arbiy tomoni bo‘ylab yo‘nalgan tomonlarida va unga g‘arbdan perpendikulyar ketgan ko‘chalar olib borilgan; Toshkent, Samarqand kabi shaharlarning qo‘rg‘on devorlari buzib tashlangan, O‘rdalari o‘rnida yoki yaqinida yangi qal’alar barpo bo‘lgan; u shaharlarga tutashtirib yangi manzilgoh shaharlar tashkil etilgan
			SHaharlarning arxitekturaviy –tarhiy tuzilishi	1	SHaharlarning arxitekturaviy - tarhiy tuzilishi qanday bo‘lgan?	Aksari shaharlar bir-birlari bilan kam bog‘langan qadimiy, kattaroq (“Eski shahar”) va chog‘roq yangi (“Yangi shahar”)dan iborat bo‘lgan; ko‘pgina “Eski shahar” lar to‘rt yirik shaharsozlik birlik (daha, qit‘a kabi)larga bo‘lingan; yirik birliklar o‘z navbatida mayda (mahalla, guzar kabi)lardan iborat bo‘lgan; “Eski shahar”larning tevaraklari bog‘-rog‘ (mavze, bog‘ot kabi)lardan tashkil topgan; shaharlarning “Yangi shahar” qismlari alohida ma‘muriy mustaqil birlik hisoblangan
			Toshkentning shaharsozlik tuzilishi	2	Mazkur vaqtida Toshkent qanday tuzilishda bo‘lgan?	1865 yildan keyin chor ma‘muriyati tomonidan shahar qo‘rg‘on devorlari, O‘nda va Anxorning chap tomonidagi Toshkentning qismi buz-dirilgach, Qo‘ymas darvozasi oldida uch dar-vozali, olti burchak-bastionli yangi qal‘a-Tup-roq qo‘rg‘on qurildi; Yangi shahar istehkomlari ikki bosqichda qurildi - u dastlab Anxor va Shivli ariqlari oralig‘ida katak tarhli hudud (1866 y., topograf M.Kolesnikov), keyin Shibliidan sharqqa yarim aylana tarhli hudud (1870)y. muhandis A.Makarov) hisobiga kengayib bordi
			Samarqand shaharsozlik tuzilishi	2	Samarqand XIX asr 2-yarmida qanday tuzilishga ega bo‘lgan va unda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lgan?	Samarqand hisorining olti: Poyi Kabok, Shohi Zinda, Qalandarxona, So‘zangaron, Xo‘ja Ahror va Buxoro darvozalari bo‘lgan; Hisorning g‘arbini 10 metrcha balandlikda katta (31.2 ga) qal‘a egallagan bo‘lib, u o‘ziga xos kichik kentni tashkil etgan; shahar tashqarisida dala joylar (bog‘ot) bo‘lgan; 1870-1875 yillarda Samarqandning g‘arb va janubi-g‘arbiy tevaragi hududida yangi shahar rejasi amalga oshirildi; uning tarhi qal‘adan radial yo‘nalishlarda ketgan uch va yoysimon besh ko‘chalardan tashkil topgan; 1880 yilda qadimgi qal‘a hududida yangi qal‘a qurildi
			Yangi Marg‘ilon (Farg‘ona) shaharining tuzilishi	1	Hozirgi Farg‘ona shaharining dastlabki tuzilishida qanday o‘ziga xosliklar bo‘lgan?	Nomlari Yangi Marg‘ilon (1907 yilgacha), Skobelev (mahalliy talaffuzda-Iskobil, 1907-1924 yillarda) deb atalgan shahar Marg‘ilondan 10 km janubda, Marg‘ilonsoy-ning asosan chap tomonida 1877-1904 yillarda qurilgan; besh bastionli qal‘adan radial yo‘nalishda besh ko‘cha tarqalgan, shaharning jamoat markazi hozirgi - Ahmad Farg‘oniy va o‘rtada unga perpendikulyar bo‘lgan ko‘chalar atrofida vujudga kelgan
18	XIX asr oxiri - XX asr boshidagi	2	Mazkur davr me‘morligining umumiy tavsifi	2	XIXasr oxiri - XX boshlaridagi me‘morlik nimalar bilan xarakterlanadi?	Oldingi davr me‘morligi an‘analari, jumladan uslublari XIX asr oxiri - XX asrda ham davom ettirilgan holda, ancha tezkorlik bilan Ovrupacha qurilish ashyolaridan, konstruksiyalardan foydalanila boshlandi, bino-inshootlarning yangi turlari (bank, mehmonxona-otel va boshqalar) qurila boshlandi;

	me'mor-lik				Rossiyada shu davrda tarqalgan uslublar: soxta Vizant, soxta rus, antik, gotik kabi uslublar hamda yangi modern uslubi qo'llanila boshlandi
		XIXasr oxiri - XX asr boshidagi Buxoro amirligi me'morligi	2	Buxoro amirligining XIX asr oxiri - XX asr boshidagi me'morligi qaysi namunalarda namoyon bo'ladi?	Bino turlarining qadimiyalarida Ovrupacha jihatlar aksari kamroq bo'lgan masalan, Sitorai Mohi Xossa saroyida, yangi turdag'i binolar asosan Ovrupocha qurilgan, chunonchi, Kogon temir yo'li tarmog'idagi vokzal binosi, ikki kasalxona, turli magazin, firmalar idoralari, banklar bo'limlari kabi vazifalarni o'zida jamlab o'tash uchun qurilgan, ko'p funksiyali binolar yangi me'morlik uslubiga taaluqlidir
		Toshkent Eski shaharining XIX asr oxiri-XX asr boshidagi me'morligi	1	O'zgarishlar Toshkentning Eski qismidagi qaysi binolarda namoyon bo'lgan?	Turkiston o'lkasi poytaxtiga aylantirilgan Toshkentda me'morlik shaharning Eski va Yangi qismlarida ancha keskin farqlangan; Eski qismida Ovrupacha yangiliklar bir qancha inshootlarda, jumladan SHayh Xovand Tohur majmuasi darvozaxonasi (1892 y., Usta Abdurahim), To'xta boyvachcha masjidi majmuasi kabilar me'morligiga o'z ta'sirini ko'rsatdi
		Turkiston o'lkasidagi (poytaxtdan boshqa) shaharlari me'morligi	2	Farg'ona vodiysi shaharlarining XIX asr oxiri-XX asr boshidagi me'morligi qanday inshootlar bilan xarakterlanadi?	Farg'ona vodiysi shaharlarida XIX asr oxiri-XX asr boshida binolarning qadimiy turlari me'morligida yangicha jihatlar ko'p hollarda kamroq, ayrim hollarda esa ko'proq paydo bo'la boshlagan – Qo'qonda - Kamol Qozi (XIX asr), Xalfa Tillo majmuasi (XX asr boshi); Marg'ilonda - Sayid Ahmad madrasasi (XIX asr oxiri), CHaqir masjidi (1911 y.), Andijonda - Jome masjid (XIX asr oxiri), Ota qo'zi madrasasi (XX asr boshi), Ahmadbek Xoji mehmonxonasi (1905-1907 y., Ovrupa jihatlar ko'proq); Namanganda - Ota Valixon to'ra masjidi (XX asr boshi), Mulla Qirg'iz madrasasi kabilar bunyod etilgan
		Turkiston o'lkasidagi Ovrupocha me'morlikdagi binolar turlari	1	Yangi uslubda qanday turlardagi binolar qurilgan?	Yangi uslub har xil turdag'i binolar me'morligiga tadbiq bo'lgan; ular qatorida turar joylar, harbiy binolar, magazinlar, banklar, nasoriy diniy inshootlar, ma'muriy binolar, ko'ngil ochar binolar, o'quv va ilmiy binolar, muhandislik inshootlar mayuddir
		XIX asr oxiri-XX asr boshidagi Xiva xonligi me'morligi	2	Mazkur davrdagi Xiva xonligi me'morligini nimalar bilan tavsiflash lozim?	Xivada XIX asr oxiri - XX asr boshida Paxlavon Mahmud maqbarasi bilan Ko'hna arkda katta hajmlardagi ishlar olib borilishi natijasida bu majmualar nihoyasiga yetkazildi; 1908-1912 yillarda Islom xo'ja tomonidan majmua barpo ettirildi; Ovrupacha jihatlar ko'proq Dishan qal'adagi Nurillaboy saroyida (ayniqsa Asfandiyorxon ko'rinish xonasida) va Qubla Tozabog' saroyida (shiftda - naqshinkor faneria, polda - taxta qo'llanilgan) o'z ifodasini topgan; kasalxona va pochta binolarining tashqi ko'rinishlarida an'anaviy shakllar va bezaklar qo'llanilgan